Hozirgi kunda internet keng ommalashgani sababli, zamon taraqqiyotini veb-texnologiyasiz tassavvur etish mumkin emas. Veb texnologiyalariga talab oshgan sari Web-dasturlash tillarini bilish har bir dasturchi uchun muhim vazifa sanalmoqda. SHularni inobatga olgan holda zamonaviy veb-dasturlash tillaridan biri hisoblangan, sodda, o'rganishga qulay, barcha ma'lumotlar bazasi bilan ishlay oladigan PHP haqida batavsilroq to'xtalishga niyat qildik. Kelgusida bu til o'zbek tilida yoritilib boriladi hamda mutaxassis va o'rganuvchilar uchun forum tashkil qilinadi.

PHP tarixi. Ko'pgina boshqa dasturlash tillaridan farqli ravishda, PHP qandaydir tashkilot Yoki kuchli dasturchi tomonidan yaratilgan emas. Uni oddiy foydalanuvchi Rasmus Lerdorf 1994 yili o'zining bosh sahifasini interaktiv uslubda ko'rsatish uchun yaratgan. Unga Personal Home Page (PHP – shaxsiy bosh sahifa) deb nom bergan.

1995 yili Rasmus PHPni o'zining HTML formalari bilan ishlaydigan boshqa dastur bilan umumlashtirib PHP/FI Version 2 (”Form Interpretator“) hosil qildi. 1997 yilga borib PHP dan foydalanuvchi saytlar 50 mingdan oshdi. SHundan so'ng veb texnologiya ustalari PHP g'oyasi asosida mukammal til yaratishga Ziva Suraski va Endi Gutmans asoschiligida kirishildi. PHPni samarali deb hisoblanmagani uchun deyarli noldan boshlab, mavjud S va Perl tillaridan ibrat

olib PHP3 talqinini yaratildi. 1999 yilga kelib PHP asosida qurilgan saytlar milliondan oshib ketdi. 2000 yilda esa Zend Technologies shirkati yangi ko'pgina funksiyalarni qo'shgan holda PHP4 sharhlovchisini yaratdi.

PHP – veb texnoogiya tili. PHPni o'rganish uchun avval HTML va dasturlash tilidan habardor bo'lish talab qilinadi. HTML/CSS va JavaScript larni mukammal bilguvchilar uchun PHPni o'rganish murakkablik tug'dirmaydi. PHPning vazifasi HTML faylini yaratib berish. JavaScript yordamida bajariladigan ko'pgina operasiyalarni PHP orqali ham amalga oshirish mumkin, ammo e'tibor qilish lozimki, PHP – serverda; JavaScript – kliyent tomonda bajariladi. PHPda yozilgan kod serverning o'zida bajarilib, kliyentga HTML shaklida yetib boradi. Bu havfsizlik jahatdan ancha maqsadga muvofiq. JavaScript yordamida kod yozish, ma'lumot uzatish va qabul qilishni biroz tezlashtirsa-da, kodni kliyent ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Baribir har ikkisini boshqasi bosa olmaydigan o'z o'rni bor, ravshanki bu o'rin PHPda muhimroq va kattaroq.

## 1.2. PHP imkoniyatlari

«PHP da har qanday dastur bajarsa bo'ladi», – degan edi uning yaratuvchisi. Birinchi navbatda PHP tili server tomonidan bajariladigan skriptlar yaratish uchun foydalaniladi va aynan shuning uchun u yaratilgan. PHP tili ixtiyoriy CGI-skriptlari masalalarini yechishga va bundan tashqari html formali ma'lumotlarni qayta ishlashga hamda dinamik ravishda html sahifalarni ishlab chiqishga qodir. Biroq PHP tili foydalaniladigan boshqa sohalar ham mavjud. Bu sohalarni biz uchta asosiy qismga bo'larniz:

Birinchi soha – biz yuqorida aytib o'tganimizdek, server tomonidan bajariladigan ilovalar (skriptlar) yaratish. PHP tili bunday turdagi skriptlarni yaratish uchun juda keng qo'llaniladi. Bunday ish ko'rsatish uchun PHP-parser (ya'ni php-skriptlarni qayta ishlovchi) va skriptlarni qayta ishlovchi web-server, skriptlarni natijasini ko'rish uchun brauzer va albatta php-kodini yozish uchun qanday bo'lsa ham matn muharriri kerak bo'ladi. PHP-parser CGI-dasturlar ko'rinishida Yoki server modullari ko'rinishida tarqalgan. Uni va web-serverni

kompyuterimizga qanday o’rnatamiz, biz bu haqida keyinroq ko’rib o’tamiz.

Ikkinchi soha – buyruqlar satrida bajariladigan skriptlarni yaratish. Ya’ni PHP tili yordamida biror-bir kompyuterda brauzer va web-serverlardan mustaqil ravishda o’zi bajariladigan skriptlarni ham yaratish mumkin. Bu ishlarni bajarish uchun hyech bo’lmaganda PHP-parser (bu holatda biz uni buyruqlar satri interpretatori (CLI, command line interpreter) deb ataymiz) talab etiladi. Bunday ishlash uslubi turli masalalarni rejalashtirish yordamida bajarilishi uchun kerak bo’lgan skriptlar Yoki oddiy matnni qayta ishlash uchun kerak bo’lgan masalaga o’xshash ishlaydi.

Va nihoyat oxirgi uchinchi soha – bu mijoz tomonidan bajariladigan GUI-ilovalarni (grafik interfeys) yaratish. Bu soha PHP tilini endigina o’rganayotgan foydalanuvchilar uchun uncha muhim bo’lmagan sohadir. Biroq agarda siz PHP tilini chuqur o’rgangan bo’lsangiz, bu soha siz uchun ancha muhimdir. PHP tilini bu sohaga qo’llash uchun php kengaytmali maxsus yordamchi – PHP-GTK talab etiladi.

SHunday qilib, PHP tilini qo’llanilish sohalari keng va turlichadir. Yuqoridagi masalalarni yecha oladigan boshqa turlicha dasturlash tillari ham mavjud, unda nima uchun PHP tilini o’rganishimiz kerak? U til bizga nima beradi? Birinchidan, PHP tili o’rganish uchun juda qulay. PHP tilini sintaksisi asosiy qoidalari va ishlash prinsipi bilan yetarlicha tanishib chiqib o’zingizni shaxsiy dasturingizni tuzib ko’rib, so’ngra uni boshqa dasturlash tillarida tuzilgan variantlari bilan solishtirsangiz bunga guvohi bo’lasiz.

Ikkinchidan, PHP tili barcha bizga ma’lum platformalarda, barcha operasion tizimlarda hamda turlicha serverlarda erkin ishlay oladi. Bu xususiyat juda muhim. Masalan, kimdir Windows operasion tizimdan Linux operasion tizimga Yoki IIS serverdan Apache serverga o’tmoqchi bo’lsa PHP tilini o’rganishi shart.

PHP dasturlash tilida dasturlashning ikkita hammabop paradigmalari ishlatiladi, bular prosedurali va obyektli dasturlash. PHP4 dasturlash tili prosedurali dasturlashni butunlay qo’llab quvvatlaydi, biroq obyektli stildagi dasturlarni ham qo’llasa bo’ladi. PHP5 dasturlash tilining birinchi testlash

versiyasida PHP4 dasturlash tilida uchraydigan obyektga yo'naltirilgan dasturlash modellarining kamchiliklari to'ldirilgan. SHunday qilib, hozirda tanish bo'lib ulgurgan ishlash prinsipini tanlash kerak.

Agarda PHP tilini hozirgi imkoniyatlari to'g'risida gaplashadigan bo'lsak, u holda biz PHP tilini birinchi versiyasidan ancha yiroqlashib ketgan bo'larniz. PHP dasturlash tili yordamida tasvirlar, PDF-fayllar, flesh-roliklar yaratish mumkin; hozirgi vaqtdagi zamonaviy ma'lumotlar bazasini qo'llab quvvatlaydi; ixtiyoriy matnli fayl formatlari bilan, hamda XML va fayllar tizimi bilan ishlaydigan funksiyalar ham qo'shilgan. PHP tili turli servislar o'rtasidagi protokollarning o'zaro aloqasini qo'llab quvvatlaydi. Bularga misol tariqasida papkalarga kirishni boshqarish protokoli LDAP, tarmoq qurilmalari bilan ishlaydigan protokol SNMP, ma'lumotlarni uzatish protokollari IMAP, NNTP hamda POP3, gipermatnlarni uzatish protokoli HTTP va boshqalarni olish mumkin.

PHP dasturlash tilini turli dasturlash tillari o'rtasidagi o'zaro aloqasiga diqqatni qaratsak, bunga Java dasturlash tilini aytib o'tish kerakki, Java dasturlash tili obyektlarini PHP tili o'z obyektlari sifatida qaraydi. Obyektlarga murojaat sifatida CORBA kengaytmasidan foydalaniladi.

Matnli axborotlar bilan ishlash uchun PHP tili o'ziga Perl dasturlash tilidagi tartiblangan ifodalar bilan ishlay oladigan mexanizmlarni (katta bo'lmagan o'zgarishlarsiz) va UNIX-tizimini meros qilib oladi. XML-hujjatlarini qayta ishlash uchun standart sifatida DOM va SAX, XSLT-transformasiyasi uchun API dan foydalanishi mumkin.

Elektron tijorat ilovalarini yaratish uchun bir qator to'lovni amalga oshiradigan Cybercash, CyberMUT, VeriSign Payflow Pro hamda CCVS kabi foydali funksiyalar mavjud.

## 1.3. Dasturiy vositani sozlash va o'rnatish

Yuqorida PHP tili imkoniyatlarini, qo'llanilish sohalarini muhokama qildik va tarixini o'rgandik. Endi dasturiy vositani o'rnatishga kerak bo'lgan uskunalar majmuini ko'rib o'tsak. Modomiki, asosiy kursning amaliyoti sifatida biz quyidagi

masalalarni ko’rib chiqamiz: kliyent-server texnologiyasi sifatida ishlanadigan masalalar, mos ravishda skriptlar yaratilishida qo’llanilishi, serverlarni qayta ishlash. Bular uchun bizga web-server hamda PHP tili interpretatori kerak bo’ladi. Web-server sifatida, masalan, web-mutaxassislar o’rtasida mashhur bo’lgan Apache serverni olarniz. Dastur natijasini ko’rish uchun web-brauzer kerak bo’ladi, bunga misol Internet Explorer.

**Denver Distributivi**

Biz yuqorida Linux va Windows platformalari uchun PHP dasturiy vositasini sozlash va o’rnatish bilan yetarlicha tanishmiz. PHP dasturiy vositasi va uni ishlashi uchun kerak bo’ladigan komponentalarni o’rganishni xohlamaydiganlar uchun PHP dasturining tayyor PHP tilini to’ldiradigan distributivlari mavjud. Bunday distributivlar ichida keng tarqalgani - Denver (http://dklab.ru/chicken/web/). Uni o’rnatishni o’rganish uchun web-mutaxassislar saytlariga murojaat qilish kerak. Denverni o’rnatish juda oddiy hamda unga hyech qanday bilim talab etilmasligini aytib o’tish kerak. Bu distributivni PHP tilini endigina o’rganayotgan yosh dasturchilar uchun tavsiya etamiz. Jiddiy masalalarni hal etish uchun esa PHP dasturlash tilini to’liq o’rnatish va sozlash kerak bo’ladi.

PHP dasturlash tili, server tomonda dasturlash, denver paketi

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Qanaqa dasturlash tillarini bilasiz?
2. PHP dasturlash tili imkoniyatlari haqida gapiring.
3. Server tomonda dasturlash deganda nimani tushunasiz?
4. PHP ni ishga tushirish, Denver paketi va undan foydalanish.

## 2-ma’ruza. PHP asosiy tuzilishi. Ma’lumotlar tiplari. Ifodalar. Jarayonlarni boshqarish

**Reja:**

**2.1. PHP asosiy tuzilishi.**

**2.2. Asosiy sintaksislar.**

**2.3. Ma’lumotlar tiplari.**

**2.4. Alternativ sintaksislar.**

*Kalit so’zlar: PHP kod sintaksisi, ma’lumot tiplari, ifodalar, jarayonlarni boshqarish*

### 2.1. PHP asosiy tuzilishi

Ko’p hollarda *PHP* tilini interpretatori ishlayotganligini tekshirib ko’rish uchun tuziladigan dastur eng sodda dastur deb ataladi. Hozir biz *PHP* tilidagi ushbu dasturni chuqur o’rganamiz hamda uni boshqa dasturlash tillari Ci, Perl va JavaScript lardan farqli tomonini tekshiramiz. Ushbu **misolni** ko’ramiz:

```
<html>
  <head>
  <title> Misol </title>
  </head>
  <body>
  <?php
  echo "<p> Salom, bu men – PHP skript! </p>";
  ?>
</body>
</html>
```

Bu *PHP* dasturlash tilining maxsus kodli teglari yordamida tuzilgan sodda html-fayldir.

Yuqorida aytib o’tganimizdek, *PHP* dasturlash tili Ci va Perl dasturlash tiliga o’xshash. Biroq keltirilgan dastur Ci va Perl dasturlash tilidagi dasturdan ancha katta farq qiladi. Bu yerda HTML sahifaga chiqarish uchun bir qator maxsus buyruqlarni yozish shart emas. Bevosita *PHP*-kod asosida qurilgan biror vazifani bajaradigan HTML-*skript* yoziladi (bizni misolda ekranda chiqarilgan matn). *PHP* dasturlash tilining Ci va Perl dasturlash tillaridan kamchiligi shuki, murakkab skriptlarni *PHP* dasturlash tili ancha sekin bajaradi.

***PHP-skriptlar*** – bu serverda bajariladigan va qayta ishlanadigan dasturlardir. Bu skriptlarni JavaScript tipidagi skriptlar bilan taqqoslash mumkin emas, chunki JavaScript tilidagi skriptlarda yozilgan buyruqlar faqat kliyent kompyuteridagina bajariladi. Kliyent kompyuterida va server kompyuterida bajariladigan skriptlarning farqi nimada? Agarda skript serverda qayta ishlansa, mijoz kompyuteriga faqatgina natija yuboriladi. Masalan, agarda serverda skript bajarilayotgan bo’lsa, yuqorida keltirilganga o’xshab mijoz HTML-sahifa ko’rinishdagi natijani oladi:

```
<html>
   <head>
   <title> Misol </title>
   </head>
   <body>
   <p> Salom, bu men – PHP skript! </p>
   </body>
</html>
```

Bu holatda mijoz qanday kod bajarilayotganini bilmaydi. O’z serveringizni HTML-fayllarni *PHP* prosessori qayta ishlaydigan qilib sozlab olishingiz ham mumkin. Ya’ni kliyentlar oddiy HTML-faylni qabul qildimi Yoki skript natijasini ko’rdimi buni bila olmaydi. Agarda skript kliyent kompyuterida qayta ishlansa (masalan, JavaScript tilidagi dastur), u holda kliyent skript kodidan iborat HTML-sahifani ko’radi.

Biz yuqorida aytib o’tgandikki, *PHP-skriptlar HTML*-kod ichida yoziladi. Qanday qilib degan savol tug’iladi. Buning bir nechta usullari mavjud. Bulardan biri birinchi misolda keltirilganidek, *<?php* tegi bilan boshlanib *?>* tegi bilan tugagan sintaksis. Bunday ko’rinishdagi maxsus teglar HTML va *PHP* rejimidagina ishlatiladi. Bu sintaksis *PHP* tilini *XML* hujjatlari bilan birgalikda ishlaydigan dasturlarida juda ma’qul ko’riladi (masalan, XHTML tilida yozilgan dasturlarda). Biroq bazan quyidagi alternativ variantdan foydalansa ham bo’ladi(echo "Some text" buyrug’i «Some text» matnini ekranga chiqaradi.):

```
<? echo "Bu PHP tilida
        oddiy qayta ishlashning
        instruksiyasi"; ?>

<script language="php">
 echo "Bir nechta redaktorlar
      (FrontPage) quyidagicha
      qabul qilishadi";
</script>

<% echo " ASP texnologiyasidagi tegdan
        ham foydalansa bo’ladi"; %>

```

Bu keltirilgan usullardan birinchisi har doim ham bajarilavermaydi. Undan foydalanish uchun qisqa teglarni ishlatish kerak, Yoki *PHP*3 uchun *short_tags*() funksiyani ishlatish kerak, Yoki *PHP* tilining konfigurasion fayliga short_open_tag buyruqni o’rnatish kerak, Yoki *PHP* dasturlash tilida *enable-short-tags* parametr bilan kompilyasiya qilish kerak. Agarda php.ini-dist buyruqqa yuqoridagilar avtomatik qo’shilgan bo’lsa, u holda qisqa teglardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Ikkinchi usul xuddi o’rniga qo’yishga o’xshaydi, masalan, JavaScript kodlari va uning uchun mos html teglar. SHuning uchun undan har doim foydalanish mumkin, lekin bu noqulayligi uchun kamdan-kam ishlatiladi. Uchinchi usuldan

faqat ASP texnologiyasidagi teglar *asp_tags* konfigurasiyasida ishlatilgandagina foydalaniladi.

*PHP* dasturlash tili faylni qayta ishlayotganda u oddiy matnni *PHP* kod interpretasiya qilishi kerak bo'lgan maxsus teglarni uchratmaguncha qaytarib beradi. Interpretator haqida gapirganda u topilgan barcha kodni yopiladigan teggacha bajaradi, so'ng yana oddiy matn qaytariladi. Bu mexanizm *PHP*-kodni HTML sahifaga aylantiradi, ya'ni barcha *PHP* teglardan tashqari barcha matnlarni o'zgarishsiz saqlaydi va ichkaridagilarni esa interpretasiyalaydi. Yana shuni aytish kerakki, php-fayl *CGI*-skriptga o'xshamaydi. php-fayl bajarilishi shart emas, Yoki yana qandaydir belgilanadi.

php-faylni serverda qayta ishlash uchun jo'natishda server tomonidan brauzer satrida bu faylni yo'lini ko'rsatish shart. *PHP* skriptlar www orqali kirishga ruxsat etilgan joyda joylashishi shart. Agarda php-fayl lokal kompyuterda mavjud bo'lsa, u holda uni buyruqlar satri interpretatori yordamida qayta ishlash mumkin.

**Xulosa.**

SHunday qilib, biz *PHP* dasturlash tili haqida ma'lumotga ega bo'ldik, u qanday dunyoga kelgan va tarqalgan, uni qanday va qayerda foydalanilishini o'rgandik, dasturiy vositani o'rnatdik hamda uni ishlashi uchun barcha sozlashlarni bajardik va *php*-dastur nimalardan tashkil topishini angiadik. Keyingi bo'limlarda biz *PHP* dasturlash tilining asosiy sintaksislarini ko'rib chiqamiz hamda bir qancha amaliy masalalarni hal etamiz.

## 2.2. Asosiy sintaksislar

Instruksiyani bir nechta qismga bo'lib ko'rib chiqamiz, ya'ni kommentariylar yaratish, o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va ma'lumot tiplari, operatorlarga.

Biz endi *PHP* dasturlash tilining asosiy sintaksis elementlarini o'rganishga o'tamiz. Misol sifatida elektron maktub tayyorlash masalasini ko'rib o'taylik.

Uning ma’nosi quyidagidan iborat.

Faraz qilarnizki, sizda qandaydir e’lon va e’lonni jo’natishingiz kerak bo’lgan bir nechta odamlar mavjud bo’lsin. Buning uchun siz e’lonni ichida o’zgaradigan (qabul qiluvchi bilan bog’liq bo’lmagan) bir nechta parametrlari mundarijasi bilan tayyorlaysiz.

Birinchi navbatda PHP dasturlash tili sintaksisiga nisbatan nimalarni bilish kerak. Bu HTML-kod ichiga o’rnatilgan va PHP dasturlash tilidagi koddir, uni interpretator farqlay biladi. Avvalgi bo’limlarda bular haqida aytib o’tgandik. Hammasini qaytarib o’tmaymiz, faqat biz ko’p hollarda misollarda <?php ?> variant o’rniga qisqartirilgan <? ?> teglardan foydalanishni aytib o’tamiz.

**Instruksiyalarni ajratilishi.**

PHP dasturlash tilidagi dastur(ixtiyoriy dasturlash tilidagi) – bu buyruqlar (instruksiyalar) to’plarnidir. Dasturni qayta ishlash uchun bir buyruqni boshqa buyruqdan farqini bilish kerak. Buning uchun maxsus sinivollar – ajratgichlardan foydalaniladi. PHP dasturlash tilida instruksiyalarni xuddi Ci Yoki Perl dasturlash tillari kabi ajratiladi, ya’ni har bir ifoda nuqtali vergul (“;”) bilan tugaydi.

«?>» yopiladigan teg ham instruksiyani tugashini angiatadi, shuning uchun undan oldin nuqtali vergul qo’yilmaydi. Masalan, quyidagi ikki fragmentlar ekvivalentdir:

```
<?php
echo "Hello, world!"; // buyruqlar oxirida nuqtali vergul qo’yish shart
?>
<?php
echo "Hello, world!" ?>
<!-- "?>" borligi uchun
   nuqtali vergul tashlab ketildi -->
```

**Kommentariylar.**

Ko’p hollarda dastur tuzganda kodni tushunarli bo’lishi uchun unga qandaydir izoh-***kommentariylar*** qo’yish kerak bo’lib qoladi. Bu holat katta hajmdagi dasturlar yaratganda hamda agarda bitta dastur ustida bir nechta

dasturchi ishlayotganda juda muhim. Kommentariylar dasturning kodi tushunarli bo'lishi uchun yoziladi. Bundan tashqari masalani qismlarga ajratib hal qilinganda ishning kamchiligi bor joyida keyinchalik esdan chiqmasligi uchun kommentariya yozib qo'yiladi. Barcha dasturlash tillarida dastur ichiga kommentariya qo'shish imkoniyati mavjud. *PHP* dasturlash tili bir qancha ko'rinishdagi kommentariylarni qo'llab quvvatlaydi: Ci, C++ dasturlash tillari stilidagi hamda Unix qobig'idagi kommentariylar. // va # belgilar bir satrli kommentariylarni angiatsa, /* va */ belgilar esa mos ravishda ko'p satrli kommentariylarning boshlanish va tugashini angiatadi.

**Misol**:PHP dasturlash tilida kommentariyning qo'llanilishi

```
<?php
echo "Meni ismim Alisher";
  // Bu bir satrli kommentariy
  // S++ dasturlash tili stilidagi
echo "Meni familiyam Boliyev";
/* Bu ko'p satrli kommentariy. Bu yerga bir qancha satr yozish mumkin. Dastur bajarilish jarayonida bu yerdagi barcha yozuvlar (kommentariylangan), o'qilmaydi. */
echo "Men PHP dasturlash tilini INTUIT.ru dan o'rganyapman";
  # Bu kommentariy
  # Unix qobig'idagi kommentariy.
?>
```

**o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va operatorlar**

Har bir dasturlash tilida muhim elementlardan biri bu *o'zgaruvchilar*, *o'zgarmaslar* va ular qo'llaniladigan *operatorlar*dir. PHP dasturlash tili bu elementlarni qanday belgilashi va qayta ishlashini ko'rib chiqamiz.

**O'zgaruvchilar**

*PHP* dasturlash tilida *o'zgaruvchilar* oldiga dollar belgisi ("$") qo'yib e'lon qilinadi, masalan, $my_var.

*O’zgaruvchilar* nomlari registrlarni farqlaydi, ya’ni $my_var hamda bosh harfli $My_var o’zgaruvchilari turli xil o’zgaruvchilardir.

*PHP* dasturlash tilida o’zgaruvchilar nomi qolgan dasturlash tillari qoidalari kabi e’lon qilinadi: o’zgaruvchi nomi lotin alfaviti bilan boshlanishi va undan keyin harflar Yoki tagiga chizilgan belgi Yoki raqamlar bo’lishi mumkin.

***PHP4*** dasturlash tilida bulardan tashqari o’zgaruvchiga qiymat o’zlashtirishning yana bir usuli mavjud: ssылka bo’yicha *o’zlashtirish*. Ssылka bo’yicha o’zgaruvchiga qiymat o’zlashtirish uchun uni nomi bo’lishi shart, ya’ni u qandaydir o’zgaruvchini taqdim etishi kerak. Bir o’zgaruvchi qiymatini boshqa o’zgaruvchiga Ssылka bo’yicha *o’zlashtirish* uchun birinchi o’zgaruvchi oldiga ampersand & belgisi qo’yish shart.Bunga yuqoridagi misolni ko’rib chiqamiz, faqat first o’zgaruvchi second o’zgaruvchiga ssылka bo’yicha o’zlashtiriladi:

**Misol**. Ssылkalar bo’yicha o’zlashtirish.

```
<?php
$first = ' Text '; // $first o’zgaruvchiga
                  // ' Text ' qiymat o’zlashtirildi
$second = &$first;
/* $second.orqali $first o’zgaruvchiga ssылka qilarniz
   Endi bu o’zgaruvchilar qiymatlari
    har doim tengdir */
// $first o’zgaruvchi qiymatini
// ' New text ' qiymatga o’zgartiramiz
$first = ' New text ';
echo "first nomli o’zgaruvchi qiymati $first ga teng <br>";
// $second o’zgaruvchi qiymatini ekranga chiqaramiz
echo "second nomli o’zgaruvchi qiymati " . "$second ga teng";
?>
```

Bu skriptni natijasi esa quyidagicha bo’ladi:

- first nomli o’zgaruvchi qiymati New text ga teng.
- second nomli o’zgaruvchi qiymati New text ga teng.

Ya'ni $first o'zgaruvchi qiymati o'rniga $second o'zgaruvchi qiymati o'zlashtirildi.

**O'zgarmaslar**

Skript bajarilish jarayonida o'zgarmaydigan qiymatli kattaliklarni saqlash uchun ***o'zgarmaslar***dan foydalaniladi. Bunday kattaliklar matematik o'zgarmaslar, parollar, fayllarning yo'llari va boshqalar bo'lishi mumkin. O'zgarmaslarning o'zgaruvchilardan asosiy farqi shuki, ularni faqat bir martagina o'zlashtiriladi va uni qiymatini e'lon qilingandan keyin bekor qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari o'zgarmaslar oldida dollar belgisi qyilmaydi hamda uni oddiy qiymat o'zlashtirish kabi qarash mumkin emas. O'zgarmaslar qanday aniqlanadi? Buning uchun maxsus define() funksiyasi mavjud, uning sintaksisi quyidagichadir:

**define("O'zgarmas nomi", "O'zgarmas qiymati", [registrga_sezgirligi_kichik])**

O'zgarmaslar nomi registrga segirligi katta. Har bir o'zgarmaslarda uni o'zgartirish mumkin, ya'ni *registrga_sezgirligi_kichik* argumentni qiymati sifatida True ыiymati ko'rsatiladi. O'zgarmaslar nomi har doim katta registr bilan yozishga kelishib olingan.

O'zgarmasni qiymatini bilish uchun uni nomini ko'rsatish kerak. O'zgaruvchidan farqi o'zgarmas nomi oldiga $ belgi qo'yilmaydi. Bundan tashqari o'zgarmasni qiymatini bilish uchun konstanta nomi bilan parametr sifatida constant() funksiyasidan foydalanish mumkin.

**Misol**. PHP dasturlash tilida o'zgarmaslar.

```
<?php
// o'zgarmasni aniqlaymiz PASSWORD
define("PASSWORD","qwerty");
// registrlanmagan PI o'zgarmasni qiymatini aniqlaymiz 3.14
define("PI","3.14", True);
// PASSWORD o'zgarmas qiymatini olarniz,  ya'ni qwerty
echo (PASSWORD);
// bu ham qwerty ni chiqaradi
```

echo constant("PASSWORD");

echo (password);

/* password ni chiqaradi va biz registrlangan o’zgarmas PASSWORD ni kutgandik.*/

echo pi;

// 3.14 ni chiqaradi, chunki o’zgarmas PI registrlanmagan va aniqlangan.

?>

Dasturchi tomonidan o’zgaruvchilardan tashqari yuqorida aytib o’tganimizdek *PHP* dasturlash tilida mavjud o’zgarmaslar ham interpretator tomonidan aniqlanadi. Masalan, __FILE__ o’zgarmas dastur bajarilish jarayonida fayl nomini (va fayl yo’lini), __FUNCTION__ funksiya nomidan tashkil topadi, __CLASS__ - sinf nomi, PHP_VERSION – *PHP* dasturlash tili interpretatori versiyasini o’zida saqlaydi. Bunday o’zgarmaslarning barcha ro’yxatini *PHP* dasturlash tili uchun mo’ljallangan qo’llanmalardan topish mumkin.

**Amallar.**

O’zgaruvchilar, o’zgarmaslar va ifodalar ustida turli hisoblashlarni bajaradigan bu ***amallar***dir. Biz hali bu ifodalar haqida to’xtab o’tganimiz yo’q. Ifodalar qiymatini ushbu amallar yordamida aniqlanadi. O’zgaruvchilar va o’zgarmaslar – bu ifodalarning asosiy va juda sodda shaklidir. SHunday ifodalarni ko’paytirishi mumkin bo’lgan amallar to’plarni mavjud. Ularni quyida to’liqroq muhokama qilarniz:

| **2.1-jadval. Arifmetik amallar.** | | |
|---|---|---|
| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Misol** |
| + | Qo’shish | $a + $b |
| - | Ayirish | $a - $b |
| * | Ko’paytirish | $a * $b |
| / | Bo’lish | $a / $b |
| % | Bo’lishdagi qoldiq | $a % $b |

| 2.3-jadval. O’zlashtirish amallari. | | | |
|---|---|---|---|
| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Izox** | **Misol** |
| = | O’zlashtirish | *Operatordan* o’ng tomonda turgan o’zgaruvchilar ustida bajarilgan amallardan hosil bo’lgan natija qiymati o’zlashtiriladi. | $a = ($b = 4) +5; ($a 9 ga teng, $b 4 ga teng) |
| += | | Qisqartirish. O’zgaruvchiga son qo’shiladi va keyin natija o’zlashtiriladi. | $a += 5; ($a = $a + 5 |

| 2.2-jadval. Satrli amallar. | | |
|---|---|---|
| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Misol** |
| | *Konkatenasiya* (*satrlarni qo’shish*) | $c = $a . $b<br>(bu $c satr $a va $b satrlardan iborat) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ifodaga ekvivalent;) |
| .= | | O’zlashtirish va konkatenasiya amallari kombinasiyasini qisqartirilgan shakli(dastavval satrlar qo’shiladi, so’ngra hosil bo’lgan satr o’zgaruvchiga o’zlashadi). | $b = "Hammaga "; $b .= "salom"; ($b = $b . "salom" ifodaga ekvivalent;) Natijasi: $b="Hammaga salom" |

**2.4-jadval. Matiqiy amallar.**

| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Izox** | **Misol** |
|---|---|---|---|
| and | VA | $a va $b rost (True) | $a and $b<br>$a && $b<br>$a or $b<br>$a \|\| $b<br>$a xor $b<br>! $a |
| && | VA | | |
| or | Yoki | $a Yoki $b o’zgaruvchilardan hyech bo’lmaganda bittasi rost bo’lsa (ikkalasi ham rost bo’lishish mumkin). | |
| \|\| | Yoki | | |
| xor | Inversiya Yoki | O’zgaruvchilardan bittasi rost bo’lsa. Agarda ikkalasi ham rost bo’lsa inversiyalanadi. | |
| ! | Inversiya (NOT) | Agarda $a=True, u holda !$a=False va aks holda teskarisi bo’ladi. | |

**2.5-jadval. Taqqoslash amallari.**

| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Izox** | |
|---|---|---|---|
| == | Tenglik | O’zgaruvchilar qiymatlari teng | $a == $b |
| === | Ekvivalentlik | O’zgaruvchilar qiymatlari va tiplari | $a === $b |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | teng | |
| != | Tengsizlik | O’zgaruvchilar qiymatlari teng emas | $a != $b |
| <> | Tengsizlik | | $a <> $b |
| !== | Noekvivalentlik | O’zgaruvchilar ekvivalent emas | $a !== $b |
| < | Kichik | | $a < $b |
| > | Katta | | $a > $b |
| <= | Kichik Yoki teng | | $a <= $b |
| >= | Katta Yoki teng | | $a >= $b |

**2.6-jadval. Inkrement va dekrement amallari.**

| Belgilanishi | Nomlanishi | Izox | Misol |
|---|---|---|---|
| ++$a | Pre-*inkrement* | $a qiymati birga oshiriladi va $a qiymati qaytariladi | <?<br>$a=4;<br>echo "4 bo’lishi shart:" .$a++;<br>echo "6 bo’lishi shart:" .++$a;<br>?> |
| $a++ | Post-*inkrement* | $a qiymati qaytariladi va so’ngra $a qiymati birga oshiriladi | |
| --$a | Pre-*dekrement* | $a qiymati birga kamaytiriladi va $a qiymati qaytariladi | |
| $a-- | Post-*dekrement* | $a qiymati qaytariladi va so’ngra $a qiymati birga kamaytiriladi | |

## 2.3. Ma’lumotlar tiplari

*PHP* dasturlash tili sakkizta sodda *ma’lumot tiplar*ini qo’llab quvvatlaydi:

To’rttasi skalyar *tiplar*:

- *boolean (mantiqiy)*;
- *integer (butun)*;
- *float (nuqtasi siljiydigan)*;
- *string (satrli).*

Ikkitasi aralish *tiplar*:

- *array (massiv)*;

- *object (obyekt).*

Ikkitasi maxsus *tiplar*:

- *resource (resurs)*;
- *NULL.*

*PHP* dasturlash tilida o'zgaruvchilar tiplari oshkora e'lon qilinmaydi. Ko'pincha o'zgaruvchi qo'llanilgan konteksdan, ya'ni o'zgaruvchiga o'zlashtirilgan qiymat itpidan mustaqil ravishdagi dastur bajarilish jrayonidan interpretator o'zi bu ishni bajaradi. Quyida yuqorida sanab o'tilgan *ma'lumotlar tiplari*ni birma-bir ko'rib chiqamiz.

**Boolean tipi(Bul Yoki mantiqiy tip).**

Bu sodda tip qiymatni rost ekanligini ifodalaydi, ya'ni o'zgaruvchi faqat ikkita qiymat qabul qiladi – rost TRUE Yoki yolg'on FALSE.

Mantiqiy tiplarni aniqlash uchun TRUE Yoki FALSE kalit so'zlaridan foydalanamiz. Bu ikkala tiplar registrlanmagan.

**Misol**. Mantiqiy tip.

```
<?php
$test = True;
?>
```

Mantiqiy tiplar turli *boshqariladigan konstruksiyalar*da (sikllar, shartlar va shunga o'xshash, bular haqida keyinroq aytib o'tamiz) qo'llaniladi. Bir qancha amallar (masalan, tengiik amali) ham mantiqiy tip qabul qilishi mumkin, ya'ni faqat ikki qiymat rost Yoki yolg'on qiymatni qabul qiladi. Ular *boshqariladigan konstruksiyalar*da shartlarni tekshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, shartli konstruktorda amallar Yoki o'zgaruvchilar qiymati haqiqiyligini tekshiradi va natijadan qat'iy nazar shu Yoki boshqa amallarni bajarilishini tekshiradi. Bu yerda shart rost Yoki yolg'on bo'lishi mumkin, chunki *mantiqiy tip amallari* va *o'zgaruvchilar* ko'rsatilgan.

**Misol**. Mantiqiy tiplarning qo'llanilishi.

```
<?php
// '==' amal tengiikka tekshiradi mantiqiy qiymatni qaytaradi
```

```
if ($know == False) { // agar $know qiymat false bo’lsa
echo "PHP dasturlash tilini o’rgan!";
}
if (!$know) { // xuddi yuqoridagidek $know qiymati false bo’ladi
echo " PHP dasturlash tilini o’rgan!";
}
```

/* == amal $action o’zgaruvchi qiymati bilan "PHP dasturlash tilini o’rganish!" satrni ustma-ust tushishini tekshiradi. Agar ustma-ust tushsa true qiymatni qaytaradi, boshqa holda false ni qaytaradi. Agar true ni qaytarsa figurali qavs ichidagi amallar bajariladi. */

```
if ($action == " PHP dasturlash tilini o’rganish ")
{ echo "O’rganishni boshladim";}
?>
```

**Integer (butun) tipi.**

Bu tip butun sonlar to’plarnidan Z = {..., -2, -1, 0, 1, 2, ...} birini qaytaradi. Butun sonlar xohishga qarab oldiga «-» Yoki «+» belgilarni qo’yib sanoq sistemasini o’nlik, o’n oltilik Yoki sakkizlik tizimlarida ko’rsatilgan bo’lishi mumkin.

Agar siz sakkilik sanoq sistemasidan foydalanayotgan bo’lsangiz, oldindan 0 (nol) raqamini ko’rsatishingiz kerak. O’n oltilik sanoq sistemasida esa raqamlar oldiga 0x belgini qo’yish shart.

```
<?php
# o’nlik raqam
$a = 1234;
# manfiy son
$a = -123;
# sakkizlik son (o’nlik sistemasidagi
# 83 songa ekvivalent)
$a = 0123;
# o’n oltilik son (o’nlik sistemasidagi
```

# 26 songa ekvivalent)

$a = 0x1A;

?>

*Butun son*ni o’lchami platformaga bog’liq, lekin qoidaga ko’ra maksinial qiymati ikki milliard (bu ishorali 32 bitli qiymat) atrofida bo’ladi. Ishorasiz *butun son*ni *PHP* dasturlash tili qo’llab quvvatlamaydi.

Agar siz *butun son* chegarasidan tashqari biror qiymat bersangiz interpretator bu sonni *qo’zg’aluvchan vergulli son*ga o’zgartiradi. Xuddi shunday *butun son* chegarasidan tashqari chiqib ketadigan biror amal bajarsangiz ham bu sonni *qo’zg’aluvchan vergulli son*ga o’zgartiriladi.

*PHP* dasturlash tilida butun sonlarni bo’lish amali mavjud emas. 1/2 ifoda qiymati *qo’zg’aluvchan vergulli son* 0.5 ga teng. Siz natijangizni butun tipga standart qoida asosida Yoki round() funksiyasidan foydalangan taqdirda o’zgartirishingiz mumkin. O’zgaruvchini aniq bir tipga o’zgartirish uchun uning oldiga qavs ichida kerakli tipni yozish kerak bo’ladi. Masalan, $a=0.5 o’zgaruvchini butun tipga o’zgartirish uchun (integer)(0.5) Yoki (integer) $a ko’rinishda Yoki qisqartirilgan (int)(0.5) ko’rinishda yozish kerak bo’ladi. Bunday oshkora yangi tipga o’tish imkoniyati barcha *ma’lumotlar tiplari* uchun o’rinli bo’ladi (albatta, har doim ham qiymatni bir tipdan boshqasiga olib o’tish shart emas). Biz keltirilgan barcha tiplarni chuqur o’rganishimiz shart emas, chunki *PHP* dasturlash tili konteksdan mustaqil ravishda o’zi bu ishlarni bajaradi.

**Float (qo’zg’aluvchan vergulli son) tipi.**

*Qo’zg’aluvchan vergulli son*lar (ular ikki karra aniqlik Yoki haqiqiy sonlardir) quyidagi sintaksislar yordamida aniqlanishi mumkin:

```
<?php
$a = 1.234;
$b = 1.2e3;
$c = 7E-10;
```

?>

*Qo'zg'aluvchan vergulli son*ni o'lchami ham platformaga bog'liq, lekin qoidaga ko'ra maksinial qiymati ~1.8e308 aniqlik bilan 14 xonali raqam atrofida bo'ladi.

**Resource (resurslar) tipi.**

***Resurs*** – bu tashqi resursga (masalan, ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish) ссылka orqali bog'langan maxsus o'zgaruvchidir. Resurslar maxsus funksiyalar (masalan, mysql_connect(), pdf_new() va shunga o'xshashlar) yordamida yaratiladi va foydalaniladi.

**Null tipi.**

Maxsus *NULL* qiymati *o'zgaruvchi*ni qiymatga ega emasligi haqida ogohlantiradi.

*O'zgaruvchi NULL* qiymat qabul qiladi, agarda:

- unga *o'zgarmas NULL* ($var = NULL) o'zlashtirilgan bo'lsa;
- unga hyech qanday qiymat berilmagan bo'lsa;
- u *unset*()funksiya yordamida tozalangan bo'lsa.

*NULL tip*li faqat bitta qiymati mavjud – registrga sezgirligi kichik NULL kalit so'zidir.

**Masalaning yechilishi.**

Endi bo'limning boshida qo'yilgan masalaga qaytsak. U turli sabablar bo'yicha har xil odamlarga tuzilgan maktubni jo'natishdan iborat edi. Bu masalani hal etish uchun o'rganilgan vositalardan – *o'zgaruvchilar*, *amallar*, *o'zgarmaslar*, *satrlar* va *massivlar*dan foydalanishga harakat qilarniz. Ko'rsatilgan maktub qabul qiluvchiga bog'liq ravishda murojaat va holati o'zgaradi, shuning uchun tabiiy ravishda bu kattalikni *o'zgaruvchi* deb belgilaymiz. Bundan tashqari hodisalar va odamlar ko'p, shuning uchun *massiv o'zgaruvchi tipi*dan foydalanish qulay. Maktub matni har doim o'zgarmas, shuning uchun uni *o'zgarmas* deb berish maqsadga muvofiqdir. Juda uzun va qo'pol satrlarni yozmaslik uchun satrlar *konkatenasiya*(qo'shish) amalidan foydalanamiz. SHunday qilib, quyidagiga ega bo'larniz:

```
<?
// bizning yozuvimiz
// o’zgarmas bo’lsin.
define("SIGN","Hurmat bilan, Azamat");
// odamlar va hodisalar massivini beramiz
$names = array("Ivan Ivanovich",
               "Petr Petrovich",
               "Semen Semenovich");
$events = array(
    "f" => "ochiq eshiklar kuni",
    "o" => "ko’rgazmaning ochilishi",
    "p" => "bitiruvchilar bali");
// taklifnoma matnini tuzamiz.
$str = "Hurmatli, $names[0]";
$str .= "<br> Sizni taklif etamiz ".
        $events["f"];
$str .= "<br>" . SIGN;
echo $str; // matnni ekranga chiqaramiz.
?>
```

## Xulosa.

SHunday qilib, bu bo’limda biz *PHP* dasturlash tilining asosiy sintaksisi bilan tanishib chiqdik, turli tipdagi o’zgaruvchilar, o’garmaslar va amallar bilan ishlashni, *PHP* dasturlash tilidagi mavjud tiplarini o’rgandik. *Massivlar* va *satrlar* ma’lumot tiplari haqida gap ketganda ularni chuqur va qismlarga ajratib o’rgandik. Bu konstruksiyalar foydalanishga qulay va soddadir. Bular haqida keng ma’lumotlar keyingi bo’limlarda keltirilgan. Masalaning yechilishi bor bilimlarga asoslangan holda sodda yechilgan, shuning uchun yechim amaliyotda qo’llashga juda yaqin kelmaydi. Keyingi bo’limlarda bu kamchiliklarni to’g’rilaymiz va elektron maktubni umumiy shablonini yaratamiz.

## 2.4. Alternativ sintaksislar

*PHP* dasturlash tili o'zining bir nechta *if*, *while*, *for*, *foreach* hamda *switch* boshqariladigan strukturalari uchun alternativ sintaksisni taqdim etadi. Har bir holatda ochiladigan qavs ikki nuqtaga (:), yopiladigani esa mos ravishda endif;, endwhile; va hokazolarga o'zgartiriladi.

Masalan, *if* shart operatori sintaksisini quyidagicha tfodalash mumkin:

*if* (ifoda) : *bajariladigan_blok* endif;

Ma'nosi o'zgarmasdan qoladi: agar *if* shart operatori dumaloq qavsi ichidagi shart rost bo'lsa, ikki nuqtadan «:» to endif; buyrug'igacha barcha kod bajariladi. Bunday sintaksisdan foydalanish html-kod ichida qurilgan php-kod uchun qulaydir.

**Misol**. Alternativ sintaksisdan foydalanish.

```
<?php
$names = array("Karim","Salim","Sodiq");
if ($names[0]=="Karim"):
?>
Salom, Karim!
<?php endif ?>
```

Agarda *else* hamda *elseif* konstruksiyalaridan foydalanilsa, u holda ham alternativ sintaksisdan foydalansa bo'ladi:

```
<?php
if ($a == 5):
   print "a o'zgaruvchi 5 ga teng";
   print "...";
elseif ($a == 6):
   print "a o'zgaruvchi 6 ga teng ";
   print "!!!";
else:
   print "a o'zgaruvchi na 5 ga va na 6 ga teng ";
```

```
endif;
?>
```

## Takrorlash uchun savollar

1. PHP kodni tuzilishini tushuntirib bering.
2. PHP da qanday ma’lumot tiplaridan foydalaniladi?
3. PHP da ifodalar qanday e’lon qilinadi?
4. Alternativ sintaksislar deganda nimani tushunasiz?

## 3-ma'ruza. PHP da satr va massivlar bilan ishlash

**Reja:**

**3.1. PHP da satr tipi**

**3.2. PHP da massivlar tipi**

*Kalit so'zlar: PHP da satr tipi, massiv tipi*

### 3.1. PHP da satr tipi

**String (satr) tipi**

***Satr*** – bu belgilar to'plarnidir. *PHP* dasturlash tilida belgi bu bir bayt va 256 ta turli belgilar mavjud. *PHP* dasturlash tili Unicode tipidagi belgilarni qabul qilmaydi. *PHP* dasturlash tilida amalda satrlarga chegirma mavjud emas, shuning uchun satrlarni ishlatganda uning aniq uzunligi haqida o'ylash shart emas.

*PHP* dasturlash tilida satrlar uchta turli xil usullarda aniqlanadi:

- *bittalik qo'shtirnoqlar* yordamida (‘’);
- *qo'shtirnoqlar* yordamida (“”);
- *heredoc-sintaksisi* yordamida.

***Bittali tirnoqlar***

Satrlarning aniqlashning oddiy usuli – u «'» *bittali qo'shtirnoqlar* ichida yoziladi. Agarda satr ichida ham bittali tirnoq ishlatishga to'g'ri kelib qolsa, bittali tirnoqdan oldin «\» belgini qo'yish, ya'ni uni ekranlash shart. Agarda «\» belgi bittali tirnoqdan oldin Yoki satrning oxirida bo'lsa, u holda belgini ikkilantirish kerak, ya'ni «\\'».

Agarda bittali tirnoq ichidagi satr ichida ixtiyoriy belgidan oldin («\» va «'» lardan farqli ravishda) teskari slesh «\» belgisi uchrasa, u holda uni oddiy belgi deb qarab barcha belgilarni o'z holicha ekranga chiqaradi. SHuning uchun teskari slesh «\» belgisini satr oxirida yopiladigan qo'shtirnoqdan avval turganini ekranlash shart.

*PHP* dasturlash tilida teskari slesh «\» belgisi bilan ifodalanadigan bir qator belgilar majmui mavjud. Ularni ***ketma-ketlikni boshqaruvchilar*** deb ataladi hamda ular maxsus vazifalarni bajaradi. Ular haqida keyinroq to'xtalib o'tamiz. O'zgaruvchilar va ketma-ketlikni boshqaruvchilar bittalik qo'shtirnoqlar satri ichida uchrashsa, ular o'rtasidagi farq *ketma-ketlikni boshqaruvchilar*ni *qayta ishlanmaydi*.

```
<?php
echo 'Satrlar majmui';
// Ekranga chiqaradi: ' belgini chiqarish uchun undan oldin \ belgi qo'yiladi.
echo ' Belgini \' chiqarish uchun undan oldin'
    ' \\ belgini qo'yish kerak';
// Ekranga chiqaradi: Siz shuni o'chirmoqchimisiz C:\*.*?
echo ' Siz shuni o'chirmoqchimisiz C:\\*.*?';
// Ekranga chiqaradi: Buni qo'ymang: \n
// yangi qatorga
echo ' Buni qo'ymang: \n yangi qatorga ';
// Ekranga chiqaradi: o'zgaruvchi $expand ham
// $either qo'yilmaydi
echo 'o'zgaruvchi $expand ham $either' .
    'qo'yilmaydi';
?>
```

## 3.2. PHP da massivlar tipi

**Array (massiv) tipi.**

*PHP* dasturlash tilida ***massiv*** tipi tartiblangan kartalarga o'xshaydi va qiymatini kalitga o'zlashtiradigan tipdir. Bu tip bir necha yo'nalishlarda optimallashtiriladi, shuning uchun siz uni xususiy *massiv*, ro'yxat (vektor), xesh-jadvali (kartani amalga oshirish uchun ishlatiladi), stek, navbat va boshqalar sifatida foydalanishingiz mumkin. Modomiki, *PHP* dasturlash tilida bir massivni qiymatini boshqasiga o'zlashtirish uchun daraxtlardan foydalanasiz.

*Massivlar*ni *array*() konstruksiyasi yordamida aniqlanadi Yoki elementlariga qiymat berish bilan aniqlanadi.

***array() konstruksiyasi yordamida aniqlash.***

```
array ([key] => value,
      [key1] => value1, ... )
```

*PHP* dasturlash tilining ***array***() konstruksiyasi vergul bilan ajratilgan juft parametrlar *kalit* => ***qiymat*** bilan ajratilgan. => belgi mos ravishda qiymat va uning kaliti o’rtasida aloqa o’rnatadi. Kalit butun son bo’lishi mumkin, uning qiymati esa *PHP* dasturlash tilidagi ixtiyoriy tipni qabul qilishi mumkin. Kalit raqamini biz ko’pincha indeks deb ataymiz. *PHP* dasturlash tilida indekslash noldan boshlanadi. Massiv elementining qiymatini olish uchun massiv nomi va kvadrat qavs ichida uning kaliti ko’rsatilishi kerak. Agar massiv kaliti standart butun son bo’lsa, u holda uning qiymatini butun son deb qarasa bo’ladi, aks holda u satr deb qaraladi. SHuning uchun $a["1"] yozuv $a[1] yozuvga teng kuchli, $a["-1"] yozuv esa $a[-1] yozuvga teng kuchli.

**Misol**. PHP dasturlash tilida massivlar.

```
<?php
$books = array ("php" =>
            "PHP users guide",
            12 => true);
echo $books["php"];
//ekranga chiqaradi: "PHP users guide"
echo $books[12];    //ekranga chiqaradi: 1
?>
```

Agarda element uchun kalit berilmagan bo’lsa, u holda kalit sifatida kalitning maksinial qiymatiga bir qo’shib hisoblanadi. Agarda qiymati mavjud kalit ko’rsatilgan bo’lsa, u holda shu kalit qiymatini ekranga chiqaradi. PHP 4.3.0 dasturlash tili versiyasidan boshlab kalitning maksinial qiymati manfiy son deb qaralsa, u holda massivning keyingi kaliti nol (0) bo’ladi.

**Misol**. PHP dasturlash tilida massivlar.

```
<?php
// $arr hamda $arr1 massivlar ekvivalentdir.
$arr = array(5 => 43, 32, 56, "b" => 12);
$arr1 = array(5 => 43, 6 => 32,
            7 => 56, "b" => 12);
?>
```

Agarda TRUE Yoki FALSE kalit sifatida qo’llanilsa, u holda uning qiymati mos ravishda *integer* tipining bir va noliga o’zlashtiriladi. Agar *NULL* dan foydalanilsa, u holda kalit o’rniga bo’sh satr hosil bo’ladi. Bu bo’sh satrni kalit sifatida foydalansa bo’ladi, ammo uni qo’shtirnoqqa olish kerak bo’ladi. Bu usul bo’sh kvadrat qavsni ishlatish kabi emas. Massivlar Yoki obyektlar kaliti sifatida foydalanish mumkin ham emas.

***Kvadrat qavs sintaksisi yordamida aniqlash.***

Massivga qiymat berish orqali massiv yaratish mumkin. Biz yuqorida aytib o’tganimizdek, massiv elementi qiymatiga ega bo’lish uchun kvadrat qavs ichiga uning kaliti ko’rsatilishi kerak, masalan, $book["php"]. Agarda yangi kalit va yangi qiymat ko’rsatsangiz quyidagicha bo’ladi: $book["new_key"]="new_value" hamda massivga yangi element qo’shiladi. Agarda kalitni ko’rsatmay faqat qiymatni o’zlashtirsak, ya’ni $book[]="new_value", u holda massivga yangi element qo’shiladi va uni kaliti mavjud maksinial qiymatga bir qo’shiladi. Agarda biz qiymat bergan *massiv* yaratilmagan bo’lsa, u holda biz qiymat bergandan keyin u *yaratiladi*.

```
<?
$books["key"]= value; // key kaliti bilan value qiymat $books massiviga qo’shiladi
$books[] = value1; /* 13-kalit bilan value1 qiymati massivga qo’shiladi, chunki
bizda kalitning maksinial qiymati 12 edi. */
?>
```

Massivning aniq bir elementini o’zgartirish uchun uning shu kaliti bilan yangi qiymatga o’zlashtirish kerak. Massiv elementi kalitini o’zgartirish mumkin emas, faqat o’chirish (kalit va elementi juftligini) va yangi qo’shish mumkin xolos. Massiv ***elementini o’chirish*** uchun ***unset***() funksiyasidan foydalanish kerak.

```
<?php
$books = array ("php" =>"PHP users guide",12 => true);
$books[] = "Book about Perl"; /* 13-kalit(indeks) bilan yangi element qo’shildi,
 bu quyidagiga ekvivalent $books[13] = "Book about Perl";
$books["lisp"] = 123456; /* Bu massivga yangi "lisp" kalitli 123456 qiymali yangi
 element qo’shish*/
unset($books[12]); // Bu 12-kalitli elementni massivdan o’chirish
unset ($books); // massivni butunlay o’chirish
?>
```

Bo’sh kvadrat qavsdan foydalanganda kalitning maksinial qiymati massivda mavjud oxirgi qayta indekslangan kalitlar orasidan qidiriladi. Massivni ***array_values***() funksiyasi yordamida ***qayta indekslash*** mumkin.

**Misol**. Massivni qayta indekslaymiz.

```
<?php
$arr =
 array ("a","b","c");
/* "a", "b" va "c" qiymatli massivni yaratamiz. Bu yerda kalit ko’rsatilmagan biroq mos ravishda ular 0,1,2 bo’ladi. */
print_r($arr); // massivni ekranga chiqaramiz (kaliti va qiymatini)
unset($arr[0]);
unset($arr[1]);
unset($arr[2]);
// massivdan hamma elementini o’chiramiz
print_r($arr);  // massivni ekranga chiqaramiz (kaliti va qiymatini)
```

$arr[] = "aa";  // massivga yangi element qo’shamiz. Uni indeksi(kaliti) 3 bo’ladi, 0 emas.

print_r($arr);

$arr =

array_values($arr); // massivni qayta indekslaymiz.

$arr[] = "bb"; // bu elementni kaliti 1 bo’ladi.

print_r($arr);

?>

Bu skriptning natijasi quyidagicha bo’ladi:

Array ( [0] => a [1] => b [2] => c )

Array ( )

Array ( [3] => aa )

Array ( [0] => aa [1] => bb )

**Takrorlash uchun savollar**

1. PHP da qanday tiplarni bilasiz?
2. PHP da satr tipini tushuntirib bering?
3. PHP da massivlar tushuntirib bering?

## 4-ma’ruza. Funksiyalar. Klasslar va obyektlar. Xatoliklar bilan ishlash.

## PHP-funksiyalar

**Reja:**

**4.1. Funksiyalar**

**4.2. Funksiyalarning argumentlari**

**4.3. O’zgaruvchan uzunlik argumentlari ro’yxatlari**

**4.4. Funksiyalar ichida o’zgaruvchilardan foydalanish**

**4.5. Funksiyaning o’zgaruvchilari**

**4.6. Ichki joylashgan (ichma-ich) funksiyalar**

**4.7. Sinflar va obyektlar**

**4.8. O’zgaruvchilarni inisiallashtirish**

**4.9. Obyektlar**

*Kalit so’zlar: funksiyalar, klass va obyektlar, xatoliklar.*

### 4.1. Funksiyalar

Funksiyalar nima uchun kerak? Bu savolga javob berish uchun, funksiya o’zi nima ekanligini tushunib olish lozim bo’ladi. Dasturlashda, xuddi matematikadagi kabi, unga bog’liq ko’pgina argumentlarning uning ko’pgina ma’nolarida aks etishidir. Demak, funksiya argumentning har bir ma’nolari jamlanmasi uchun uning bajargan ishi natijasi sifatida qandaydir ma’no qaytaradi. Funksiyalar nima uchun kerak, buni misollar bilan oydinlashtirishga harakat qilarniz. Dasturlashdagi funksiyaga klassik misol – bu sonning faktorial ahamiyatini hisoblab beruvchi funksiya. Demak, biz unga son beramiz, u esa bizga uning faktorialini qaytaradi. Bunda biz faktorialini olishni xohlagan har bir son uchun aynan bir xil kodni qaytaravermaymiz – bu songa teng bo’lgan argumentli funksiyani chaqirishning o’zi kifoya qiladi.

Natural son faktorialini hisoblash funksiyasi

**Misol**:

```
<?php
```

```
function fact($n){
if ($n==0) return 1;
else return $fact = $n * fact($n-1);
}
echo fact(3);
// echo (3*2) deb yozish mumkin edi; lekin son katta bo'lsa,
echo fact(50);
// funksiyadan foydalanish qulayroq, echo (50*49*48*...*3*2) deb yozgandan;
?>
```

SHu yo'l bilan biz biron-bir ma'lumotga bog'liqlik zaruriyati tug'ilgan amalni bajarganimizda, bu holda ham biz aynan shunday amallarni bajarishimiz oshirishimiz lozim bo'ladi, faqat boshqa boshlang'ich ma'lumotlardan foydalanamiz, funksiyalar mexanizmidan foydalanish– funksiya tanasi ko'rinishidagi amallar blokini taxt qilish, o'zgaruvchan ma'lumotlarni esa – uning parametrlari sifatida foydalanish qulayroq bo'ladi.

Funksiya topshirig'i (e'loni) umumiy tarzda qanday bo'lishini ko'ramiz. Funksiya quyidagi sintaksis yordamida aniqlanadi:

```
function  Funksiya_nomi (1-parametr, 2-parametr,  ... N-parametr) {
  Amallar bloki
  return "funksiyaga aylanuvchi ma'no";
}
```

Agar php-dasturda to'g'ridan-to'g'ri yozilsa, hyech narsani ishlab bo'lmaydi. Birinchidan, funksiya nomi funksiya parametrlari nomlari (1-parametr, 2-parametr va b.) PHP da nomlanish qoidalariga muvofiq kelishi kerak (unda yaxshisi kirillcha sinivollarni ham ishlatmagan ma'qul). Funksiya nomlari registrga nisbatan sezuvchan bo'ladi. Ikkinchidan, funksiya parametrlari – tilning o'zgaruvchan qismlari, shuning uchun ularning har birining nomlari oldidan $ belgisi turishi lozim bo'ladi. Parametrlar ro'yxatida hyech qanday ko'p nuqtalarni qo'yish mumkin emas. Uchinchidan, amallar bloki so'zi bilan birga funksiya

tanasida istalgan to’g’ri PHP-kod mavjud bo’lishi kerak (parametrlarga muvofiq bo’lishi majburiy emas). Va nihoyat, return kalit so’zidan so’ng tartibli php-ifoda kelishi lozim (ma’noga ega bo’lgan qandaydir sinivollar). Bundan tashqari, funksiyada qaytariluvchi ma’no kabi parametrlar bo’lmasligi ham mumkin. Funksiyani to’g’ri e’lon qilishga misol – yuqorida keltirilgan faktorialni hisoblash funksiyasi.

Funksiya chaqirish qanday amalga oshadi? Funksiya nomi va yumaloq qavslar ichida uning parametrlari ma’nolari ro’yxati ko’rsatiladi, agar shundaylari mavjud bo’lsa:

**Misol**:

```
<?php
Funksiya_nomi ("1-parametr_uchun_ma’no", "2-parametr_uchun_ma’no
",...);
/* Funksiyani chaqirishga misol – funksiyani chaqirish faktorialni hisoblash yuqorida bor, 3 soni faktorialini hisoblash uchun u yerda biz fact(3) deb yozganmiz;  u yerda fact – chaqiriluvchi funksiya nomi,  a 3 –$n nomli uning parametri ma’nosi */
?>
```

Funksiyani qachon chaqirish mumkin? Bu g’alati savol bo’lib tuyulishi mumkin. Funksiyani uni aniqlangandan keyin chaqirish mumkin, ya’ni function f_name(){...} blokidan pastda istalgan dastur qatorida. PHP3 da bu aynan shunday. Lekin PHP4 da bunday talab yo’q. Hamma gap interpretator olingan kodni qanday qayta ishlashida. Birgina istisno shartli ravishda aniqlanadigan funksiyadan tashkil topadi (shartli operatorlar Yoki boshqa funksiyalar ichida). Funksiya shu tarzda aniqlangan taqdirda, uni aniqlash uni chaqirishdan oldin bajariladi.

**Misol**. SHartli funksiya ichida funksiyani aniqlash

```
<?
$make = true;
/* bu yerda Make_event() ni chaqirish mumkin emas; Chunki u hali mavjud emas, lekin Save_info() ni chaqirish mumkin */
```

```
Save_info("Sobir","Sodiqov", "Men PHP kursini tanladim");
if ($make){
// Make_event() funksiyasini aniqlash
function Make_event(){
echo "<p> Python<br> ni o’rganmoqchiman";
}
}
// endi Make_event() ni chaqirish mumkin
Make_event();
// Save_info funksiyasini aniqlanadi
function Save_info($first, $last, $message){
echo "<br>$message<br>";
echo "Ism: ". $first . " ". $last . "<br>";
}
Save_info("Murod","Yoqubov", "Men Lisp ni tanladim");
// Save_info ni bu yerda ham chaqirish mumkin
?>
```

Agar funksiya dastur ichida aniqlangan bo’lsa, uni keyin qayta aniqlash Yoki o’chirib tashlash mumkin emas. Funksiya nomlariga registr ta’sir qilmasligiga qaramasdan, yaxshisi funksiyani aniqlash paytida berilgan nom bilan chaqirish mumkin bo’ladi.

**Misol**. Funksiya ichidagi funksiyani aniqlash

```
<?php
/* ma’lumotlarni saqlash, ya’ni DataSave() funksiyasini chaqirish mumkin emas. Uning to’g’riligi tekshirilmasdan oldin, ya’ni DataCheck() funksiyasi chaqirilmasdan oldin bu mumkin emas.*/
DataCheck();
DataSave();
function DataCheck(){
// ma’lumotlar to’g’riligini tekshirish
```

```
  function DataSave(){
  // ma'lumotlarni saqlaymiz
} } ?>
```

Funksiya argumentlari, ularning ma'nolari va ishlatilishini batafsil ko'rib chiqamiz.

## 4.2. Funksiyalarning argumentlari

Har bir funksiyada, avval aytganimizday, argumentlar ro'yxati bo'lishi mumkin. Bu argumentlar yordamida funksiyaga har xil ma'lumotlar beriladi (masalan, faktoriali hisoblanishi kerak bo'lganson ma'nosi). Har bir argument o'zgaruvchi va konstantaga ega bo'ladi.

Argumentlar yordamida ma'lumotlar funksiyaga uch xil turli usullar bilan o'tkazilishi mumkin. Bu argumentlarni ma'nosiga ko'ra (o'zgarmas holatda foydalaniladi), ilovalarga ko'ra va o'zgarmas holatda argumentlarga ma'no berishga ko'ra o'tkazish . Bu usullarni atroflicha ko'rib chiqamiz.

Argument funksiyaga ma'nosiga ko'ra o'tkazilsa, funksiya ichidagi argument ma'nosining o'zgarishi uning funksiya tashqarisidagi ma'nosiga ta'sir qilmaydi. Funksiyaga uning argumentlarini o'zgartirishga yo'l qo'yish uchun ularni havolalarga ko'ra o'tkazish kerak. Buning uchun argument nomi oldidan funksiyani aniqlashda ampensand "&" belgisini yozish kerak.

**Misol**. Argumentlarni havolasiga ko'ra o'tkazish

```
<?php
// qo'shimcha qilishi mumkin bo'lgan funksiyani yozamiz checked so'zi qatoriga
function add_label(&$data_str){
  $data_str .= "checked";
}
$str = "<input type=radio name=article ";
  // bunday qator mavjud bo'lsin
echo $str .."><br>";
```

```
// forma elementini keltiradi – belgilanmagan radio knopkasini
add_label($str);
   // funksiyani chaqiramiz
echo $str ."><br>";
   // bu endi belgilangan  radio knopkani keltiradi
?>
```

Funksiyada tinch holatda foydalanilayotgan argumentlar ma’nosini aniqlash mumkin. Ayni paytdagi ma’noning o’zi konstant ifoda bo’lishi, o’zgartirish va sinf vakili Yoki boshqa funksiya chaqiruvi bo’lmasligi lozim.

Bizda informasion xabar tuzuvchi funksiya, unga berilgan parametr ma’nosiga muvofiq tarzda o’zgaruvchi imzo bor. Agar parametr ma’nosi berilmagan bo’lsa, “Tashkiliy qo’mita” imzosidan foydalaniladi.

**Misol**. Tinch holatdagi argument ma’nosi

```
<?php
function Message($sign="Tash.qo’mita."){
// bu yerda parametr sign ayni paytda “Tash.qo’mita” ma’nosiga ega
  echo "Keyingi yig’ilish ertaga bo’lib o’tadi.<br>";
  echo "$sign<br>";
}
Message();
   // Parametrsiz funksiyani chaqiramiz. Bu holda imzo – Bu Tashkiliy qo’mita
Message("Hurmat bilan Kamoliddin");
   // Bu holda imzo "Hurmat bilan Kamoliddin." bo’ladi
?>
```

Bu skript ishining natijasi quyidagicha:

*Keyingi yig’ilish ertaga bo’lib o’tadi.*

*Tashkiliy qo’mita.*

*Keyingi yig’ilish ertaga bo’lib o’tadi.*

*Hurmat bilan Kamoliddin.*

Agar funksiyaning bir necha parametrlari bo’lsa, tinch holatda ma’no beriluvchi bu argumentlar funksiya aniqlanishida boshqa barcha argumentlardan keyin yozilishi kerak. Aks holda, agar bu argumentlar funksiyani chiqarish paytida ko’zdan qochirilsa xato yuzaga kelishi ehtimoli bor.

**Masalan**, biz katalogga maqola tavsifini kiritmoqchimiz. Foydalanuvchi maqolaga uning nomlanishi, muallifi va qisqa tavsif kabi xarakteristikalarni keltirishi lozim bo’ladi. Agar Foydalanuvchi maqola muallifi ismini kiritmadi, u Murod Yoqubov deb olaylik.

```
<?php
function Add_article($title, $description, $author="Murod Yoqubov"){
echo "Maqolani katalogga kiritamiz: $title,";
echo "muallif $author";
echo "<br>Qisqa tavsif: ";
echo "$description <hr>";
}
Add_article("Informatika va biz","Bu maqola informatikaga oid ...",
"Zayniddin Saidov");
Add_article("Xarakterlar kim", "Bu maqola xarakterlar haqida ...");
?>
```

Skript ishi natijasi sifatida quyidagilarni olarniz

Katalogga maqola kiritamiz:

*Informatika va biz,*

*Muallif Murod Yoqubov.*

*Qisqa tavsif:*

*Bu maqola informatikaga oid...*

Katalogga maqola kiritamiz:

*Xarakterlar kim,*

*Muallif Odil Ziyayev.*

*Qisqa tavsif:*

*Bu maqola xarakterlar haqida...*

Agar biz quyidagicha yozsak:

```
<?php
function Add_article($author="Odil Ziyayev", $title, $description){
// ... avvalgi misoldagi kabi amal
}
Add_article("Xarakterlar kim", "Bu maqola xarakterlar haqida...");
?>
```

Natija quyidagicha bo'ladi:

Warning: Missing argument 3 for add_article() in c:\users\nina\tasks\func\def_bad.php on line 2

## 4.3. O'zgaruvchan uzunlik argumentlari ro'yxatlari

PHP4 da argumentlarning o'zgaruvchan soni bilan funksiya tuzish mumkin. Ya'ni biz uni necha argumentlar bilan chaqirilishini bilmasdan, funksiya tuzamiz. Bu kabi funksiya yozish uchun hyech qanday maxsus sintaksis kerak bo'lmaydi. Hammasi uning ichiga o'rnatilgan funksiyalar func_num_args(), func_get_arg(), func_get_args() yordami bilan qilinadi.

**func_num_args()** funksiyasi argumentlar sonini qaytaradi. Bu funksiya faqat foydalanuvchi funksiyasini aniqlash mobaynida foydalanishi mumkin. Agar u funksiyadan tashqarida paydo bo'lsa, interpretator ogohlantirish beradi.

**Misol**. func_num_args() funksiyasidan foydalanish

```
<?php
function DataCheck() {
  $n = func_num_args();
  echo "Funksiya argumentlari soni $n";
}
DataCheck();
// qatorni keltiradi "0 funksiya argumentlari soni"
DataCheck(1,2,3);
```

```
// qatorni keltiradi "3-funksiya argumentlari soni"
?>
```

func_get_arg funksiyasi (argument_raqami to’laligicha) argumentni o’zgarishlar ro’yxatidan argumentlar funksiyasiga qaytaradi, uning tartib raqami func_get_arg parametri bilan beriladi. Funksiya argumentlari noldan boshlab hisoblanadi. **func_num_args**() kabi bu funksiya faqat biron-bir funksiyani aniqlashda foydalaniladi.

Argument raqami funksiyaga o’zgargan argumentlar sonidan ortib ketishi mumkin emas. Aks holda ogohlantirish umumlashtiriladi va func_num_args() funksiyasiga False qiymat qaytadi.

Ma’lumotlarni tekshirish uchun funksiyaga uning argumentlarini tuzamiz. Agar funksiyaning birinchi argumenti – butun son, ikkinchisi – qator bo’lsa, tekshirish muvaffaqiyatli o’tdi, deb hisoblaymiz.

**Misol**. Ma’lumotlar tipini, uning argumentlarini tekshirish

```
<?
function DataCheck(){
  $check =true;
  $n = func_num_args();
/* funksiyaga o’zgargan argumentlar sonini tekshiramiz, birinchi o’zgargan argument butun sonmi-yo’qmi */
  if ($n>=1) if (!is_int(func_get_arg(0)))
      $check = false;
/* tekshiramiz, ikkinchi o’zgargan argument qatormi-yo’qmi */
  if ($n>=2)
     if (!is_string(func_get_arg(1)))
        $check = false;
return $check;
}
if (DataCheck(43,"text"))
   echo "Tekshiruv to’g’ri o’tdi<br>";
```

```
else echo "ma'lumotlar shartlarni qondirmaydi <br>";
if (DataCheck(324))
echo "Tekshiruv to'g'ri o'tdi<br>";
else echo "ma'lumotlar shartlarni qondirmaydi <br>";
?>
```

**Dastur natijasi quyidagicha bo'ladi.**

*Ma'lumotlar shartlarni qoniqtirmaydi. Tekshiruv to'g'ri o'tdi.*

func_get_args() funsiyasi argumentlar ro'yxatidan tashkil topgan massiv qaytaradi. Massivning har bir elementi argumentga, funksiya o'zgarishiga to'g'ri keladi. Agar funksiya foydalanuvchi funksiyasi aniqligidan tashqarida foydalanilsa ogohlantirish umumlashtiriladi.

Avvalgi misolni ko'chiramiz, bu funksiyadan foydalanamiz. Funksiyani harakatlantiruvchi juft argument butun son ekanligini tekshiramiz:

**Misol**:

```
<?
function DataCheck(){
  $check =true;
  $n = func_num_args();
  // funksiyaga o'zgargan argumentlar soni
  $args = func_get_args();
  // funksiya argumentlari massivi
  for ($i=0;$i<$n;$i++){
    $v = $args[$i];
    if ($i % 2 == 0){
      if (!is_int($v)) $check = false;
// tekshiramiz, juft argument butunmi-yo'qmi
}
}
return $check;
}
```

```
if (DataCheck(array("text", 324)))
   echo "Tekshiruv to’g’ri o’tdi<br>";
else echo "Ma’lumotlar shartlarni qoniqtirmaydi <br>";
?>
```

Bundan, func_num_args(), func_get_arg() va func_get_args() funksiya kombinasiyasi funksiyalar o’zgaruvchan argumentlar ro’yxatiga ega bo’la olishi uchun foydalaniladi. Bu funksiyalar faqat PHP4 ga kiritilgan. PHP3 da shunday natijaga erishish uchun, argument sifatida massiv funksiyasidan foydalanish mumkin bo’ladi. **Masalan**, har bir toq funksiyalar parametri butun sonligini tekshiruvchi skriptni quyidagicha yozish mumkin:

```
<?
function DataCheck($params){
  $check =true;
$n = count($params);
// funksiyaga o’zgargan argumentlar soni
  for ($i=0;$i<$n;$i++){
    $v = $params[$i];
    if ($i % 2 !== 0){
// tekshiramiz, toq argument butunmi-yo’qmi
if (!is_int($v)) $check = false;
    }
  }
return $check;
}
if (DataCheck("text", 324))
    echo "Tekshiruv to’g’ri o’tdi<br>";
else echo "Ma’lumotlar shartlarni qoniqtirmaydi<br>";
?>
```

## 4.4. Funksiyalar ichida o’zgaruvchilardan foydalanish

1. Global o’zgaruvchilar
2. Statistik o’zgaruvchilar
3. Qaytariluvchan ma’nolar
4. Havolani qaytarish

**Global o’zgaruvchilar**

Funksiyalar ichida undan tashqarida berilgan o’zgaruvchilardan foydalanish uchun, bu o’zgaruvchilarni global deb e’lon qilish kerak. Buning uchun funksiya tanasida uning nomlarini global kalit so’zidan keyin keltirish lozim bo’ladi:

```
global $var1, $var2;
<?
$a=1;
function Test_g(){
global $a;
  $a = $a*2;
  echo ' $a=',$a funksiya ishida natija;
}
echo 'funksiyadan tashqarida $a=',$a,', ';
Test_g();
echo "<br>";
echo funksiyadan tashqarida $a=',$a,', ';
Test_g();
?>
```

**misol. Global o’zgaruvchilar**

Bu skript ishidan quyidagi natijalarni olarniz:

$a=2 funksiyadan tashqarida, $=2 funksiya ishida natija

$a=2 funksiyadan tashqarida, $=4 funksiya ishida natija

O’zgaruvchi global deb e’lon qilinganda, aniq global o’zgaruvchi uchun havola tuziladi. Buning uchun bunday yozuv quyidagiga ekvivalent (GLOBALS massivi mavjud ko’rinish sohalariga muvofiq barcha global o’zgaruvchilarni o’z

ichiga oladi):

$var1 = & $GLOBALS["var1"];

$var2 = & $GLOBALS["var2"];

Bundan kelib chiqadiki, $var1 o’zgaruvchini o’chirish $_GLOBALS["var1"] global o’zgaruvchiini o’chirib tashlamaydi.

**Statistik o’zgaruvchilar**

O’zgaruvchilardan faqat funksiya ichida foydalanish uchun bunda uning ma’nosini saqlagan holda va funksiyadan chiqqandan so’ng, bu o’zgaruvchilarni statistik deb e’lon qilish kerak. Statistik o’zgaruvchilar faqat funksiyalar ichida ko’rinadi va dasturni yuklash funksiya doirasidan tashqariga chiqsa o’z ma’nosini yo’qotmaydi. Bu o’zgaruvchilarni e’lon qilish static kalit so’zi yordamida amalga oshiriladi:

static $var1, $var2;

Har qanday ma’no statistik o’zgaruvchi sifatida talqin qilinishi mumkin, faqat havola emas.

**Misol**. Statistik o’zgaruvchilardan foydalanish

```
<?
function Test_s(){
static $a = 1;
// ifoda Yoki havolani o’zlashtirib bo’lmaydi
  $a = $a*2;
  echo $a;
}
Test_s(); // 2 chiqadi
echo $a;  // hyech narsa chiqmaydi, zero $a faqat funksiya ichida kirish yo’lagi bor
Test_s(); // $a=2 funksiya ichida, shuning uchun funksiya ishi natijasi 4 soni bo’ladi
?>
```

**Qaytariluvchan ma’nolar**

Yuqorida misol qilib keltirilgan barcha funksiyalar biror-bir amal bajarishgan. Bunday hollardan tashqari, har qanday funksiya o’z ishi natijasi sifatida qandaydir qiymat qaytaradi. Bu return tasdig’i yordamida qilinadi. Qaytariluvchan qiymat har qanday turda, shu jumladan, ro’yxat va obyektlar bo’lishi mumkin. Interpretator funksiya tanasida return komandasiga uchraganda, u darhol uni bajarishni to’xtatadi va funksiya chaqirilgan qatorga o’tib ketadi.

**Masalan**, inson yoshini qaytaruvchi funksiya tuzamiz. Agar inson vafot etmagan bo’lsa, yosh joriy yilga muvofiq hisoblanadi.

```
<?php
/* agar ikkinchi parametr true kabi hisoblab chiqilsa, u vafot etgan sanaday ko’rib chiqiladi, */
function Age($birth, $is_dead){
  if ($is_dead) return $is_dead-$birth;
  else return date("Y")-$birth;
}
echo Age(1971, false); // vыvedet 33
echo Age(1971, 2001); // vыvedet 30
?>
```

Bu misolda return funksiyasidan foydalanmasa ham bo’ladi, shunchaki uni chiqarish funksiyasini echo ga almashtiriladi. Aksincha, agar biz funksiya biror-bir qiymat qaytaradigan qilsak (bu misolda inson yoshi), biz dasturda o’zgaruvchini bu funksiya qiymatini istalgan o’zgaruvchiga o’zlashtirishimiz mumkin.

```
$my_age = Age(1981, 2004);
```

Funksiya ishi natijasida faqat bitta qiymat qaytarilishi mumkin. Bir necha qiymatni qiymatlar ro’yxati qaytarilgan taqdirda olish mumkin (bir o’lchamli massiv). Biz inson yoshini kunigacha aniqlikda olmoqchimiz, deb hisoblaylik.

```
<?php
function Full_age($b_day, $b_month, $b_year)
{
    $y = date("Y");
```

```
        $m = intval(date("m"));
        $d = intval(date("d"));
        $b_month = intval($b_month);
        $b_day = intval($b_day);
        $b_year = intval($b_year);

        $day = ($b_day > $d ? 30 - $b_day + $d : $d - $b_day);
        $tmpMonth = ($b_day > $d ?  -1 : 0);
        $month = ($b_month > $m + $tmpMonth
         ? $b_month + $tmpMonth - $m : $m+$tmpMonth - $b_month);
        $tmpYear  = ($b_month >  $m + $tmpMonth ?  -1 : 0);
        if ($b_year > $y + $tmpYear)
        {
            $year = 0; $month = 0; $day = 0;
        }
        else
        {
            $year = $y + $tmpYear - $b_year;
        }
        return array ($day,$month,$year);
    }
    $age = Full_age("29","06","1986");
    echo "Siz $age[2] yosh, $age[1] oylar va $age[0] kunlar";
    ?>
```

Funksiya bir necha qiymatlarni ularni dasturda qayta ishlash uchun qaytarganda, bir amal bilan ma’noni birdaniga bir necha o’zgaruvchilarni o’zlashtirishga imkon beruvchi list() til konstruksiyasidan foydalanish qulay bo’ladi. Masalan, yuqoridagi misolda funksiyani, uning qiymatiga o’zgartirish kiritmay qayta ishlash quyidagicha bo’lishi mumkin:

```
<?
```

```
// Full_age() funksiya kiritish
list($day,$month,$year) = Full_age("07",
    "08","1974");
echo "Sizning yoshingiz $year, $month oy va
    $day kun";
?>
```

list() konstruksiyasini umuman o’zgaruvchini o’zlashtirish uchun istalgan massiv elementi qiymatidan foydalanish mumkin.

**Misol**. list() dan foydalanish

```
<?
$arr = array("first","second");
list($a,$b) = $arr;
   // o’zgaruvchi $a o’zlashtiriladi, birinchi massiv qiymati, $b – ikkinchi
echo $a," ",$b;
// «first second» qatori keltiriladi
?>
```

**Havolani qaytarish**

Funksiya o’z ishi natijasida shuningdek havolani biror-bir o’zgaruvchiga qaytarishi mumkin. Bu funksiyani qanday o’zgaruvchi havolaga o’zlashtirish kerakligini aniqlash uchun foydalaniladi. Funksiyadan havola olish uchun, e’lon oldidan ampersand (&) belgisini yozish kerak bo’ladi va har safar funksiya chaqiruvi paytida uning nomi oldidan ham ampersand (&) yozish kerak bo’ladi. Ko’pincha funksiya havolani biror-bir global o’zgaruvchiga (Yoki uning qismini – havolani global massiv elementiga), havolani statistik o’zgaruvchiga (Yoki uning qismini) Yoki havolani argumentlardan biriga qaytaradi, agar u havola bo’yicha berilgan bo’lsa.

**Misol**. Havolani qaytarish

```
<?
$a = 3; $b = 2;
function & ref($par){
```

```
global $a, $b;
  if ($par % 2 == 0) return $b;
  else return $a;
}
$var =& ref(4);
echo $var, " i ", $b, "<br>"; // 2 va 2 keltiriladi
$b = 10;
echo $var, " i ", $b, "<br>";  // 10 va10 keltiriladi
?>
```

Havola sintaksisidan foydalanishda bizning misoldagi $var o'zgaruvchi o'zgaruvchining $b qiymati $ref qaytarilgan funksiyasiga ko'chirilmaydi, bu o'zgaruvchiga havola tuziladi. Demak, endi $var va $b teng kuchli o'zgaruvchilar va ular bir paytda o'zgartiriladi.

## 4.5. Funksiyaning o'zgaruvchilari

PHP funksiyalar o'zgaruvchilariga ko'maklashadi. Bu degani, agar o'zgaruvchi nomi oddiy qavslar bilan tugasa, PHP shu kabi nomli funksiyani qidiradi va uni bajarishga harakat qiladi.

**Misol**. Funksiyalar o'zgaruvchilaridan foydalanish

```
<?
/* Ikkita oddiy funksiya tuzamiz: Add_sign – qatorga imzo qo'shadi va
SHow_text –matn qatorini chiqarib beradi*/
function Add_sign($string,
   $sign="Hurmat bilan, Murod"){
   echo $string ." ".$sign;
}
function SHow_text(){
  echo "Xabarni pochtadan jo'natish<br>";
}
$func = "SHow_text"; // ma'noga ega o'zgaruvchi tuzamiz, u funksiya
```

nomiga teng SHow_text

$func(); // u SHow_text funksiyani chaqiradi

$func = "Add_sign"; // ma’noga ega o’zgaruvchi tuzamiz, u funksiya nomiga teng Add_sign

$func("Hammaga salom <br>");

// bu funksiyani chaqiradi Add_sign "Hammaga salom" parametrli

?>

Bu misolda SHow text funksiya shunchaki matn qatorini chiqaradi. Agar echo maxsus funksiyasi mavjud bo’lsa, nega buning uchun alohida funksiya tuzish kerak, deyish mumkin. Gap shundaki, echo(), print(), unset(), include() kabi funksiyalardan funksiyalar o’zgaruvchilari sifatida foydalanib bo’lmaydi. Ya’ni biz yozsak:

<?

$func = "echo ";

$func("TEXT");

?>

Interpretator xatoni ko’rsatadi:

Fatal error: Call to undefined function:

echo() in c:\users\nina\tasks\func\var_f.php on line 2

SHuning uchun yuqorida keltirib o’tilgan istalgan funksiyalardan o’zgaruvchilar funksiyasi sifatida foydalanish uchun yuqoridagi misoldagi yo’lni tutdik.

### 4.6. Ichki joylashgan (ichma-ich) funksiyalar

Foydalanuvchi tomonidan aniqlanadigan funksiyalar haqida gapirganda ichki joylashgan funksiyalar haqida gap ketmasligi mumkin emas. Yuqorida biz echo(), print(), date(), include() kabi ichki joylashgan funksiyalar bilan tanishdik. Bundan tashqari date() funksiyadan boshqa barcha funksiyalar PHP dasturlash tili konstruksiyasiga ega. Ular PHP dasturlash tili yadrosiga joylashgan bo’lib, hyech qanday modullar va qo’shimcha o’zgartirishlar talab etmaydi. Ammo shunday

funksiyalar mavjudki, ularga turli fayl bibliotekalari va mos ravishda modullarni yuklamasdan iloji yo'q. Masalan, MySql ma'lumotlar bazasi bilan ishlaydigan funksiyalardan foydalanish uchun shunday kengaytmali fayllarni qo'llab quvvatlaydigan komponentalari kerak. Oxirgi vaqtlarda bu funksiyalardan foydalanish uchun qo'shimcha komponentalar kerak emas, chunki ularning barchasi hozirda PHP dasturlash tili yadrosiga kiritilgan.

### 4.7. Sinflar va obyektlar

Obyektga yo'naltirilgan dasturlashning asosiy tushunchalari – sinflar hamada obyektlardir. Bu tushunchalarni quyidagicha tushunish mumkin: obyekt – bu dasturda qo'llaniladigan tushuncha Yoki biror fizik predmet haqida ma'lumot beradigan strukturalangan o'zgaruvchidir, sinflar esa bu obyektlarning tavsifi va ular ustida bajariladigan harakatlardir.

PHP dasturlash tilida sinflar quyidagi sintaksis yordamida aniqlanadi:

```
class Sinf_nomi{
  var $xususiyat_nomi;
    /* xususiyatlar ro'yxati */
  function metod_nomi( ){
   /* usullarning tanasi */
  }
  /*usullar ro'yxati*/
}
```

Sinf obyektlari xususiyatlari nomi var kalit so'zi yordamida e'lon qilinadi, berilgan sinf obyektlariga qo'llanilgan usullar funksiya sifatida ishlatiladi. Sinf tanasi ichida this kalit so'zi yordamida taqdim qilinayotgan joriy sinfga murojaatni amalga oshirish mumkin.

Masalan, biz maqola kategoriyasini tasvirlovchi sinf tuzishimiz kerak. Har bir maqolaning nomi, muallifi va qisqa mazmuni kabi xususiyatlari bor. Biz maqola bilan qanday amal bajarmoqchimiz? Biz sanab o'tilgan xususiyatlarga ma'no berishimiz, maqolani brauzerda ko'rsatishimiz kerak bo'ladi. SHunda bu

sinfning ifodalanishi quyidagicha holatda bo’ladi:

```
<?
class Articles { // Maqola sinfini tuzamiz
  var $title;
  var $author;
  var $description;
// maqola atributi ma’nosini o’zlashtiruvchi usul
  function make_article($t, $a, $d){
    $this->title = $t;
    $this->author = $a;
    $this->description = $d;
  }
//sinf  nusxasini  ifodalash  uchun usul
  function show_article(){
    $art = $this->title . "<br>" .
          $this->description .
      "<br>Muallif: " . $this->author;
    echo $art;
} } ?>
```

SHunday qilib “maqola” turidagi fizik obyektlarni tasvirlash uchun biz uch o’zgartuvchidan tashkil topgan, maqola xarakteristikasini o’zida jamlagan Articles nomli sinf va muayyan maqola tuzish va uni tasvirlash uchun ikkita funksiya tuzdik.

Ma’lumki, PHP bilan ishlash davriy holatda HTML rejimida yuklanishi mumkin. Bu holda dastur bir necha kodning bo’laklari(bloklar)dan tashkil topadi. Sinfni ifodalash php-kodning har xil bloklari bo’yicha va qolaversa har xil fayllar bo’yicha tarqatilmasligi kerak. Ya’ni quyidagicha yozsak:

```
<?php
class Articles { // Sinfni tasvirlashning boshi
  var $title;
```

```
?>
<?php   // sinfni tasvirlashning davomi
   function show_article(){  // usulning tarkibi
   }
} // sinfni tasvirlashning yakuni
?>
```

bunda dastur tartibli ishlaydi.

Sinf nomi masalasida ayrim narsalarni e’tiborda tutish kerak. Sinfning nomi PHP tilidagi obyektlar nomlanishi qoidalariga javob berishi lozim, lekin bir qator nomlar borki, texnik mutaxassislar tomonidan o’z maqsadi uchun zaxira qilinadi. Birinchi navbatda bu nomlar “_” quyi chiziqdan boshlanuvchilardir. Sinflar va funksiyalar tuzish uchun bu kabi nomlarni ishlatmaslik kerak. Bundan tashqari stdClass nomi zaxira qilingan, zero u PHP surilgichi ichida ishlatiladi.

## 4.8. O’zgaruvchilarni inisiallashtirish

Ba’zan ayrim sinf atributlariga ma’noni sinf ishtirokchisini tuzish bilanoq o’zlashtirish kerak bo’ladi. Biz maqola sinfini tuzganimizda, sinf atributlari (xususiyatlari) ma’nolarini o’zlashtirish uchun maxsus funksiya make_article() dan foydalandik. Umuman olganda, biz to’g’ri yo’l tutmadik, chunki “velosiped ixtirosi” bilan shug’ullandik. Sinf atributlarining boshlang’ich ma’nolarini berish uchun maxsus ikkita standart usul mavjud. PHP4da ma’noni var operatori Yoki konstruktor funksiyasi yordamida inisiallashtirish mumkin. var yordamida faqat konstant ma’nolarni inisiallashtirish mumkin. Konstant bo’lmagan ma’nolarni berish uchun obyekt sinfdan ajrab chiqqanda o’z-o’zidan ishga tushuvchi konstruktor funsiyasidan foydalaniladi. Konstruktor-funksiya u ifodalangan butun sinfga mos keluvchi nomga ega bo’lishi kerak.

**Misol**. “maqola” deb nomlangan obyektni tuzishda uning xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin: mualliflar – “Kamolov” satriga teng, nomlanish va qisqa mazmun - $_POST global massivi elementlariga mos, maqola nashri –

mazkur sanada.

```
<?
class Articles { // maqola sinfini tuzish
  var $title;
  var $author = "Kamolov";
  var $description;
  var $published;       // sinf atributi ma’nosini o’zlashtiruvchi usul
 function Articles(){
  $this->title = $_POST["title"];
  $this->description = $_POST["description"];
  $this ->published = date("Y-m-d");
}   }   ?>
```

PHP3 va PHP4 da konstruktorlar har xil ishlashini hisobga olish kerak. Funksiya PHP3 da, agar u sinfniki kabi nomga ega bo’lsa, konsrtuktorga aylanadi, PHP4 da esa – agar u ifodalangan sinfniki kabi nomga ega bo’lsa shunday bo’ladi. Bir sinf boshqasini kengaytirganda va xususiyatlarning va baza sinflar usullarining ergashishida usullar orasidagi farq ko’rinib turibdi. Lekin biz bu haqda biroz keyinroq gapiramiz. PHP5da sinf konstruktori _construct deb nomlanadi. Bundan tashqari, PHPda destruktorlar – obyektni yo’q qilishda o’z-o’zidan ishga tushuvchi funksiyalar paydo bo’ldi. PHP5 da funksiya-destruktor destruct deb nomlanishi kerak bo’ladi.

## 4.9. Obyektlar

### Object (obyektlar) tipi

***Obyektlar*** – obyektga yo’naltirilgan dasturlashdan kirib kelgan *ma’lumot tipi*dir. Obyektga yo’naltirilgan dasturlash tamoyiliga ko’ra, sinf – aniq xossalarga ega va ular bilan ishlaydigan metodli obyektlar to’plarni. Obyekt esa mos ravishda sinf nusxasidir. Masalan, dasturchilar – bu dasturni tuzuvchi, kompyuter adabiyotlarini o’rganadigan odamlar sinfi va bundan tashqari hamma odamlar qatori ism va familiyasi mavjud. Endi agarda biror aniq dasturchi – Azamat

Boboyevni olsak, u holda uni shu xossaga ega bo'lgan dasturchi sinfini obyekti sifatida qarash mumkin va u ham dastur tuzadi, hamda ismi mavjud va boshqalar.

*PHP* dasturlash tilida *obyekt metodi*ga murojaat -> *amali*dan foydalaniladi. Obyektni inisializasiya qilishda *obyektni o'zgaruvchan nusxasi*ni yaratadigan new ifodasidan foydalaniladi.

```
<?php     // odam sinfini yaratamiz.
class Person
{       // PHP dasturlash tilini o'rganadigan odam metodi
    function know_php()  {
            echo "Endi men PHP dasturlash tilini bilaman!";
        }
}
$bob = new Person; // odam sinfini obyektini yaratamiz.
$bob -> know_php(); // uni PHP tiliga o'rgatamiz.
?>
```

Sinf – bu obyekt tipidagi ma'lumotlarning bir turidagi ifodalanishidir. Sinflar real o'zgaruvchilar uchun shablon vazifasini o'taydi. Kerakli tipdagi o'zgartuvchi new operatori yordamida sinfdan tuziladi. Obyektni tuzib, biz barcha usullarni qo'llashiniiz va barcha sinf ifodasida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarni olishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun quyidagicha sintaksisdan foydalaniladi: $obyekt_nomi->xususiyat Yoki _nomi$obyekt_nomi->usulning_nomlanishi(argumentlar ro'yxati). Xususiyatlar Yoki usular nomlari oldidan $ belgisi qo'yilmaydi.

**Misol**: Obyekt usullari va xususiyatlariga erkin kirish (dostup)

```
<?php
$art = new Articles;     // obyekt tuzamiz $art
echo ($art ->title);     // obyekga nomlanish beramiz $art
$another_art = new Articles;     // obyekt tuzamiz $another_art
$another_art->show_article();     // obyektning brauzerdagi ifodasi uchun usulni chaqiramiz
```

?>

Sinfning har bir obyekti aynan bir xil xususiyatlar va usullarga ega bo'ladi. Demak, $art obyektda va $another_art obyektda title, description, author xususiyatlari va Articles(), show_article() usullari mavjud. Lekin bular ikki xil obyektlar. Obyektni fayllar sistemasidagi direktoriya deb hisoblaymiz, uning xarakteristikasi esa – bu direktoriyadagi fayllar singari bo'lsin. Aniqki, har bir direktoriyada bir xil fayllar yotishi mumkin, lekin shunday bo'lsa-da, ular har xil direktoriyalarda saqlanayotgani uchun har xil hisoblanishi mumkin. Xuddi shuningdek, xususiyatlar va usullar ham, agar ular turli obyektlarga qo'llaniladigan bo'lsa, har xil hisoblanadi. Yuqori bosqichdagi direktoriyadan kerakli faylni olish uchun bu faylga yo'lni batafsil yozib chiqamiz. Sinflar bilan ishlash mobaynida biz chaqirishni istagan funksiyaning nomini to'liq yozishimiz kerak bo'ladi. PHP dagi yuqori bosqich direktoriyalariga global o'zgaruvchilarning bo'sh o'rni bo'ladi, yo'l esa -> taqsinilovchisi yordamida ko'rsatiladi. SHu tarzda $art->title va $another_art->title nomlari ikki xil turli o'zgaruvchilarni angiatadi. PHP da o'zgaruvchi nom oldidan faqat bitta dollar belgisiga ega bo'ladi, shuning uchun $art->$title ko'rinishida yozish mumkin emas. Bu konstruksiya $art obyektining title xususiyatiga murojaat sifatida ko'rib chiqilmaydi, $title o'zgartuvchi ko'rinishida berilgan nomli xususiyat sifatida ko'riladi (masalan, $art->"").

**Misol**: Xususiyatlar ma'nosini o'rnatish

```
<?php
$art->title = " Internet ga kirish"; // obyekt xususiyati ma'nosini shunday o'rnatish mumkin
$art->$title = "Internet ga kirish"; // obyekt xususiyati ma'nosini bunday o'rnatib bo'lmaydi
$property = "title";
$art->$property = "Internet ga kirish"; // obyekt xususiyati ma'nosini shunday o'rnatish mumkin
?>
```

Sinfni tuzib, bu sinfning obyekti qanday nomga ega bo'lishini bila

olmaymiz, qolaversa obyektlar juda ko’p bo’lishi va ularning barchasi har xil nomga ega bo’lishi mumkin. Sinfni yuzaga chiqarish ichida obyektga qanday munosabatda bo’lishni bilmaymiz. Sinf yuzaga chiqishi ichida funksiyalar va o’zgaruvchilarga erkin kirish uchun, $thid o’rindosh o’zgaruvchisidan foydalanish kerak. Masalan, $this->title shunday sinf obyektining title ini qaytaradi. Ba’zan bu o’zgaruvchini “mening xususiy mulkim” (xususiyatga munosabat tariqasida) deb o’qishni taklif qilinadi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. PHP da funksiyalarni tushuntirib bering.
2. PHP da funksiyalar argumentlari qanday e’lon qilinadi?
3. PHP da o’zgaruvchilar e’lonini tushuntiring.
4. Ichma-ich funksiyalarni nima?
5. PHP da sinflar va obyektlar nima?

## 5-ma'ruza. PHPda ma'lumotlar bazalari bilan ishlash. MySQL ma'lumotlar bazasi

**Reja:**

**5.1. Ma'lumotlar bazasi haqida tushuncha**

**5.2. Ma'lumotlar bazasi interfeysi**

**5.3. Ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish**

**5.4. Ma'lumotlar bazasi ustida amallar**

*Kalit so'zlar:ma'lumotlar bazasi, MySql dasturi, PHP da MySql bilan bog'lanish*

### 5.1. Ma'lumotlar bazasi haqida tushuncha

Ushbu bo'lim PHP va MySql MBBS o'rtasidagi hamkorlik usullari bilan tanishishga mo'ljallangan. Asosiy e'tibor ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanishni o'rnatish, so'rovlar jo'natish funksiyalari va javoblarni (mysql_connect, mysql_query, mysql_result, mysql_num_rows, mysql_close) qayta ishlashga qaratiladi. Misol sifatida virtual tarix muzeyi ma'muriyati uchun web-interfeys tuzish masalasini ko'raylik. PHP distributivida MySQL ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun mo'ljallangan funksiyalar mavjud. Bunda bu funksiyalarning MySql dagi ba'zi bir ma'lumotlar bazasini tasvirlash va to'ldirish maqsadida web-interfeyslarni tuzish imkonini beruvchi funksiyalar bilan tanishamiz. Ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni qo'shish uchun web-interfeys bilan ishlashda bu ma'lumotlarni shunchaki html-formaga kiritish va ularni serverga jo'natish kerak bo'ladi.

Namoyish etishda bu interfeysni virtual muzey eksponatlari haqidagi ma'lumotlar saqlanadigan Artifacts jadvallari uchun tuzamiz. Artifacts kolleksiyasidagi har bir eksponat quyidagi xarakteristika yordamida tasvirlanishini eslatib o'tamiz:

nom (title);

muallif (author);

ifoda (description);

o’rindosh nom (alternative);

tasvir (photo).

Nomlanish va o’rindosh nomlanish uzunasiga 255 belgidan kam satr (ya’ni VARCHAR(255)), tasvirlash – matnli maydon (TEXT turiga mansub) hisoblanadi, “muallif” va “tasvir” maydonlarida esa Persons kolleksiyasidan muallifning identifikatorlari va Images kolleksiyasidan eksponat tasvirlariga muvofiq mavjud bo’ladi.

## 5.2. Ma’lumotlar bazasi interfeysi

Ma’lumotlar bazasidagi mavjud jadval strukturasini (ya’ni uning maydonlari jamlanmasini) html-formada tasvirlash uchun quyidagi tarkibiy topshiriqlarni rejalashtirish mumkin:

- MB bilan ulanishni o’rnatish;
- MB ishini tanlash;
- Jadval maydonlari ro’yxatini olish;
- html-formada maydonlarni tasvirlash.

Bundan keyin formaga kiritilgan ma’lumotlarni ma’lumotlar bazasiga kiritish mumkin.

## 5.3. Ma’lumotlar bazasi bilan bog’lanish (MySQL dasturi misolida)

**Aloqa o’rnatish**

Ma’lumotlar bazasi bilan aloqa o’rnatish uchun **mysql_connect** funksiyasidan foydalaniladi.

mysql_connect sintaksisi

mysql_connect resursi (“server qatori”, “username”, “password”)

Bu funksiya MySQL serveri bilan aloqa o’rnatadi va bu aloqaga ko’rsatkich qaytaradi Yoki muvaffaqiyatsiz chiqqanda FALSE ko’rsatadi. Odatda quyidagi parametrlar qiymati e’lon qilinadi:

**server** = 'localhost:3306'

**username** = server jarayoni egasidan foydalanuvchi ismi

**password** = bo’sh parol

Server bilan ulanish, agar u bungacha mysql_close() yordamida yopilmagan bo’lsa, skriptni amalga oshirish tugallanishida baza bilan aloqa yopiladi.

**Misol**:

<?

$conn = mysql_connect("localhost", "nina","123") or die("Ulanishni amalga oshirib bo’lmaydi: ". mysql_error());

echo "Ulanish amalga oshdi";

mysql_close($conn);

?>

mysql_connect amali

**shell>mysql -u nina -p123** buyrug’i bilan teng kuchli.

## 5.4. Ma’lumotlar bazasi ustida amallar

### Ma’lumotlar bazalarini tanlash

MySQL da ma’lumotlar bazasini tanlash use buyrug’i yordamida amalga oshiriladi:

mysql>use book;

PHP da buning uchun mysql_select_db funksiyasi mavjud.

mysql_select_db: sintaksisi

***mantiqiy mysql_select_db (database_name qatori);***

Bu funksiya TRUE qiymatni ma’lumotlar bazasini muvaffaqiyatli tanlanganda qaytaradi va FALSE ni esa – aksincha bo’lganda.

**Misol**: Book ma’lumotlar bazasini tanlash

<?

$conn = mysql_connect("localhost","user","123") or die("Ulanishni amalga oshirib bo’lmaydi: ". mysql_error());

echo "Ulanish amalga oshdi";

**mysql_select_db**("book");

?>

**Jadval maydonlari ro'yxatini olish**

PHP da ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanilgandan so'ng, undagi jadvallar ro'yxatini olish mumkin. Bu funksiya - mysql_list_fields.

mysql_list_fields sintaksisi

***mysql_list_fields (database_name qatori, table_name  qatori)***

mysql_field_name funksiyasi so'rov amalga oshirilishi natijasida olingan maydon nomini qaytaradi. mysql_field_len funksiyasi maydon uzunligini qaytaradi. mysql_field_type funksiyasi maydon tipini qaytaradi, mysql_field_flags funksiyasi esa probel bilan yozilgan maydon bayroqlari ro'yxatini qaytaradi. Maydon tiplari int, real, string, blob va h. bo'lishi mumkin. Bayroqlar not_null, primary_key, unique_key, blob, auto_increment va h. bo'lishi mumkin.

Bu barcha buyruqlar sintaksisi bir xil:

**mysql_field_name** (result qatori, butun field_offset) resursi;

**mysql_field_type** (result qatori, butun field_offset) resursi;

**mysql_field_flags** (result qatori, butun field_offset) resursi;

**mysql_field_len** ( result qatori, butun field_offset)

Bu yerda result – bu so'rov natijasi identifikatori (masalan, mysql_list_fields Yoki mysql_query  funksiyalar bilan jo'natilgan so'rov), field_offset esa – natijadagi maydonning tartib raqami.

mysql_num_rows(result resursi) buyrug'i result ning ko'pgina natijalari qatorlari miqdorini qaytaradi.

**Misol**: Artifacts (eksponatlar kolleksiyasi) jadvali maydonlari ro'yxatini olish.

```
<?
$conn = mysql_connect("localhost","user","123") or die("Aloqa o'rnatib bo'lmaydi: ". mysql_error());
echo "Aloqa o'rnatildi";
mysql_select_db("book");
$list_f = mysql_list_fields ("book","Artifacts",$conn);
```

```
$n = mysql_num_fields($list_f);
for($i=0;$i<$n; $i++){
  $type = mysql_field_type($list_f, $i);
  $name_f = mysql_field_name($list_f,$i);
  $len = mysql_field_len($list_f, $i);
  $flags_str =  mysql_field_flags ($list_f, $i);
echo "<br>Maydon nomi: ". $name_f;
echo "<br>Maydon turi: ". $type;
echo "<br>Maydon uzunligi: ". $len;
echo "<br>Maydon bayroqlari qatori: " . $flags_str . "<hr>";
}
?>
```

Natija sifatida taxminan quyidagilarni olish mumkin (albatta, jadvalda ikkita maydon bo’lganda):

- Maydon nomi: id
- Maydon turi: int
- Maydon uzunligi: 11
- Maydon bayroqlari qatori:
- not_null primary_key auto_increment
- Maydon nomi: title
- Maydon turi: string
- Maydon uzunligi: 255
- Maydon bayroqlari qatori:

**html-formada maydonlar ro’yxatining aks etishi**

Maydon haqidagi ma’lumotni html-forma elementida aks ettiramiz. BLOB turidagi elementlarni textarea ga o’tkazamiz (TEXT turida biz tuzgan description maydoni BLOB tipiga ega), raqamlar va qatorlarni <input type=text> matnli qatorlarida aks ettiramiz, avtoinkrement belgisiga ega elementni esa umuman aks ettirmaymiz, chunki uning ma’nosi o’z-o’zidan o’rnatiladi.

Buning uchun explode funksiyasidan foydalaniladi:

explode: sintaksisi

***explode massivi (separator qatori, string qatori , int limit)***

Bu funksiya string qatorini separator taqsinilagichi yordamida qismlarga bo’ladi va olingan qatorlar massivini qaytaradi.

Bizning holatda taqsinilagich sifatida probel “ ” ni olish kera, bo’lish uchun boshlang’ich qator sifatida esa – maydon bayroqlari qatorini.

**Misol**. Artifacts  jadvaliga ma’lumot kiritish uchun forma (index.php)

```
<?php
  $dblocation = "localhost";
  $dbname = "book";
  $dbuser = "root";
  $dbpasswd = "";
$dbcnx = @mysql_connect($dblocation,$dbuser,$dbpasswd);
@mysql_select_db($dbname,$dbcnx);
if(isset($_POST['save_hide'])) {
$title=($_POST['title']);
$query = "INSERT INTO Artifacts (title) VALUES ('$title')";
 if(@mysql_query($query))
  {
   echo "<HTML><HEAD><META HTTP-EQUIV='Refresh' CONTENT='0; URL=index.php'></HEAD></HTML>";
  } else {   print mysql_error();   error("Ma’lumotni bazaga yezishda xatolik");}
} else {
?>
<TABLE width="100%" align=center border=0><TR><TD>
<form method="POST" name="save" action="" enctype="multipart/form-data" >
<input type=hidden name=save_hide value=save_hide>
```

```
<TABLE width="100%" align=center border=0><TR>
<TD>Eksponat nomini kiriting </TD>
<TD><INPUT class="input" size="35" name="title" value=""></TD>
</TR></TABLE>
<input type="submit" value="Saqlash" class="batton" />
</form></TD></TR></TABLE>
<? } ?>
```

**Ma’lumotlar bazasiga ma’lumotlar yozish**

Ma’lumki, ma’lumotlarni jadvalga yozish uchun SQL tilidagi INSERT buyrug’i ishlatiladi:

```
mysql> INSERT INTO Artifacts SET title='Eksponat nomi';
```

PHP skriptda bunday buyruqdan foydalanish uchun mysql_query() funksiyasi mavjud.

**mysql_query** sintaksisi

***mysql_query resursi (query qatori)***

mysql_query() SQL-so’rovni MySQL ma’lumotlar bazasining ma’lumotlar bazasiga jo’natadi. Agar ochiq aloqa bo’lmasa, funksiya parametrsiz mysql_connect() funksiyasiga o’xshash holda MBBT bilan bog’lanishga urinadi.

So’rov natijasi buferlanadi.

## Takrorlash uchun savollar:

1. Ma’lumotlar bazasi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanaka ma’lumotlar bazasi dasturlarini bilasiz va ularni imkoniyatlari?
3. PHP da MySql bilan bog’lanish funksiyasini tushuntirib bering?
4. PHP da MySql so’rovlarini amalga oshirishga misol keltiring?

## 2.2. AMALIY MASHG’ULOT MATERIALLARI

### 1-Amaliy mashg’ulot

**Mavzu:** PHP sintaksisi

**PHPni HTML tarkibiga qo'shish**

PHP fayllari odatela .php kengaytmasiga ega bo'ladi. Web server bu kengaytmali faylga murojaat qilganida avtomat ravishda fayl PHP protsessorga beradi. Web serverni htm Yoki html fayllarini ham PHP protsessorga yuboradigan qilib sozlash mumkin.

**PHP Parsemi chaqirish quyidagicha bo'ladi:**

```
<?php

    echo 'Assalomu alaykum bo`lajak dasturchilar!<br>';

    echo "Bir nechta Satrni
            ham yozish mumkin. <br>";
?>
```

**echo funksiyasi ma'lumotlarni chop qilish uchun ishatiladi**.

### ECHO FUNKSIYASINING YANA BIR KO’RINISHI

*echo funksiyasi orqali bir nechta satrli HTML kodlarini php orqali chop qilish mumkin. Bunda yopuvchi END identifikatori alohida satrda yozilishi shart va hech qanday probel ham bo'lishi mumkin emas. Aks holda xatolik sodir bo'ladi.*

```
<?php
echo <<<END
<!DOCTYPE HTML>
<html>
  <head>
        <meta charset="utf-8">
        <title>She'r</title>
        </style>
  </head>
       <body>
<p>        Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q, <br>
                  Harkidaki bu ikki yo'q, iymom yo'q.     <br>
                  Andin yaxshilik kutib bo'lmas,          <br>
                   Chunkim, imkom yo'q.                <br>
                  (Alisher Navoiy)
</p>
       </body>
```

```
    </html>
END
?>
```

**Ba'zi hollarda ochuvchi <?php teg o’rinda <? yozilganini ko'ramiz. Lekin bunday qilish tavsiya etilmaydi. Chunki, Web serverni qo'shimcha sozlash lozim bo'ladi.**

**HTML fayli tarkbida PHP dan foydalanish:**

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<head>
    <title>Sarlavha</title>
</head>
<body>
    <h1>Bu HTMLda</h1>
    <?php
        echo "Assalomu alaykum bo`lajak dasturchi!<br>";
        // date - bugungi sanani olish funksiyasi
        echo "Bugun ".date('d/m/y').'<br>';
        echo '(c) 2009 - '.date('Y');
     ?>
</body>
</html>
<?php
    echo phpinfo();
?>
```

## Izohlarni yozish

**Izohlar**

Programmaning ma'lum qismini tavsiflash uchun ishlatiladi va bu qatorda hech qanday amai bajarilmaydi, ya’ni programmaning biror qismini yaxshiroq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Izoh "/*" va "*/" sinivollari orasida beriladi. /* Bu yerga izoh yoziladi. */

Bundan tashqari bir satrli izohlardan ham foydalanish mumkin. Buning uchun izoh boshiga "//" belgisi qo'yiladi.

## Ko'p satrli izoh yozishga misol

```
<?php
    /*
        Shu shaklda bir nechta
        satrga izoh yozish
        mumkin */
?>
```

**Nuqtali vergul (;)**

PHPda nuqtali vergul xuddi C++, C# va Java dasturlash tillari kabi operator tugallanganligini bildirish uchun ishlatiladi. Ko'p xollarda shu belgi tushirib qoldirilgani uchun "Parse error" sintaksis xatoligi chiqariladi.

**$ belgisi**

PHP hamma o'zgaruvchilar oldidan $ belgisi yozilishi shart. **O'zgaruvchilar oldidan $ belgisi yoziladi**

```
<?php
  $butun_son = 1;
  $satr      = "Hello";
  $massiv    = array("One", "Two", "Three");
?>
```

**O'zgaruvchi :**

Xotiraning nomlangan qismi bolib, o'zida malum bir qiymatni saqlaydi. O'zgaruvchining nomi va qiymati bo'ladi. O'zgaruvchining nomi orqali qiymat saqlanayotgan xotira qismiga murojaat qilinadi. Programma ishlashi jarayonida o'zgaruvchining qiymatini o'zgartirish mumkin.

## O'zgaruvchilarga nom berish

O'zgaruvchilarga nom tanlaganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

1. O'zgaruvchilarga nom lotin harflaridan Yoki ost chiziqdan (_) boshlanishi shart;

2. Ikkinchi sinivoldan boshlab raqamlardan foydalanish mumkin;

3. PHP da katta kichik harflar farq qiladi. Ya’ni quyidagilarning har biri alohida o'zgaruvchi hisoblanadi: KATTA, katta, KaTTa, kAttA, Katta, KattA, ...

4. Probeldan o'zgaruvchi nomida foydalanib bo'lmaydi. Probel o’rniga ost chiziqdan foydalanishingiz mumkin. Masalan, $talaba_ismi;

5. O'zgaruvchi nomida faqat katta va kichik lotin harflari, raqamlar va ost chiziqni ishlatish mumkin.

6. O'zgaruvchi nomi oldidan $ belgisi bo'lishi shart

**Operator**

Tilning yakunlangan jumlasi hisoblanadi va ma'lumot taxlilining tugallangan bosqichini ifodalaydi. Operatorlar nuqtali vergul ";" bilan ajratiladi. Ya’ni ";" operatorning tugallanganligini bildiradi.

| Amallar | Izoh | Namuna |
|---|---|---|
| + | Qo'shish | $k + 1 |
| - | Ayirish | $k - 1 |
| * | Ko'paytirish | $k * 10 |
| / | Bo'lish | $k / 10 |
| % | Qoldiqni olish | $k % 10 |
| ++ | Inkrement. O'zgaruvchi qiymatini birga oshirish | $k++ |
| -- | Dekriment. O'zgaruvchi qiymatini birga kamaytirish | $k-- |

Amallarga quyidagicha misollarni namuna qilib keltirish mumkin.

| Operator | Namuna | Ekvivalent |
|---|---|---|
| += | $k += 10; | $k = $k + 10; |
| -= | $k -= 10; | $k = $k - 10; |
| *= | $k *= 10; | $k = $k * 10; |
| /= | $k /= 10; | $k = $k / 10; |
| %= | $k %= 10; | $k = $k % 10; |
| ++ | $k++; | $k = $k + 1; |
| -- | $k--; | $k = $k - 1; |
| .= | $k.=$c; | $k = $k.$c; |

**Apostrof( ` ) orasidagi o'zgaruvchilar o’zgarishsiz chiqariladi**

```
<?php
        $a = 5;
        $b = 3;

        $c = $a + $b;

        echo '$a = '.$a.'<br>';
        echo '$b = '.$b.'<br>';
        echo '$a + $b = '.$c;
?>
```

## Mustaqil ishlash uchun masalalar:

1. Kvadratning tomoni a berilgan. Uning perimetri aniqlansin. $P = 4 * a$.
2. Kvadratning tomoni a berilgan. Uning yuzasi aniqlansin. $S = a^2$
3. To'g'ri to'rtburchakning tomonlari a va b berilgan. Uning yuzasi S = a*b; va P = 2 * (a + b) perimetri aniqlansin.
4. Aylananing diametri d berilgan. Uning uzunligi aniqlansin $L = 2 * pi * r$ pi= 3.14
5. Ikki xonali son berilgan. Oldin uning o'nliklar xonasidagi raqamini, so'ng birlar xonasidagi raqamini chiqaruvchi programma tuzilsin.
6. Ikki xonali son berilgan. Uning raqamlari yig’indisini aniqlovchi programma tuzilsin.
7. Ikki xonali son berilgan. Uning raqamlari o’rnini almashtirishdan hosil bo'lgan sonni aniqlovchi programma tuzilsin.

8. Uch xonali son berilgan. Uning yuzlar xonasidagi raqamini aniqlovchi programma tuzilsin.
9. Uch xonali son berilgan. Oldin um birliklar xonasidagi raqamini so'ng o'nliklar xonasidagi raqamini chiqaruvchi programma tuzilsin.
10. Uch xonali son berilgan. Uning raqamlar yig’indisini aniqlovchi programma tuzilsin.
11. a va b butun sonlar berilgan. Shu sonlar qiymatlarini almashtiruvchi programma tuzilsin. (misol a=3, b=5 natija a=5, b=3)

## 2-Amaliy mashg'ulot

**Mavzu:** Matematik funksiyalar

**Ishning maqsadi**: PHP ni o'rganish va ma'lumotlar tiplaridan foydalanish, o'zgaruvchilar, amallar operasiyalar.

**Talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak*** ma'lumotlar tiplari. o'zgaruvchilar, amallar va operasiyalar.

***Qila olishi kerak*** PHPda ishlash;

## NAZARIY BO'LIM

Barcha matemetik funksiyalar butun (int) va haqiqiy (float) sonlar uchun ishlatiladi.

| #Funksiya | Izoh |
|---|---|
| 1. number abs ( mixed number ) | \|x\| mobul |
| 2. float floor ( float value) | argumentdan kichik bo'lgan butun son qaytaradi |
| 3. float ceil ( float value) | argumentdan katta bo'lgan butun son qaytaradi |
| 4. float round ( float val [, int precision] ) | yaxlitlash uchun ishlatiladi |
| 5. mixed max ( number arg1, number arg2 [, ...] )<br>mixed max ( array numbers ) | katta qiymatni qaytaradi |
| 6. mixed min ( number arg1, number arg2 [, ...] )<br>mixed max ( array numbers ) | kichik qiymatni qaytaradi |
| 7. int rand ( [int min, int max] ) | min va max butun sonlari orasidan tasodifiy son qaytaradi |
| 8. float sqrt (float arg) | ildiz chiqarish |

**fborva ceil funksiya la riga misol floor va ceil funksiyalariga misol**

```
<?php
    // jasur.uz 02.05.2015
    // floor kichik butun son qaytaradi
    // ceil katta butun son qaytaradi

    $k = 7.9;     $k1 = -7.9;
    $q = 5.4;     $q1 = -5.4;

    echo 'floor(7.9)='.floor($k).'<br>';    // 7
    echo 'floor(5.4)='.floor($q).'<br>';    // 5


    echo 'ceil(7.9)='.ceil($k).'<br>';              // 8
    echo 'ceil(5.4)='.ceil($q).'<br>';              // 6

    echo 'floor(-7.9)='.floor($k1).'<br>'; // -8
    echo 'floor(-5.4)='.floor($q1).'<br>'; // -

    echo 'ceil(-7.9)='.ceil($k1).'<br>';    // -7
    echo 'ceil(-5.4)='.ceil($q1).'<br>';    // -5
```

```
?>
```

**round funksiyasi**

```
<?php
        // round yaxlitlash uchun ishltiladi
    $k = 7.9;     $k1 = -7.9;
    $q = 5.4;     $q1 = -5.4;

    echo 'round(7.9)='.round($k).'<br>';          // 8
    echo 'round(5.4)='.round($q).'<br>';       // 5

    echo 'round(-7.9)='.round($k1).'<br>';       // -8
    echo 'round(-5.4)='.round($q1).'<br>';       // -5
?>
```

**Max funksiyasi**

max funksiyasi katta sonni aniqlash uchun ishlatiladi, argument sifatida istalgancha sonlar Yoki massiv bo'lishi mumkin

```
<? php
    $k = 7;
    $t = 5;

    echo max($k, $t);  // 7 chiqadi

    echo '<br>';

    $a = array(2, 4, 5, 6, 7, 8);

    echo max($a);                 // 8 chiqadi
?>
```

**rand tasodifiy son tanlash funksiyasi**

```
<? php

    echo rand(10,  15).'<br>';         // 10 va 15 orasidan son chiqaradi
    echo rand(100, 200).'<br>';  // 100 va 200 orasidan son chiqaradi
    echo rand();          // Windowsda 0 va 32767 orasidan son chiqaradi
?>
```

Ko’p hollarda *PHP* tilini interpretatori ishlayotganligini tekshirib ko’rish uchun tuziladigan dastur eng sodda dastur deb ataladi. Hozir biz *PHP* tilidagi ushbu dasturni chuqur o’rganamiz hamda uni boshqa dasturlash tillari Ci, Perl va JavaScript lardan farqli tomonini tekshiramiz. Ushbu misolni ko’ramiz:

**Misol. PHP kodida tuzilgan sodda html-fayl:**

```
<html>
  <head>  <title> Misol </title>  </head>
  <body>
  <?php    echo "<p> Salom, bu men – PHP skript! </p>";    ?>
</body></html>
```

Bu *PHP* dasturlash tilining maxsus kodli teglari yordamida tuzilgan sodda html-fayldir.

Yuqorida aytib o’tganimizdek, *PHP* dasturlash tili Ci va Perl dasturlash tiliga o’xshash. Biroq keltirilgan dastur Ci va Perl dasturlash tilidagi dasturdan ancha katta farq qiladi. Bu yerda HTML sahifaga chiqarish uchun bir qator maxsus buyruqlarni yozish shart emas. Bevosita *PHP*-kod asosida qurilgan biror vazifani bajaradigan HTML-*skript* yoziladi (bizni misolda ekranda chiqarilgan matn). *PHP* dasturlash tilining Ci va Perl dasturlash tillaridan kamchiligi shuki, murakkab skriptlarni *PHP* dasturlash tili ancha sekin bajaradi.

***PHP-skriptlar*** – bu serverda bajariladigan va qayta ishlanadigan dasturlardir. Bu skriptlarni JavaScript tipidagi skriptlar bilan taqqoslash mumkin emas, chunki JavaScript tilidagi skriptlarda yozilgan buyruqlar faqat kliyent kompyuteridagina bajariladi. Kliyent kompyuterida va server kompyuterida bajariladigan skriptlarning farqi nimada? Agarda skript serverda qayta ishlansa, mijoz kompyuteriga faqatgina natija yuboriladi. Masalan, agarda serverda skript bajarilayotgan bo’lsa, yuqorida keltirilganga o’xshab mijoz HTML-sahifa ko’rinishdagi natijani oladi:

```
<html>
   <head>  <title> Misol </title>   </head>
   <body>   <p> Salom, bu men – PHP skript! </p>
   </body></html>
```

Bu holatda mijoz qanday kod bajarilayotganini bilmaydi. O’z serveringizni HTML-fayllarni *PHP* prosessori qayta ishlaydigan qilib sozlab olishingiz ham mumkin. Ya’ni kliyentlar oddiy HTML-faylni qabul qildimi Yoki skript natijasini ko’rdimi buni bila olmaydi. Agarda skript kliyent kompyuterida qayta ishlansa (masalan, JavaScript tilidagi dastur), u holda kliyent skript kodidan iborat HTML-sahifani ko’radi.

Biz yuqorida aytib o’tgandikki, *PHP-skriptlar HTML*-kod ichida yoziladi. Qanday qilib degan savol tug’iladi. Buning bir nechta usullari mavjud. Bulardan biri birinchi misolda keltirilganidek, *<?php* tegi bilan boshlanib *?>* tegi bilan tugagan sintaksis. Bunday ko’rinishdagi maxsus teglar HTML va *PHP* rejimidagina ishlatiladi. Bu sintaksis *PHP* tilini *XML* hujjatlari bilan birgalikda ishlaydigan dasturlarida juda ma’qul ko’riladi (masalan, XHTML tilida yozilgan dasturlarda). Biroq bazan quyidagi alternativ variantdan foydalansa ham bo’ladi(echo "Some text" buyrug’i «Some text» matnini ekranga chiqaradi.):

```
<? echo "Bu PHP tilida  oddiy qayta ishlashning  instruksiyasi"; ?>
<script language="php">
 echo "Bir nechta redaktorlar (FrontPage) quyidagicha qabul qilishadi";
</script>
```

<% echo " ASP texnologiyasidagi tegdan ham foydalansa bo’ladi"; %>

Bu keltirilgan usullardan birinchisi har doim ham bajarilavermaydi. Undan foydalanish uchun qisqa teglarni ishlatish kerak, Yoki *PHP*3 uchun *short_tags*() funksiyani ishlatish kerak, Yoki *PHP* tilining konfigurasion fayliga short_open_tag buyruqni o’rnatish kerak, Yoki *PHP* dasturlash tilida *enable-short-tags* parametr bilan kompilyasiya qilish kerak. Agarda php.ini-dist buyruqqa yuqoridagilar avtomatik qo’shilgan bo’lsa, u holda qisqa teglardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Ikkinchi usul xuddi o’rniga qo’yishga o’xshaydi, masalan, JavaScript kodlari va uning uchun mos html teglar. SHuning uchun undan har doim foydalanish mumkin, lekin bu noqulayligi uchun kamdan-kam ishlatiladi. Uchinchi usuldan faqat ASP texnologiyasidagi teglar *asp_tags* konfigurasiyasida ishlatilgandagina foydalaniladi.

*PHP* dasturlash tili faylni qayta ishlayotganda u oddiy matnni *PHP* kod interpretasiya qilishi kerak bo’lgan maxsus teglarni uchratmaguncha qaytarib beradi. Interpretator haqida gapirganda u topilgan barcha kodni yopiladigan teggacha bajaradi, so’ng yana oddiy matn qaytariladi. Bu mexanizm *PHP*-kodni HTML sahifaga aylantiradi, ya’ni barcha *PHP* teglardan tashqari barcha matnlarni o’zgarishsiz saqlaydi va ichkaridagilarni esa interpretasiyalaydi. Yana shuni aytish kerakki, php-fayl *CGI*-skriptga o’xshamaydi. php-fayl bajarilishi shart emas, Yoki yana qandaydir belgilanadi.

php-faylni serverda qayta ishlash uchun jo’natishda server tomonidan brauzer satrida bu faylni yo’lini ko’rsatish shart. *PHP* skriptlar www orqali kirishga ruxsat etilgan joyda joylashishi shart. Agarda php-fayl lokal kompyuterda mavjud bo’lsa, u holda uni buyruqlar satri interpretatori yordamida qayta ishlash mumkin.

## ASOSIY SINTAKSISLAR

Instruksiyani bir nechta qismga bo’lib ko’rib chiqamiz, ya’ni kommentariylar yaratish, o’zgaruvchilar, o’zgarmaslar va ma’lumot tiplari, operatorlarga.

Biz endi *PHP* dasturlash tilining asosiy sintaksis elementlarini o’rganishga o’tamiz. Misol sifatida elektron maktub tayyorlash masalasini ko’rib o’taylik. Uning ma’nosi quyidagidan iborat.

Faraz qilarnizki, sizda qandaydir e’lon va e’lonni jo’natishingiz kerak bo’lgan bir nechta odamlar mavjud bo’lsin. Buning uchun siz e’lonni ichida o’zgaradigan (qabul qiluvchi bilan bog’liq bo’lmagan) bir nechta parametrlari mundarijasi bilan tayyorlaysiz.

Birinchi navbatda PHP dasturlash tili sintaksisiga nisbatan nimalarni bilish kerak. Bu HTML-kod ichiga o’rnatilgan va PHP dasturlash tilidagi koddir, uni interpretator farqlay biladi. Avvalgi bo’limlarda bular haqida aytib o’tgandik. Hammasini qaytarib o’tmaymiz, faqat biz ko’p hollarda misollarda <?php ?> variant o’rniga qisqartirilgan <? ?> teglardan foydalanishni aytib o’tamiz.

## Instruksiyalarni ajratilishi

PHP dasturlash tilidagi dastur(ixtiyoriy dasturlash tilidagi) – bu buyruqlar (instruksiyalar) to'plarnidir. Dasturni qayta ishlash uchun bir buyruqni boshqa buyruqdan farqini bilish kerak. Buning uchun maxsus sinivollar – ajratgichlardan foydalaniladi. PHP dasturlash tilida instruksiyalarni xuddi Ci Yoki Perl dasturlash tillari kabi ajratiladi, ya'ni har bir ifoda nuqtali vergul (";") bilan tugaydi.

«?>» yopiladigan teg ham instruksiyani tugashini angiatadi, shuning uchun undan oldin nuqtali vergul qo'yilmaydi. Masalan, quyidagi ikki fragmentlar ekvivalentdir:

```
<?php
echo "Hello, world!"; // buyruqlar oxirida nuqtali vergul qo’yish shart
?>
<?php
echo "Hello, world!" ?>
<!-- "?>" borligi uchun nuqtali vergul tashlab ketildi -->
```

## Kommentariylar

Ko'p hollarda dastur tuzganda kodni tushunarli bo'lishi uchun unga qandaydir izoh-***kommentariylar*** qo'yish kerak bo'lib qoladi. Bu holat katta hajmdagi dasturlar yaratganda hamda agarda bitta dastur ustida bir nechta dasturchi ishlayotganda juda muhim. Kommentariylar dasturning kodi tushunarli bo'lishi uchun yoziladi. Bundan tashqari masalani qismlarga ajratib hal qilinganda ishning kamchiligi bor joyida keyinchalik esdan chiqmasligi uchun kommentariya yozib qo'yiladi. Barcha dasturlash tillarida dastur ichiga kommentariya qo'shish imkoniyati mavjud. *PHP* dasturlash tili bir qancha ko'rinishdagi kommentariylarni qo'llab quvvatlaydi: Ci, C++ dasturlash tillari stilidagi hamda Unix qobig'idagi kommentariylar. // va # belgilar bir satrli kommentariylarni angiatsa, /* va */ belgilar esa mos ravishda ko'p satrli kommentariylarning boshlanish va tugashini angiatadi.

```
<?php
echo "Meni ismim Alisher";
  // Bu bir satrli kommentariy S++ dasturlash tili stilidagi
echo "Meni familiyam Boliyev";
/* Bu ko’p satrli kommentariy. Bu yerga bir qancha satr yozish mumkin. Dastur bajarilish jarayonida bu yerdagi barcha yozuvlar (kommentariylangan), o’qilmaydi. */
echo "Men PHP dasturlash tilini INTUIT.ru dan o’rganyapman";
  # Bu kommentariy Unix qobig’idagi kommentariy.
?>
```

## Amallar

O'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va ifodalar ustida turli hisoblashlarni bajaradigan bu ***amallar***dir. Biz hali bu ifodalar haqida to'xtab o'tganimiz yo'q. Ifodalar qiymatini ushbu amallar yordamida aniqlanadi. O'zgaruvchilar va o'zgarmaslar – bu ifodalarning asosiy va juda sodda shaklidir. SHunday ifodalarni

ko’paytirishi mumkin bo’lgan amallar to’plarni mavjud. Ularni quyida to’liqroq muhokama qilarniz:

| **2.1-jadval. Arifmetik amallar.** | | |
|---|---|---|
| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Misol** |
| + | Qo’shish | $a + $b |
| - | Ayirish | $a - $b |
| * | Ko’paytirish | $a * $b |
| / | Bo’lish | $a / $b |
| % | Bo’lishdagi qoldiq | $a % $b |

| **2.2-jadval. Satrli amallar.** | | |
|---|---|---|
| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Misol** |
| . | *Konkatenasiya* (*satrlarni qo’shish*) | $c = $a . $b<br>(bu $c satr $a va $b satrlardan iborat) |

| **2.3-jadval. O’zlashtirish amallari.** | | | |
|---|---|---|---|
| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Izox** | **Misol** |
| = | O’zlashtirish | *Operatordan* o’ng tomonda turgan o’zgaruvchilar ustida bajarilgan amallardan hosil bo’lgan natija qiymati o’zlashtiriladi. | $a = ($b = 4) +5;<br>($a 9 ga teng, $b 4 ga teng) |
| += | | Qisqartirish. O’zgaruvchiga son qo’shiladi va keyin natija o’zlashtiriladi. | $a += 5;<br>($a = $a + 5 ifodaga ekvivalent;) |
| .= | | O’zlashtirish va konkatenasiya amallari kombinasiyasini qisqartirilgan shakli(dastavval satrlar qo’shiladi, so’ngra hosil bo’lgan satr o’zgaruvchiga o’zlashadi). | $b = "Hammaga ";<br>$b .= "salom";<br>($b = $b . "salom" ifodaga ekvivalent;)<br>Natijasi:<br>$b="Hammaga salom" |

<table>
<tr><th colspan="4">2.4-jadval. Matiqiy amallar.</th></tr>
<tr><td>Belgilanishi</td><td>Nomlanishi</td><td>Izox</td><td>Misol</td></tr>
<tr><td>And</td><td>VA</td><td>$a va $b rost (True)</td><td rowspan="2">$a and $b<br>$a && $b</td></tr>
<tr><td>&&</td><td>VA</td><td></td></tr>
<tr><td>Or</td><td>Yoki</td><td>$a Yoki $b o’zgaruvchilardan hech bo’lmaganda bittasi rost bo’lsa (ikkalasi ham rost bo’lishish mumkin).</td><td>$a or $b</td></tr>
<tr><td>||</td><td>Yoki</td><td></td><td>$a || $b</td></tr>
<tr><td>Xor</td><td>Inversiya Yoki</td><td>O’zgaruvchilardan bittasi rost bo’lsa. Agarda ikkalasi ham rost bo’lsa inversiyalanadi.</td><td>$a xor $b</td></tr>
<tr><td>!</td><td>Inversiya (NOT)</td><td>Agarda $a=True, u holda !$a=False va aks holda teskarisi bo’ladi.</td><td>! $a</td></tr>
</table>

**2.5-jadval. Taqqoslash amallari.**

| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Izox** | **Misol** |
|---|---|---|---|
| == | Tengiik | O’zgaruvchilar qiymatlari teng | $a == $b |
| === | Ekvivalentlik | O’zgaruvchilar qiymatlari va tiplari teng | $a === $b |
| != | Tengsizlik | O’zgaruvchilar qiymatlari teng emas | $a != $b |
| <> | Tengsizlik | | $a <> $b |
| !== | Noekvivalentlik | O’zgaruvchilar ekvivalent emas | $a !== $b |
| < | Kichik | | $a < $b |
| > | Katta | | $a > $b |
| <= | Kichik Yoki teng | | $a <= $b |
| >= | Katta Yoki teng | | $a >= $b |

**2.6-jadval. Inkrement va dekrement amallari.**

| **Belgilanishi** | **Nomlanishi** | **Izox** | **Misol** |
|---|---|---|---|
| ++$a | Pre-*inkrement* | $a qiymati birga oshiriladi va $a qiymati qaytariladi | <?<br>$a=4;<br>echo "4 bo’lishi shart:" .$a++;<br>echo "6 bo’lishi shart:" .++$a;<br>?> |
| $a++ | Post-*inkrement* | $a qiymati qaytariladi va so’ngra $a qiymati birga oshiriladi | |
| --$a | Pre-*dekrement* | $a qiymati birga kamaytiriladi va $a qiymati qaytariladi | |
| $a-- | Post-*dekrement* | $a qiymati qaytariladi va so’ngra $a qiymati birga kamaytiriladi | |

## 3-Amaliy mashg'ulot
## Mavzu: O'zgaruvchi va o'zgarmaslar

**Ishning maqsadi**: PHP ni o'rganish va ma'lumotlar tiplaridan foydalanish, o'zgaruvchilar, amallar operasiyalar.

**Talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak*** ma'lumotlar tiplari. o'zgaruvchilar, amallar va operasiyalar.

***Qila olishi kerak*** PHPda ishlash;

O'zgarmaslar o'zgaruvchilar kabi o'zida ma'lumot saqlaydi. O'zgarmaslarning asosiy farqi e'lon qilinganidan keyin uning qiymatini o'zgartirib bo'lmaydi.

O'zgarmasga misol qilib saytingiz serverning qaysi katalogida joylashganini ko'rsatish mumkin. Quyida ROOT_LOCATION o'zgarmasini e'lon qilish keltirilgan:

***define(„O'zgarmas nomi", „O'zgarmas qiymqti");***

Keyin undan oddiy o'zgaruvchi kabi foydalanish mumkin. Faqat o'zgarmas oldidan **$** belgisi qo'yilniaydi.

***$uzgaruvchi=O'zgarmas nomi;***

*O'zgarmaslar bilan ishlash uchun 4 ta asosiy narsani bilish kerak.*

1.O'zgarmaslar ***define*** kalit so'zi bilan e'lon qilinadi.

2.O'zgarmaslarga murojaat qilishda **$** belgisi ishlatilmaydi.

3.O'zgarmaslarning qiymatini dastur ishlashi jarayonida o'zgartirib bo'lmaydi.

4.O'zgarmaslarni katta harflar bilan yozishga kelishilgan. Kichik harflar bilan yozsangiz xato bo'lmaydi. Lekin professional dasturchilar kelishuviga xilof ish qilgan bo'lasiz.

PHP da bir qator o'zgarmaslar kiritilgan bo'lib ularni sehrli o'zgarmaslar (Magic constants) deyiladi. Sehrli o'zgarmaslar oldidan va ketidan ikkita ost chiziq yoziladi. Bu boshqa o'zgarmaslar bilan bir xil bo'lib qolmasligi uchun qilingan.

### Sehrli o'zgarmaslar jadvali (PHP's magic constants)

| Magic constants | Izoh |
|---|---|
| `__LINE__` | Fayldagi joriy satr nomeri |
| `__FILE__` | Fayl nomiga yo'lni korsatadi. Agar include orqali ishlatilgan bo'lsa, qo'shilgan fayl nomi qaytariladi. |
| `__DIR__` | Katalog nomini qaytaradi. `dirname(__FILE__)` funksiyasi bilan bir xil ishlaydi. PHP 5.3.0 versiyasidan boshlab qo'shilgan. |
| `__FUNCTION__` | Funksiya nomini qaytaradi. PHP 5 dan boshlab funksiya qanday e'lon qilingan bo'lsa, shundayligicha qaytaradi. PHP 4 da faqat kichkina harflarda qaytaradi. PHP 4.3.0 versiyasidan boshlab qo'shilgan. |
| `__CLASS__` | Klass nomini qaytaradi. PHP 5 dan boshlab klass qanday e'lon qilingan bo'lsa, shundayligicha qaytaradi. PHP 4 da faqat kichkina harflarda qaytaradi. PHP 4.3.0 versiyasidan boshlab qo'shilgan. |
| `__METHOD__` | Metod nomini qaytaradi. Metod qanday e'lon qilingan bo'lsa, shundayligicha qaytaradi. PHP 5.0.0 versiyasidan boshlab qo'shilgan. |
| `__NAMESPACE__` | Joriy nomlar fazosini qaytaradi. Bu o'zgarmas kompilyatsiya vaqtida aniqlanadi.PHP 5.3.0 versiyasidan boshlab qo'shilgan. |

**O'zgarmaslarni e’lon qilish va foydalanish**

```
<?php
        // o'zgarmaslarni katta harflarda yozing
        // o’zgarmasni e'lon qilish
        define('PI', '3.14159');
        $r = 10;
        // o'zgarmasga murojaat qilganda $ belgisi yozilmaydi
        $l = 2 * PI * $r;
        echo $l;
?>
```

## O’ZGARUVCHILAR, O’ZGARMASLAR VA OPERATORLAR.

Har bir dasturlash tilida muhim elementlardan biri bu *o’zgaruvchilar*, *o’zgarmaslar* va ular qo’llaniladigan *operatorlar*dir. PHP dasturlash tili bu elementlarni qanday belgilashi va qayta ishlashini ko’rib chiqamiz.

### O’zgaruvchilar

*PHP* dasturlash tilida *o’zgaruvchilar* oldiga dollar belgisi (“$”) qo’yib e’lon qilinadi, masalan, $my_var.

*O’zgaruvchilar* nomlari registrlarni farqlaydi, ya’ni $my_var hamda bosh harfli $My_var o’zgaruvchilari turli xil o’zgaruvchilardir.

*PHP* dasturlash tilida o’zgaruvchilar nomi qolgan dasturlash tillari qoidalari kabi e’lon qilinadi: o’zgaruvchi nomi lotin alfaviti bilan boshlanishi va undan keyin harflar Yoki tagiga chizilgan belgi Yoki raqamlar bo’lishi mumkin.

*PHP*3 dasturlash tilida o’zgaruvchilar har doim biror-bir qiymatga o’zlashtiriladi. Ya’ni o’zgaruvchini biror-bir ifodaga o’zlashtirsak, ifodaning qiymati o’zgaruvchiga o’zlashadi. Buni quyidagi misolda ko’rish mumkin, ya’ni bir o’zgaruvchini qiymati boshqasiga o’zlashtirilganda ulardan birini qiymatini boshqasiga ta’sir ko’rsatmaydi.

**Misol. Qiymat bo’yicha o’zlashtirish**

```
<?php
$first = ' Text '; // $first o’zgaruvchiga ' Text ' qiymatni o’zlashtirdik
$second = $first; // $second o’zgaruvchiga $first o’zgaruvchi qiymati o’zlashtirildi
$first = ' New text '; // $first o’zgaruvchi qiymati ' New text ' qiymatga o’zgartirildi
echo "first nomli o’zgaruvchi qiymati ".
    "$first ga teng. <br>";
     // $first o’zgaruvchi qiymatini ekranga chiqaramiz
echo "second nomli o’zgaruvchi qiymati ".
    "$second ga teng. ";
       // $second o’zgaruvchi qiymatini ekranga chiqaramiz
?>
```

Bu skriptni natijasi quyidagicha bo’ladi:

first nomli o’zgaruvchi qiymati Text ga teng.
second nomli o’zgaruvchi qiymati New text ga teng.

*PHP*4 dasturlash tilida bulardan tashqari o’zgaruvchiga qiymat o’zlashtirishning yana bir usuli mavjud: ssылka bo’yicha *o’zlashtirish*. Ssылka bo’yicha o’zgaruvchiga qiymat o’zlashtirish uchun uni nomi bo’lishi shart, ya’ni u qandaydir o’zgaruvchini taqdim etishi kerak. Bir o’zgaruvchi qiymatini boshqa o’zgaruvchiga Ssылka bo’yicha *o’zlashtirish* uchun birinchi o’zgaruvchi oldiga ampersand & belgisi qo’yish shart.

Bunga yuqoridagi misolni ko’rib chiqamiz, faqat first o’zgaruvchi second o’zgaruvchiga ssылka bo’yicha o’zlashtiriladi:

**Misol. Ssылkalar bo’yicha o’zlashtirish**

```
<?php
$first = ' Text '; // $first o’zgaruvchiga ' Text ' qiymat o’zlashtirildi
$second = &$first;
/* $second.orqali $first o’zgaruvchiga ssылka qilarniz. Endi bu o’zgaruvchilar qiymatlari har doim tengdir */
// $first o’zgaruvchi qiymatini ' New text ' qiymatga o’zgartiramiz
$first = ' New text ';
echo "first nomli o’zgaruvchi qiymati ".
    "$first ga teng <br>";
// $second o’zgaruvchi qiymatini ekranga chiqaramiz
echo "second nomli o’zgaruvchi qiymati ".
    "$second ga teng";
?>
```

Bu skriptni natijasi esa quyidagicha bo’ladi:

first nomli o’zgaruvchi qiymati New text ga teng.

second nomli o’zgaruvchi qiymati New text ga teng.

Ya’ni $first o’zgaruvchi qiymati o’rniga $second o’zgaruvchi qiymati o’zlashtirildi.

## O’zgarmaslar

Skript bajarilish jarayonida o’zgarmaydigan qiymatli kattaliklarni saqlash uchun ***o’zgarmaslar***dan foydalaniladi. Bunday kattaliklar matematik o’zgarmaslar, parollar, fayllarning yo’llari va boshqalar bo’lishi mumkin. O’zgarmaslarning o’zgaruvchilardan asosiy farqi shuki, ularni faqat bir martagina o’zlashtiriladi va uni qiymatini e’lon qilingandan keyin bekor qilib bo’lmaydi. Bundan tashqari o’zgarmaslar oldida dollar belgisi qyilmaydi hamda uni oddiy qiymat o’zlashtirish kabi qarash mumkin emas. O’zgarmaslar qanday aniqlanadi? Buning uchun maxsus define() funksiyasi mavjud, uning sintaksisi quyidagichadir:

```
define("O’zgarmas nomi",
      "O’zgarmas qiymati",
      [registrga_sezgirligi_kichik])
```

O’zgarmaslar nomi registrga segirligi katta. Har bir o’zgarmaslarda uni o’zgartirish mumkin, ya’ni *registrga_sezgirligi_kichik* argumentni qiymati sifatida True ыiymati ko’rsatiladi. O’zgarmaslar nomi har doim katta registr bilan yozishga kelishib olingan.

O’zgarmasni qiymatini bilish uchun uni nomini ko’rsatish kerak. O’zgaruvchidan farqi o’zgarmas nomi oldiga $ belgi qo’yilmaydi. Bundan tashqari

o’zgarmasni qiymatini bilish uchun konstanta nomi bilan parametr sifatida constant() funksiyasidan foydalanish mumkin.

**Misol. PHP dasturlash tilida o’zgarmaslar**

```
<?php
// o’zgarmasni aniqlaymiz PASSWORD
define("PASSWORD","qwerty");
// registrlanmagan PI o’zgarmasni qiymatini aniqlaymiz 3.14
define("PI","3.14", True);
// PASSWORD o’zgarmas qiymatini olarniz,  ya’ni qwerty
echo (PASSWORD);
// bu ham qwerty ni chiqaradi
echo constant("PASSWORD");
echo (password);
/* password ni chiqaradi va biz registrlangan o’zgarmas PASSWORD ni kutgandik.*/
echo pi;
// 3.14 ni chiqaradi, chunki o’zgarmas PI  registrlanmagan va aniqlangan.
?>
```

Dasturchi tomonidan o’zgaruvchilardan tashqari yuqorida aytib o’tganimizdek *PHP* dasturlash tilida mavjud o’zgarmaslar ham interpretator tomonidan aniqlanadi. Masalan, __FILE__ o’zgarmas dastur bajarilish jarayonida fayl nomini (va fayl yo’lini), __FUNCTION__ funksiya nomidan tashkil topadi, __CLASS__ - sinf nomi, PHP_VERSION – *PHP* dasturlash tili interpretatori versiyasini o’zida saqlaydi. Bunday o’zgarmaslarning barcha ro’yxatini *PHP* dasturlash tili uchun mo’ljallangan qo’llanmalardan topish mumkin.

## MA’LUMOTLAR TIPLARI

*PHP* dasturlash tili sakkizta sodda *ma’lumot tiplar*ini qo’llab quvvatlaydi:

To’rttasi skalyar *tiplar*:

- *boolean (mantiqiy)*;
- *integer (butun)*;
- *float (nuqtasi siljiydigan)*;
- *string (satrli)*.

Ikkitasi aralish *tiplar*:

- *array (massiv)*;
- *object (obyekt)*.

Ikkitasi maxsus *tiplar*:

- *resource (resurs)*;
- *NULL*.

*PHP* dasturlash tilida o’zgaruvchilar tiplari oshkora e’lon qilinmaydi. Ko’pincha o’zgaruvchi qo’llanilgan konteksdan, ya’ni o’zgaruvchiga o’zlashtirilgan qiymat itpidan mustaqil ravishdagi dastur bajarilish jarayonidan interpretator o’zi bu ishni bajaradi. Quyida yuqorida sanab o’tilgan *ma’lumotlar tiplar*ini birma-bir ko’rib chiqamiz.

### Boolean tipi(Bul Yoki mantiqiy tip).

Bu sodda tip qiymatni rost ekanligini ifodalaydi, ya’ni o’zgaruvchi faqat ikkita qiymat qabul qiladi – rost TRUE Yoki yolg’on FALSE.

Mantiqiy tiplarni aniqlash uchun TRUE Yoki FALSE kalit so’zlaridan foydalanamiz. Bu ikkala tiplar registrlanmagan.

```
<?php  $test = True;  ?>
```

Mantiqiy tiplar turli *boshqariladigan konstruksiyalar*da (sikllar, shartlar va shunga o’xshash, bular haqida keyinroq aytib o’tamiz) qo’llaniladi. Bir qancha amallar (masalan, tengiik amali) ham mantiqiy tip qabul qilishi mumkin, ya’ni faqat ikki qiymat rost Yoki yolg’on qiymatni qabul qiladi. Ular *boshqariladigan konstruksiyalar*da shartlarni tekshirish uchun qo’llaniladi. Masalan, shartli konstruktorda amallar Yoki o’zgaruvchilar qiymati haqiqiyligini tekshiradi va natijadan qat’iy nazar shu Yoki boshqa amallarni bajarilishini tekshiradi. Bu yerda shart rost Yoki yolg’on bo’lishi mumkin, chunki *mantiqiy tip amallari* va *o’zgaruvchilar* ko’rsatilgan.

**Misol. Mantiqiy tiplarning qo’llanilishi**

```
<?php
// '==' amal tengiikka tekshiradi
// mantiqiy qiymatni
// qaytaradi.
if ($know == False) { // agar $know qiymat false bo’lsa
echo "PHP dasturlash tilini o’rgan!";
}
if (!$know) { // xuddi yuqoridagidek $know qiymati false bo’ladi
echo " PHP dasturlash tilini o’rgan!";
}
/*   == amal $action o’zgaruvchi qiymati bilan "PHP dasturlash tilini o’rganish!" satrni
ustma-ust tushishini tekshiradi. Agar ustma-ust tushsa true qiymatni qaytaradi, boshqa holda false ni qaytaradi. Agar true ni qaytarsa figurali qavs ichidagi amallar bajariladi. */
if ($action == " PHP dasturlash tilini o’rganish ") { echo "O’rganishni boshladim";}
?>
```

## Integer (butun) tipi.

Bu tip butun sonlar to’plarnidan Z = {..., -2, -1, 0, 1, 2, ...} birini qaytaradi. Butun sonlar xohishga qarab oldiga «-» Yoki «+» belgilarni qo’yib sanoq sistemasini o’nlik, o’n oltilik Yoki sakkizlik tizimlarida ko’rsatilgan bo’lishi mumkin.

Agar siz sakkilik sanoq sistemasidan foydalanayotgan bo’lsangiz, oldindan 0 (nol) raqamini ko’rsatishingiz kerak. O’n oltilik sanoq sistemasida esa raqamlar oldiga 0x belgini qo’yish shart.

```
<?php
# o’nlik raqam
$a = 1234;
# manfiy son
```

```
$a = -123;
# sakkizlik son (o'nlik sistemasidagi 83 songa ekvivalent)
$a = 0123;
# o'n oltilik son (o'nlik sistemasidagi 26 songa ekvivalent)
$a = 0x1A;
?>
```

*Butun son*ni o'lchami platformaga bog'liq, lekin qoidaga ko'ra maksinial qiymati ikki milliard (bu ishorali 32 bitli qiymat) atrofida bo'ladi. Ishorasiz *butun son*ni *PHP* dasturlash tili qo'llab quvvatlamaydi.

Agar siz *butun son* chegarasidan tashqari biror qiymat bersangiz interpretator bu sonni *qo'zg'aluvchan vergulli son*ga o'zgartiradi. Xuddi shunday *butun son* chegarasidan tashqari chiqib ketadigan biror amal bajarsangiz ham bu sonni *qo'zg'aluvchan vergulli son*ga o'zgartiriladi.

*PHP* dasturlash tilida butun sonlarni bo'lish amali mavjud emas. 1/2 ifoda qiymati *qo'zg'aluvchan vergulli son* 0.5 ga teng. Siz natijangizni butun tipga standart qoida asosida Yoki round() funksiyasidan foydalangan taqdirda o'zgartirishingiz mumkin. O'zgaruvchini aniq bir tipga o'zgartirish uchun uning oldiga qavs ichida kerakli tipni yozish kerak bo'ladi. Masalan, $a=0.5 o'zgaruvchini butun tipga o'zgartirish uchun (integer)(0.5) Yoki (integer) $a ko'rinishda Yoki qisqartirilgan (int)(0.5) ko'rinishda yozish kerak bo'ladi. Bunday oshkora yangi tipga o'tish imkoniyati barcha *ma'lumotlar tiplari* uchun o'rinli bo'ladi (albatta, har doim ham qiymatni bir tipdan boshqasiga olib o'tish shart emas). Biz keltirilgan barcha tiplarni chuqur o'rganishimiz shart emas, chunki *PHP* dasturlash tili konteksdan mustaqil ravishda o'zi bu ishlarni bajaradi.

**Float (qo'zg'aluvchan vergulli son) tipi.**

*Qo'zg'aluvchan vergulli son*lar (ular ikki karra aniqlik Yoki haqiqiy sonlardir) quyidagi sintaksislar yordamida aniqlanishi mumkin:

```
<?php
$a = 1.234;
$b = 1.2e3;
$c = 7E-10;
?>
```

*Qo'zg'aluvchan vergulli son*ni o'lchami ham platformaga bog'liq, lekin qoidaga ko'ra maksinial qiymati ~1.8e308 aniqlik bilan 14 xonali raqam atrofida bo'ladi.

**String (satr) tipi**

***Satr*** – bu belgilar to'plarnidir. *PHP* dasturlash tilida belgi bu bir bayt va 256 ta turli belgilar mavjud. *PHP* dasturlash tili Unicode tipidagi belgilarni qabul qilmaydi. *PHP* dasturlash tilida amalda satrlarga chegirma mavjud emas, shuning uchun satrlarni ishlatganda uning aniq uzunligi haqida o'ylash shart emas.

*PHP* dasturlash tilida satrlar uchta turli xil usullarda aniqlanadi:

- *bittalik qo'shtirnoqlar* yordamida (‘’);
- *qo'shtirnoqlar* yordamida (“”);
- *heredoc-sintaksisi* yordamida.

***Bittali tirnoqlar***

Satrlarning aniqlashning oddiy usuli – u «'» *bittali qo'shtirnoqlar* ichida yoziladi. Agarda satr ichida ham bittali tirnoq ishlatishga to'g'ri kelib qolsa, bittali tirnoqdan oldin «\» belgini qo'yish, ya'ni uni ekranlash shart. Agarda «\» belgi bittali tirnoqdan oldin Yoki satrning oxirida bo'lsa, u holda belgini ikkilantirish kerak, ya'ni «\\'».

Agarda bittali tirnoq ichidagi satr ichida ixtiyoriy belgidan oldin («\» va «'» lardan farqli ravishda) teskari slesh «\» belgisi uchrasa, u holda uni oddiy belgi deb qarab barcha belgilarni o'z holicha ekranga chiqaradi. SHuning uchun teskari slesh «\» belgisini satr oxirida yopiladigan qo'shtirnoqdan avval turganini ekranlash shart.

*PHP* dasturlash tilida teskari slesh «\» belgisi bilan ifodalanadigan bir qator belgilar majmui mavjud. Ularni ***ketma-ketlikni boshqaruvchilar*** deb ataladi hamda ular maxsus vazifalarni bajaradi. Ular haqida keyinroq to'xtalib o'tamiz. O'zgaruvchilar va ketma-ketlikni boshqaruvchilar bittalik qo'shtirnoqlar satri ichida uchrashsa, ular o'rtasidagi farq *ketma-ketlikni boshqaruvchilar*ni *qayta ishlanmaydi*.

```
<?php
echo 'Satrlar majmui';

// Ekranga chiqaradi: ' belgini chiqarish uchun undan oldin \ belgi qo'yiladi.
echo ' Belgini \' chiqarish uchun undan oldin'  ' \\ belgini qo'yish kerak';
// Ekranga chiqaradi: Siz shuni o'chirmoqchimisiz C:\*.*?
echo ' Siz shuni o'chirmoqchimisiz C:\\*.*?';
// Ekranga chiqaradi: Buni qo'ymang: \n  yangi qatorga
echo ' Buni qo'ymang: \n yangi qatorga ';
// Ekranga chiqaradi: o'zgaruvchi $expand ham  $either qo'yilmaydi
echo 'o'zgaruvchi $expand ham $either qo'yilmaydi';
?>
```

## Array (massiv) tipi

*PHP* dasturlash tilida ***massiv*** tipi tartiblangan kartalarga o'xshaydi va qiymatini kalitga o'zlashtiradigan tipdir. Bu tip bir necha yo'nalishlarda optimallashtiriladi, shuning uchun siz uni xususiy *massiv*, ro'yxat (vektor), xesh-jadvali (kartani amalga oshirish uchun ishlatiladi), stek, navbat va boshqalar sifatida foydalanishingiz mumkin. Modomiki, *PHP* dasturlash tilida bir massivni qiymatini boshqasiga o'zlashtirish uchun daraxtlardan foydalanasiz.

*Massivlar*ni *array*() konstruksiyasi yordamida aniqlanadi Yoki elementlariga qiymat berish bilan aniqlanadi.

***array() konstruksiyasi yordamida aniqlash.***

array ([key] => value, [key1] => value1, ... )

*PHP* dasturlash tilining ***array***() konstruksiyasi vergul bilan ajratilgan juft parametrlar *kalit* => ***qiymat*** bilan ajratilgan. => belgi mos ravishda qiymat va uning kaliti o'rtasida aloqa o'rnatadi. Kalit butun son bo'lishi mumkin, uning qiymati esa *PHP* dasturlash tilidagi ixtiyoriy tipni qabul qilishi mumkin. Kalit raqamini biz ko'pincha indeks deb ataymiz. *PHP* dasturlash tilida indekslash noldan boshlanadi. Massiv elementining qiymatini olish uchun massiv nomi va

kvadrat qavs ichida uning kaliti ko'rsatilishi kerak. Agar massiv kaliti standart butun son bo'lsa, u holda uning qiymatini butun son deb qarasa bo'ladi, aks holda u satr deb qaraladi. SHuning uchun $a["1"] yozuv $a[1] yozuvga teng kuchli, $a["-1"] yozuv esa $a[-1] yozuvga teng kuchli.

```
<?php
$books = array("php" =>"PHP users guide",12 => true);
echo $books["php"];
//ekranga chiqaradi: "PHP users guide"
echo $books[12];     //ekranga chiqaradi: 1
?>
```

**Misol.** PHP dasturlash tilida massivlar.

Agarda element uchun kalit berilmagan bo'lsa, u holda kalit sifatida kalitning maksinial qiymatiga bir qo'shib hisoblanadi. Agarda qiymati mavjud kalit ko'rsatilgan bo'lsa, u holda shu kalit qiymatini ekranga chiqaradi. PHP 4.3.0 dasturlash tili versiyasidan boshlab kalitning maksinial qiymati manfiy son deb qaralsa, u holda massivning keyingi kaliti nol (0) bo'ladi.

```
<?php
// $arr hamda $arr1 massivlar ekvivalentdir.
$arr = array(5 => 43, 32, 56, "b" => 12);
$arr1 = array(5 => 43, 6 => 32,
           7 => 56, "b" => 12);
?>
```

**Misol**. PHP dasturlash tilida massivlar.

Agarda TRUE Yoki FALSE kalit sifatida qo'llanilsa, u holda uning qiymati mos ravishda *integer* tipining bir va noliga o'zlashtiriladi. Agar *NULL* dan foydalanilsa, u holda kalit o'rniga bo'sh satr hosil bo'ladi. Bu bo'sh satrni kalit sifatida foydalansa bo'ladi, ammo uni qo'shtirnoqqa olish kerak bo'ladi. Bu usul bo'sh kvadrat qavsni ishlatish kabi emas. Massivlar Yoki obyektlar kaliti sifatida foydalanish mumkin ham emas.

***Kvadrat qavs sintaksisi yordamida aniqlash.***

Massivga qiymat berish orqali massiv yaratish mumkin. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, massiv elementi qiymatiga ega bo'lish uchun kvadrat qavs ichiga uning kaliti ko'rsatilishi kerak, masalan, $book["php"]. Agarda yangi kalit va yangi qiymat ko'rsatsangiz quyidagicha bo'ladi: $book["new_key"]="new_value" hamda massivga yangi element qo'shiladi. Agarda kalitni ko'rsatmay faqat qiymatni o'zlashtirsak, ya'ni $book[]="new_value", u holda massivga yangi element qo'shiladi va uni kaliti mavjud maksinial qiymatga bir qo'shiladi. Agarda biz qiymat bergan *massiv* yaratilmagan bo'lsa, u holda biz qiymat bergandan keyin u *yaratiladi*.

```
<?
$books["key"]= value; // key kaliti bilan value qiymat $books massivviga qo'shiladi
$books[] = value1; /* 13-kalit bilan value1 qiymati massivga qo'shiladi, chunki bizda kalitning maksinial qiymati 12 edi. */
?>
```

Massivning aniq bir elementini o’zgartirish uchun uning shu kaliti bilan yangi qiymatga o’zlashtirish kerak. Massiv elementi kalitini o’zgartirish mumkin emas, faqat o’chirish (kalit va elementi juftligini) va yangi qo’shish mumkin xolos. Massiv ***elementini o’chirish*** uchun ***unset***() funksiyasidan foydalanish kerak.

```
<?php
$books = array ("php" =>"PHP users guide",12 => true);
$books[] = "Book about Perl"; /* 13-kalit(indeks) bilan yangi element qo’shildi, bu quyidagiga ekvivalent $books[13] ="Book about Php"; */
$books["lisp"] = 123456; /* Bu massivga yangi "lisp" kalitli 123456 qiymali yangi element qo’shish*/
unset($books[12]); // Bu 12-kalitli elementni massivdan o’chirish
unset ($books); // massivni butunlay o’chirish
?>
```

Bo’sh kvadrat qavsdan foydalanganda kalitning maksinial qiymati massivda mavjud oxirgi qayta indekslangan kalitlar orasidan qidiriladi. Massivni ***array_values***() funksiyasi yordamida ***qayta indekslash*** mumkin.

```
<?php
$arr =
 array ("a","b","c"); /* "a", "b" va "c" qiymatli massivni yaratamiz. Bu yerda kalit ko’rsatilmagan biroq mos ravishda ular 0,1,2 bo’ladi. */
print_r($arr); // massivni ekranga chiqaramiz (kaliti va qiymatini)
unset($arr[0]);
unset($arr[1]);
unset($arr[2]);
// massivdan hamma elementini o’chiramiz
print_r($arr);  // massivni ekranga chiqaramiz (kaliti va qiymatini)
$arr[] = "aa";   // massivga yangi element qo’shamiz. Uni indeksi(kaliti) 3 bo’ladi, 0 emas.
print_r($arr);
$arr = array_values($arr); // massivni qayta indekslaymiz.
$arr[] = "bb"; // bu elementni kaliti 1 bo’ladi.
print_r($arr);
?>
```

**Misol**. Massivni qayta indekslaymiz.

Bu skriptning natijasi quyidagicha bo’ladi:

```
Array ( [0] => a [1] => b [2] => c )
Array ( )
Array ( [3] => aa )
Array ( [0] => aa [1] => bb )
```

## 4-Amaliy mashg'ulot

**Mavzu:** SQL so'rovlar tili

**Ishning maqsadi**: PHP da ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni o'rganish

**Talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak:*** ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanishni va so'rovlar bilan ishlashni

***Qila olishi kerak:*** PHPda MySql bilan birga ishlash;

**SQL** tili ( **Structured Query Language** - strukturalashgan so'rovlar tili) sintaksisi juda oson. SQL tilida katta - kichik harflar farqlanlmaydi. Ya'ni Select operatorini SELECT, Select, select shakllarida yozish mumkin. Agar bir nechta operatordan foydalanilsa operator oxirida qo'yiladi. Faqat bitta operator ishlatilsa operator oxirida ; qo'yish shart emas. Izoh yozish ba'zi sistemalarda/* <IZOH> */ shaklida, ba'zi sistemalarda esa {<IZOH>}shaklida bo'ladi.

SQL so'rovlar tilidan deyarli barcha (MS SQL Server, MySQL, PostgreSQL, Oracle, Informix, Paradox. Interbase, FireBird) ma'lumotlar bazasida foydalanish mumkin. SQL so'rovlari ma'lumotlar bazasiga qarab qisman o'zgarishi mumkin.

**Select** tanlash operatori

**Select** operatorining umumiy ko'rinishi

**SELECT**<maydon nomlari ro'yhati> **FORM** <jadvallar> **WHERE** <izlash sharti>

**GROUP BY**<guruhlanishi lozim bo'lgan maydonlar>

**HAVING** <izlash sharti>

**ORDER BY** <maydon nomlari ro'yhati>;

Quyidagi maydonlarni o'zida saqlovchi namuna nomli jadval hosil qiling va uni Lesson sahifasiga saqlang.

| Field Name | Type | Size |
|---|---|---|
| ID | + | |
| Familiya | A | 20 |
| Ism | A | 20 |
| Otasi | A | 20 |
| Guruh | A | 5 |
| Tug_kun | D | |
| Tug_yil | S | |
| Jinsi | A | 5 |

1. Bu jadvaldan ma'lumot ko'rish quyidagicha bo'ladi.

**SELECT* FROM** namuna

2. **J**advaldagi ba'zi maydonlarni ko'rish uchun shu maydon nomlari ro'yhat selectdan keyin keltiriladi:

**SELECT** Familiya, Ism, Otasi **FROM** namuna

3. Familiya bo'yicha tartiblash

**Select** familiya, ism, otasi **From** namuna **OrderBy** Familiya, Ism

4. Tug'ilgan yili bo'yicha kamayib borish tartbida tartiblash

**Select** familiya, ism, otasi, tug_yili **FROM** namuna **OrderBy** tug_yil **DESC**

5. Select operatoridan keyin faqat maydon nomi emas, ixtyoriy arifmetik amai ( +, -, *,/) ishlatish mumkin. Misol uchun, yuqoridagi jadvaldagi tug'ilgan yilni joriy yildan ayirib, talabaning yoshini aniqlaymiz.

Select familiya, ism, otasi, (2015-tug_yil**)** **AS** Yoshi **FROM** namuna

6. Agar maydon nomini ruscha shriftda chiqarish talab etilsa quyidagicha so’rov yoziladi: (Maydon nomidan keyin **AS** xizmatchi so'zi bilan maydon sarlavhasi keltirilladi. Faqat "" harfida muammo bo'lishi mumkin)

**Select** familiya **AS** Фамилия, ism **A S Исм FROM** namuna

Where operatoridan keyin tanlash shartida mantiqiy amallar **AND, OR, NOT,** arifmetik amallar va munosabat amallari:

| | |
|---|---|
| = | Teng |
| > | tetta |
| >= | tetta yok teng |
| < | Kichik |
| <= | Kichik: Yoki teng |
| **!= yold <>** | Teng emas |
| **LIKE** | belgilar ketma - ketligi |
| **between ... and** | Qiymatlar oralig'i |
| *m* | Toplamga tegishlilikni aniqlash |

7. 1990 yildan keyin tug’ilganlar ro’yhatini chiqaramiz.

**Select** Familiya, Ism, Otasi, tug_yiI, (2015-tug_yil) **AS** yoshi **FROM** namuna

**Where** jinsi=”Ayol” **and** tug_yil> 1990

8. **Like** amali sintaksisi quyidagicha: <maydon> **LIKE** *<belgilar ketma - ketligi>"

Bu amal satrli maydonlar uchun qollaniladi va izlanayotgan ma’lumot topilsa true qiymat qaytaradi. Belgilar ketma - ketligini toliq kiritish Yoki belgisi bilan tugatish mumkin. Bu belgi ixtiyoriy belgilar ketma - ketligini bildiradi.

Misol:

**Select** familiya, ism, otasi

**FROM** namuna

**Where** Familiya **LIKE** "A%"

Amali "A" harfidan boshlanuvchi birinchi familiyalani bildiradi. ( Adambaev, Abdurahimov. Alimov, Azamov, Asqarov, Azizov,...)

**Select** familiya, ism, otasi **FROM** namuna

**Where** Familiya **LIKE** "Abdu%"

Amali *Abdu' harflaridan boshlanuvchi barcha familiyalarni bildiradi. (Abdurahimov, Abdug‘aniev, Abduqayumov, Abdullaev)

**Select** familiya, ism, otasi

**FROM** namuna

**Where** Ism **LIKE** "%im%"

Amali ketma – ketlikda “im” qismi bor bo’lgan ism borligini bildiradi. (Karimboy, Abdukarim, Rahimjon, Hakimboy, Salimjon,...)

9.**between ... and** amali sintaksisi quyidagicha:

<maydon> **between** <qiymat> **and** <qiymat>

1985 va 1990 yillar oraliglda tugllganlar ro"yhatini chiqarish

**Select** familiya, ism, otasi **FROM** namuna

**WHERE** tug_yiI **BETWEEN** 1985 AND 1990

10. IN amali sintaksisi quyidagicha: <maydon> IN (< to"plam >)

Maydondagi malumot qiymati, to’plam elementlariga tegishli bolganlarini chiqarib beradi. Masalan, ismi Azamat, Qudrat va Ne’mat bolgan talabalar haqidagi malumotlarni chiqarish talab etilsin:

SELECT * FROM namuna

WHERE Ism IN ("Azamat"," Qudrat"," Ne ■mat")

Tug’ilgan yili 1980,1982,1989 bo’lganlar ro’yxati esa quyidagicha:

SELECT familiya, ism, otasi, tug_yil FROM namuna

WHERE tug_yil IN (1980,1982,1989)

11. DISTINCT xizmatchi so’zi ko’rsatilgan maydon bo’yicha bir xil qiymatli malumotlardan faqat bittasini olishni bildiradi

SELECT DISTINCT familiya FROM namuna

12. **Count** ko’rsatilgan maydon boyicha, Yoki butun jadvaldagi yozuvlar sonini aniqlash uchun ishlatiladi

**Select count (*)** FROM namuna

95-99 guruhidagi talabalar sonini aniqlash:

**Select count** (*) as soni FROM namuna WHERE guruh =“95-99"

13. **min**(<maydon>), **max**(<maydon>), **avg**(<maydon>), **sum**(<maydon>) funksiyalari mos ravishda maydonning eng kichik qiymatini (min), eng katta qiymatini (max), o'rtacha qiymatini (avg) va yig’indisini (sum) aniqlaydi.

**Select min**(tug_yil), **max**(tug_yil), **avg**(2010-tug_yil) FROM namuna

14. Quyida yoshi eng katta bo’lgan talabani aniqlovchi so'rov keltirilgan

**Select** familiya, ism, tug_yil FROM namuna

WHE RE tug_yi l=**(select min**(tug_yi I) FROM na muna)

15. Guruhg agi talabalar sonini aniq lovchi so "rov

**Select** guruh. count(guruh) **as** soni **From** namuna **Group by** guruh

16. **Having** bo'limi. group by bo'limi bo'lgan hollarda ishlatiladi. **Having** ning ishlatilishi deyarli **Where** bilan bir xil. Faqat having bo'limidagi so'rov butun jadvallarga emas. **where** bo'limi orqali olingan natijaga yoziladi.

Quyida birdan ortiq takrorlanuvchi familiyalar va ularning takrorlanishlar sonini chiqaruvchi so’rov keltirilgan.

**select** familiya. count(familiya) **as** soni
**from** namuna
**group by** familiya
**having count**(familiya) ***>=2***

Jadvalga yangi yozuv qo’shish **INSERT** operatori orqali amalgani oshiriladi

**INSERT INTO** <jadval nomi> (<maydonlar ro’yhati>) **VALUES** (<qiymatlar ro’yhati>)

Namuna:

**INSERT INTO** namuna (familiya, ism) **VALUES** ["Abdurahimov", "Ne'mat")

Mavjud yozuvni tahrirlash (qiymatini yangilash) **Update** operatori orqali amalga oshiriladi:

**UPDATE** <jadval nomi> **SET** <maydon>=<qiymat> **WHERE** <shart>

Namuna: Abdurahimov Ne'matning tug’ilgan yilini 1989 ga o’zgartirish

**Update** namuna **SET** tug_yil=1989
**WHERE** familiya ="Abdurahimov" **AND** ism=”Nemat"

Yozuvni o’chirish quyidagicha amalga oshiriladi:

**DELETE FROM** <jadvalnomi> **WHERE** <shart>

**DELETE FROM** namuna **WHERE** familiya=”Abdurahimov"

Bu so'rov orqali, familiyasi "Abdurahimov" bo'lgan barcha ma'lumotlar o'chiriladi.

**MySQL ma'lumotlar bazasi**

PHP dasturchilari orasida eng mashhur ma'lumotlar bazasi MySQLdir. **MySQL nima?**

MySQLwebda ishlatiladigan ma'lumotlar bazasi.
MySQL ma'lumotlar bazasi serverda ishlaydi.
MySQL ni kichik va katta loyihalar uchun ham qo'llash mumkin.
MySQL tez, ishonchli va foydalanishga qulay.
MySQL da standart SQL so'rovlar tili ishlatiladi.
MySQL foydalanish va yuklab olish uchun tekin.
MySQL Oracle Corporation tomonidan ishlab chiqilgan.

## 5-Amaliy mashg'ulot

Mavzu: **MySQL da ma'lumot turlari**

**Ishning maqsadi**: PHP da ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni o'rganish

**Talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak:*** ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanishni va so'rovlar bilan ishlashni

***Qila olishi kerak:*** PHPda MySql bilan birga ishlash;

MySQL da 3 ta asosiy turlar mavjud. Ularni atn (text) son [number), va sana/vaqt (Date/Time) turlaridir. In MySQL there are three main types: text, nurrtoer, and Datemme types.

### Matnli turlar (Text):

| Data type | Tavsifi |
|---|---|
| CHAR(size) | Aniq o'lchamdagi satrni saqlash uchun ishlatiladi. Bunda harf, son va maxsus belgilar bo'lishi mumkin. Satr o'lchami qavs ichida beriladi. 255 ta belgini saqlash mumkin. |
| VARCHAR(size) | Satrli ma'lumotlarni saqlash uchun ishlatiladi. Bunda harf, son va maxsus belgilar bo'lishi mumkin. Satr o'lchami qavs ichida beriladi. 255 dan katta son yozilsa toifa TEXT toifasiga o'zgarib ketadi. |
| TINYTEXT | Ko'pi bilan 255 ta belgili satrni saqlash uchun ishlatiladi. |
| TEXT | Ko'pi bilan 65,535 ta belgili satrni saqlash uchun ishlatiladi. |
| BLOB | (Binary Large Objects). Katta binar ob'ektlarni saqlash uchun ishlatiladi. Maksimal 65,535 bayt bo'lishi mumkin. |
| MEDIUMTEXT | Ko'pi bilan 6,777,215 ta belgili satrni saqlash uchun ishlatiladi. |
| MEDIUMBLOB | (Binary Large Objects). Binar ob'ektlarni saqlash uchun ishlatiladi. Maksimal 16,777,2 bayt bo'lishi mumkin. |
| LONGTEXT | Ko'pi bilan 4,294,967,295 ta belgili satrni saqlash uchun ishlatiladi. |
| LONGBLOB | (Binary Large Objects). Binar ob'ektlarni saqlash uchun ishlatiladi. Maksimal 4,294,967,295 bayt bo'lishi mumkin. |
| ENUM(x,y,z,etc.) | O'zingiz maydon qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar ro'yxatini kiritasiz. 65535 ta qiymat kiritishingiz mumkin. Agar maydonga kiritilgan qiymat siz ko'rsatgan ro'yxatda bo'lmasa, bo'sh qiymat qo'shiladi. Ro'yxatni quyidagi shaklda kiritishingiz mumkin: ENUM('X','Y','Z') |
| SET | ENUM ga o'xshash. Farqi 64 ta element bo'lishi mumkin. |

## Son turlari (Number types):

| Data type | Tavsifi |
|---|---|
| TINYINT(size) | Odatda -128 dan 127 gacha. UNSIGNED* bo'lsa, 0 - 255. Raqamlarning maksimal sonini qavs ichida berish mumkin. |
| SMALLINT(size) | Odatda -32768 dan 32767 gacha. UNSIGNED* bo'lsa 0 - 65535 . Raqamlarning maksimal sonini qavs ichida berish mumkin. |
| MEDIUMINT(size) | Odatda -8388608 dan 8388607 gacha. UNSIGNED* bo'lsa 0 - 16777215. Raqamlarnin maksimal sonini qavs ichida berish mumkin. |
| INT(size) | Odatda -2147483648 dan 2147483647 gacha. UNSIGNED* bo'lsa 0 - 4294967295. Raqamlarning maksimal sonini qavs ichida berish mumkin. |
| BIGINT(size) | Odatda -9223372036854775808 dan 9223372036854775807 gacha. UNSIGNED* bo'l 0 - 18446744073709551615. Raqamlarning maksimal sonini qavs ichida berish mumkin |
| FLOAT(size,d) | Kichik haqiqiy son. Raqamlaming maksimal soni size parametrida berishilishi mumkin. Verguldan keyingi xonalar soni d parametrida beriladi. |
| DOUBLE(size,d) | Katta haqiqiy son. Raqamlarning maksimal soni size parametrida berishilishi mumkin. Verguldan keyingi xonalar soni d parametrida beriladi. |
| DECIMAL(size,d) | Juda katta haqiqiy sonlar satr ko'rinishida saqlanadi. Raqamlarning maksimal soni size parametrida beriladi. Verguldan keyingi xonalar soni d parametrida beriladi. |

* Butun sonlar UNSIGNED nomli qo'shimcha xususiyatga ega. Odatda butun sonlar manfiy va musbat bo'ladi. UNSIGNED xususiyati qo'shilishi orqali noldan boshlanadi va qabul qilishi mumkin bo'lgan oraliq suriladi.

## Sana turlari (Date types):

| Data type | Tasnifi |
|---|---|
| DATE() | YYYY-MM-DD formatidagi sana. '1000-01-01' dan '9999-12-31' gacha oraliqda qiymat qabul qiladi |
| DATETIME() | YYYY-MM-DD HH:MI:SS formatidagi sana va vaqt birligi. '1000-01-01 00:00:00' dan '9999-12-31 23:59:59' gacha oraliqda qiymat qab qiladi |
| TIMESTAMP() | *TIMESTAMP qiymati sekundlarda saqlaniladi. ('1970-01-01 00:00:00' UTC). Formati YYYY-MM-DD HH:MI:SS **Eslatma:**'1970-01-01 00:00:01' UTC dan '2038-01-09 03:14:07' UTC gacl oraliqda qiymat qabul qiladi. |
| TIME() | Vaqt. Formati: HH:MI:SS **Eslatma:** '-838:59:59' dan '838:59:59' gacha oraliqda qiymat qabul qiladi |
| YEAR() | Yil. Ikki yoki to'rt xonali raqamdan iborat bo'ladi. **Eslatma:** 4 xonali: 1901 , 2155. Ikki xonali: 70 dan 69, 1970 dan 2069 gacl oraliqda |

* DATETIME va TIMESTAMP bir xil formatli bo'lsada, har xil ishlaydi. INSERT yoki UPDATE so'rovlarida TIMESTAMP avtomat ravishda joriy sana va vaqtni qo'shadi.TIMESTAMP da yana YYYYMMDDHHMISS, YYMMDDHHMISS, YYYYMMDD, yoki YYMMDD formatlarini qo'llash mumkin.

**6-Amaliy mashg'ulot**

**Mavzu** MySQL ga ma'lumot qo'shishni **rejalashtirish**

**Ishning maqsadi**: PHP da ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni o'rganish

**Talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak:*** ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanishni va so'rovlar bilan ishlashni

***Qila olishi kerak:*** PHPda MySql bilan birga ishlash;

## NAZARIY BO'LIM

MySQL ga ma'lumot qo'shishni rejalashtrish SQL injectionlarga qarshi juda foydali uslubdir.

MySQL ga ma'lumot qo'shishni rejalasrflnsh jumlasining ma'nosi quyidagicha. Dastlab SQL so'rov yoziladi. Bunda qiymatlar o'rniga "?" belgi si qoyiladi. Masalan, INSERT INTO MyGuests VALUES (?, ?, ?). Keyin shu SQL so'rovi shabloni asosida istalgancha ma'lumot qo'shish mumkin. Bunda taqat parametrlar yuboriladi.

**MySQL ga ma'lumot qo'shishni rejalashtirish**

```
<?php
        $dbhost  = 'localhost';    // o'zgartirish shart emas
        $dbname  = 'mydb';              // Ma'lumotlar bazasi nomi
        $dbuser  = 'root';              // user nomi
        $dbpass  = '';                  // parol

        // server bilan aloqa o'rnatish
        $connection = new mysqli($dbhost, $dbuser, $dbpass, $dbname);

        if ($connection->connect_error) {
           die("MySQLga ulanishda xatolik sodir bo`ldi: ".
                $connection->connect_error);
        }
        else
                echo "MySQL bilan aloqa o`rnatildi<br>";

        // ma'lumot qo'shishni rejalashtirish
        $tmp = $connection->prepare("INSERT INTO MyGuests (firstname,
lastname, email) VALUES (?, ?, ?)");
        $tmp->bind_param("sss", $firstname, $lastname, $email);

        // parametrlarni o'rnatish va ishga tushirish
        $firstname = "John";
        $lastname = "Doe";
        $email = "john@example.com";
```

```
$tmp->execute();

$firstname = "Mary";
$lastname = "Moe";
$email = "mary@example.com";
$tmp->execute();

$firstname = "Julie";
$lastname = "Dooley";
$email = "julie@example.com";
$tmp->execute();

echo "Yangi ma'lumotlar qo'shildi";

$tmp->close();
// aloqani uzish
$connection->close();

?>
```

*Bu quyidagicha tushuntiriladi.*

**"INSERT INTO MyGuests (firstname, lastrame, email) VALUES (?, ?)"**

SQL so'rovicla qiymatlar o'miga "?" belgisini qo'yamiz. Bu belgi o'rnida butun Yoki haqiqiy son, satr Yoki blob qiymat bo'lishi mumkin. bind_param() funksiyasida qanday qiymat qo'shmoqchi bolsa shunga mos bo'lgan tur tanlaniladi.

1. i-integer
2. d-double
3. s - string
4. b-BLOB

Yuqoridagi misol uchun quyidagicha bo'ladi. $tmp->bind_param{"sss", ffirstname, flastnamej Jemail);

5. C hunki biz 3 ta satrii qiymat qo'shyapm iz. S huning uchun "sss" yozi Id i. Agar emai I o'mi ga tug'i Igan yili yozilishi lozim bo'lganida "ssi" yozilar edi. Chunki tug'ilgan yil butun sondan iborat bo'ladi.
6. S hunday qi li b biz S QL injecti on tahd idi ni ka mayti ram iz.
7. Eslatma: Ma'lumotlar bazasiga tashqaridan (masalan foydalanuvchilartian) nimadir qo'shish lozim bolsa, uni albatta tekshirish va tozalash lozim bo'ladi.

Ushbu bo’lim PHP va MySql MBBS (SUBD) o’rtasidagi hamkorlik usullari bilan tanishishga mo’ljallangan. Asosiy e’tibor ma’lumotlar bazasi bilan

bog'lanishni o'rnatish, so'rovlar jo'natish funksiyalari va javoblarni (mysql_connect, mysql_query, mysql_result, mysql_num_rows, mysql_close) qayta ishlashga qaratiladi. Misol sifatida virtual tarix muzeyi ma'lumotlar bazasining ma'muriyati uchun web-interfeys tuzish masalasini ko'raylik. PHP distributiviga MySQL ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun mo'ljallangan funksiyalarni oluvchi kengaytma kiradi. Bu bo'limda MySQL bilan ishlash uchun ba'zi bir ma'lumotlar bazasini tasvirlash va to'ldirish maqsadida web-interfeyslarni tuzish topshirig'ini yechish uchun kerak bo'ladigan asosiy funksiyalar bilan tanishamiz. Savol tug'iladi: bunday interfeyslarni tuzish nega kerak? SQL so'rovlar tili bilan notanish odamlar ma'lumotni ma'lumotlar bazasiga kiritish va uning tarkibini ko'rib turish imkoniyati bo'lishi uchun shunday qilinadi. Ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni qo'shish uchun web-interfeys bilan ishlashda bu ma'lumotlarni shunchaki html-formaga kiritish va ularni serverga jo'natish kerak bo'ladi, bizning skript esa qolgan barcha amallarni bajaradi. Jadval tarkibini ko'rib turish uchun havola ustiga bir marta bosish va kerakli sahifaga kirish kifoya.

Ko'rinib turishi uchun bu interfeyslarni virtual muzey eksponatlari haqidagi ma'lumotlar joylanadigan Artifacts jadvallari uchun tuzamiz. Avvalgi bo'limda bu kolleksiyaga strukturani hamda uning shaxs (Persons) va tasvirlar (Images) tavsiflari kolleksiyalari bilan aloqasini kiritgan edik. Artifacts kolleksiyasidagi har bir eksponat quyidagi xarakteristika yordamida tasvirlanishini eslatib o'tamiz:

nom (title);
muallif (author);
ifoda (description);
o'rindosh nom (alternative);
tasvir (photo).

Nomlanish va o'rindosh nomlanish uzunasiga 255 belgidan kam satr (ya'ni VARCHAR(255)), tasvirlash – matnli maydon (TEXT turiga mansub) hisoblanadi, "muallif" va "tasvir" maydonlarida esa Persons kolleksiyasidan muallifning identifikatorlari va Images kolleksiyasidan eksponat tasvirlariga muvofiq mavjud bo'ladi.

## Ma'lumotni qo'shish uchun interfeys tuzish

Demak, bizda ma'lumotlar bazasida biron-bir jadval bor. Bu jadvalga ma'lumotni qo'shishga mo'ljallangan interfeys tuzish uchun uning strukturasini (ya'ni uning maydonlari jamlanmasini) html-formada tasvirlash kerak bo'ladi.

Bu topshiriqni quyidagi tarkibiy topshiriqlarga bo'lib chiqamiz:

- MB bilan ulanishni o'rnatish;
- MB ishini tanlash;
- Jadval maydonlari ro'yxatini olish;
- html-formada maydonlarni tasvirlash.

Bundan keyin formaga kiritilgan ma'lumotlarni ma'lumotlar bazasiga kiritish kerak bo'ladi.

Bu topshiriqlarning barchasini tartib bilan ko'rib chiqamiz.

### Aloqa o'rnatish

Demak, birinchi galdagi vazifa – bu ma’lumotlar bazasi bilan aloqa o’rnatish. **mysql_connect** funksiyasidan foydalanamiz. mysql_connect sintaksisi

mysql_connect resursi ([server qatori[, username qatori[, password qatori[, mantiqiy **new_link**[, butun client_flags]]]]])

Bu funksiya **MySQL** serveri bilan aloqa o’rnatadi va bu aloqaga ko’rsatkich qaytaradi Yoki muvaffaqiyatsiz chiqqanda FALSE ko’rsatadi. Yetishmayotgan parametrlar uchun quyidagi ma’nolar muvaqqat qo’yiladi:

**server** = 'localhost:3306'

**username** = server jarayoni egasidan foydalanuvchi ismi

**password** = bo’sh parol

Agar funksiya aynan bir xil parametrlar bilan ikki marta chaqiriladigan bo’lsa, yangi ulanish o’rnatilmaydi, aksincha havola eski aloqaga qaytariladi. Bundan qochish uchun esa, har qanday holatda yangi bir aloqa ochishga majbur qiluvchi new_link parametridan foydalaniladi.

client_flags parametri – bu quyidagi konstantalar kombinasiyasi:

**MYSQL_CLIENT_COMPRESS** (siqish protokolidan foydalaniladi),
**MYSQL_CLIENT_IGNORE_SPACE**

(funksiya nomidan so’ng probel qo’yishga ruxsat beradi),

**MYSQL_CLIENT_INTERACTIVE** (interactive_timeout bir soniya kutish - wait_timeout – ulanish tugatilishigacha). new_link parametri PHP 4.2.0 da mavjud, client_flags esa – PHP 4.3.0 da.

Server bilan ulanish, agar u bungacha mysql_close() yordamida yopilmagan bo’lsa, skriptni amalga oshirish tugallanishida berkiladi.

SHunday qilib, “123” parolli nina foydalanuvchisi uchun lokal serverda ma’lumotlar bazasi bilan ulanishni o’rnatamiz.

```
<?
$conn = mysql_connect(
   "localhost", "nina","123")
or die("Ulanishni amalga oshirib bo’lmaydi: ". mysql_error());
echo "Ulanish amalga oshdi";
mysql_close($conn);
?>
```

mysql_connect amali

shell>mysql -u nina -p123 buyrug’i bilan teng kuchli.

**Ma’lumotlar bazalarini tanlash**

Ulanishni amalga oshirgandan so’ng birga ishlashiniiz kerak bo’lgan ma’lumotlar bazasini tanlashiniiz kerak bo’ladi. Bizning ma’lumotlarimiz book ma’lumotlar bazasida saqlanadi.

MySQL da ma’lumotlar bazasini tanlash use buyrug’i yordamida amalga oshiriladi:

```
mysql>use book;
```

PHP da buning uchun mysql_select_db funksiyasi mavjud

mysql_select_db: sintaksisi

```
mantiqiy mysql_select_db (
   database_name qatori
   [,link_identifier resursi])
```

Bu funksiya TRUE qiymatni ma’lumotlar bazasini muvaffaqiyatli tanlanganda qaytaradi va FALSE ni esa – aksincha bo’lganda.

Book ma’lumotlar bazasini ishga tushiramiz:

```
<?
$conn = mysql_connect(
   "localhost","nina","123")
or die("Ulanishni amalga oshirib bo’lmaydi: ". mysql_error());
echo "Ulanish amalga oshdi";
mysql_select_db("book");
?>
```

**Jadval maydonlari ro’yxatini olish**

Endi topshiriqni yechish bilan alohida shug’ullansa bo’ladi. Jadval maydonlari ro’yxatini qanday olish mumkin? Juda oddiy. PHP da bu holda ham o’ziga tegishli buyruq mavjud - mysql_list_fields.

mysql_list_fields sintaksisi

```
mysql_list_fields ( resursi
database_name qatori,
table_name  qatori
[, resurs link_identifier])
```

Bu funksiya maydonlar ro’yxatini database_name ma’lumotlar bazasidagi table_name jadvaliga qaytaradi. Kelib chiqadiki, ma’lumotlar bazasini tanlash bizga majburiy emas, lekin keyinroq asqotadi. Bu funksiya ishining natijasini – resurs tipi o’zgaruvchisini qanday baholash mumkin. Ya’ni bu biz olishni xohlagan narsa emas. Bu ularning nomlari, tiplari va bayroqlari kiradigan jadval maydonlari haqidagi ma’lumotlarni olish uchun foydalanish mumkin bo’lgan havola. mysql_field_name funksiyasi so’rov amalga oshirilishi natijasida olingan maydon nomini qaytaradi. mysql_field_len funksiyasi maydon uzunligini qaytaradi. mysql_field_type funksiyasi maydon tipini qaytaradi, mysql_field_flags funksiyasi esa probel bilan yozilgan maydon bayroqlari ro’yxatini qaytaradi. Maydon tiplari int, real, string, blob va b. bo’lishi mumkin. Bayroqlar not_null, primary_key, unique_key, blob, auto_increment va b. bo’lishi mumkin.

Bu barcha buyruqlar sintaksisi bir xil:

**mysql_field_name** (result qatori, butun field_offset) resursi;

**mysql_field_type** (result qatori, butun field_offset) resursi;

**mysql_field_flags** (result qatori, butun field_offset) resursi;

**mysql_field_len** ( result qatori, butun field_offset)

Bu yerda result – bu so'rov natijasi identifikatori (masalan, mysql_list_fields Yoki mysql_query funksiyalar bilan jo'natilgan so'rov(bu haqda keyinroq gapirib o'tiladi)), field_offset esa – natijadagi maydonning tartib raqami. Umuman olganda, mysql_list_fields Yoki mysql_query turidagi funksiyalarni qaytaruvchi jadvalni, aniqrog'i uning unga bo'lgan ko'rsatkichini aks ettiradi. Bu jadvallardan aniq ma'nolar olish uchun maxsus bu jadvalni ostki qator sifatida o'quvchi funksiyalarni ishga tushirish kerak. Bu funksiyalarga mysql_field_name va shu kabilar ham kiradi. So'rovni amalga oshirish natijasi jadvalidagi barcha qatorlarni saralash uchun bu jadvaldagi qatorlar miqdorini bilish kerak.

mysql_num_rows(result resursi) buyrug'i result ning ko'pgina natijalari qatorlari miqdorini qaytaradi.

Endi esa Artifacts (eksponatlar kolleksiyasi) jadvali maydonlari ro'yxatini olishga urinib ko'ramiz.

```
<?
$conn = mysql_connect(
   "localhost","nina","123")
or die("Aloqa o'rnatib bo'lmaydi: ". mysql_error());
echo "Aloqa o'rnatildi";
mysql_select_db("book");
$list_f = mysql_list_fields (
  "book","Artifacts",$conn);
  $n = mysql_num_fields($list_f);
for($i=0;$i<$n; $i++){
  $type = mysql_field_type($list_f, $i);
  $name_f = mysql_field_name($list_f,$i);
  $len = mysql_field_len($list_f, $i);
  $flags_str =  mysql_field_flags (
  $list_f, $i);
echo "<br>Maydon nomi: ". $name_f;
echo "<br>Maydon turi: ". $type;
echo "<br>Maydon uzunligi: ". $len;
echo "<br>Maydon bayroqlari qatori: ".
   $flags_str . "<hr>";
}
?>
```

Natija sifatida taxminan quyidagilarni olish mumkin (albatta, jadvalda ikkita maydon bo'lganda):

- Maydon nomi: id
- Maydon turi: int
- Maydon uzunligi: 11
- Maydon bayroqlari qatori:

- not_null primary_key auto_increment
- Maydon nomi: title
- Maydon turi: string
- Maydon uzunligi: 255
- Maydon bayroqlari qatori:

**html-formada maydonlar ro'yxatining aks etishi**

Endi biroz yuqoridagi misolni tekshirib ko'ramiz. Maydon haqidagi ma'lumotni shunchaki chiqarmaymiz, uni munosib html-forma elementida aks ettiramiz. BLOB turidagi elementlarni textarea ga o'tkazamiz (TEXT turida biz tuzgan description maydoni BLOB turiga ega ekanligini e'tibordan qochirmaymiz), raqamlar va qatorlarni <input type=text> kirish qismi matnli qatorlarida aks ettiramiz, avtoinkrement belgisiga ega elementni esa umuman aks ettirmaymiz, chunki uning ma'nosi o'z-o'zidan o'rnatiladi.

Bularning barchasi anchayin oddiy hal qilinadi, bayroqlar ro'yxatidaig auto_increment bayrog'i bundan mustasno. Buning uchun explode funksiyasidan foydalaniladi:

- explode: sintaksisi
- explode massivi (separator qatori,
- string qatori [, int limit])

Bu funksiya string qatorini separator taqsinilagichi yordamida qismlarga bo'ladi va olingan qatorlar massivini qaytaradi.

Bizning holatda taqsinilagich sifatida probel " " ni olish kera, bo'lish uchun boshlang'ich qator sifatida esa – maydon bayroqlari qatorini.

SHunday qilib, ma'lumotlarni Artifacts jadvaliga kiritish uchun forma tuzamiz:

**Misol**. Artifacts jadvaliga ma'lumot kiritish uchun forma

```
<?
$conn=mysql_connect("localhost","nina","123");
        // aloqa o'rnatamiz
$database = "book";
$table_name = "Artifacts";
mysql_select_db($database); // ish uchun
        // ma'lumotlar bazasi tanlaymiz
$list_f = mysql_list_fields($database,$table_name);
 // bazadan maydonlar ro'yxatini olarniz
$n = mysql_num_fields($list_f); // avvalgi so'rovdagi natijadagi qatorlar soni (Artifacts jadvalida ja'mi qancha maydonlar bor)
echo "<form method=post action=insert.php>";
// ma'lumotlarni kiritish uchun forma tuzamiz
echo " <TABLE BORDER=0 CELLSPACING=0 width=50% ><tr>
   <TD  BGCOLOR='#005533' align=center><font color='#FFFFFF'>
   <b> Add new row in $table_name</b></font></td></tr><tr><td></td></tr></TABLE>";
```

```
echo "<table border=0 CELLSPACING=1 cellpadding=0 width=50% >";
// har bir maydon uchun uning nomi, turi, uzunligi va bayrog'ini olarniz
for($i=0;$i<$n; $i++)
{    $type = mysql_field_type($list_f, $i);
    $name_f = mysql_field_name ($list_f,$i);
    $len = mysql_field_len($list_f, $i);
    $flags_str = mysql_field_flags ($list_f, $i);
    // bayroqlar qatoridan massiv qilarniz,
    // unda massivning har bir elementi – maydon bayrog'i
    $flags = explode(" ", $flags_str);
    foreach ($flags as $f){
        if ($f == 'auto_increment') $key = $name_f;
            // avtoinkrement nomini eslatib o'tamiz
    }
/* avtoinkrement hisoblangan har bir maydon uchun, uning turidan kelib chiqib mos keluvchi forma elementini chiqaramiz*/
if ($key <> $name_f){
echo "<tr><td align=right bgcolor='#C2E3B6'><font size=2>
        <b> ". $name_f ."</b></font></td>";
switch ($type){
        case "string":
            $w = $len/5;
            echo "<td><input type=text name=\"$name_f\"
                size = $w ></td>";
        break;
        case "int":
            $w =  $len/4;
            echo "<td><input type=text name=\"$name_f\"
                size = $w ></td>";
        break;
        case "blob":
            echo "<td><textarea rows=6 cols=60 name=\"$name_f\"></textarea></td>";
        break;
        }
    }
    echo "</tr>";
}
echo "</table>";
echo "<input type=submit name='add' value='Add'>";
echo "</form>";
?>
```

## Ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlar yozish

SHunday qilib forma tuzildi. Endi eng asosiysini bajarish qoldi – bu formadagi ma'lumotlarni bizning ma'lumotlar bazasiga jo'natish. Ma'lumki,

ma’lumotlarni jadvalga yozish uchun SQL tilidagi INSERT buyrug’i ishlatiladi. Masalan:

```
mysql> INSERT INTO Artifacts SET title='Kamolov';
```

PHP skriptda bunday buyruqdan (Yoki SQL dagi istalgan buyruqdan) qanday foydalaniladi, degan savol tug’iladi. Buning uchun mysql_query() funksiyasi mavjud.

***mysql_query*** sintaksisi

***mysql_query*** resursi (query qatori
   [, resurs link_identifier])

mysql_query() SQL-so’rovni MySQL ma’lumotlar bazasining link_identifier ko’rsatkichi yordamida aniqlanadigan aktiv ma’lumotlar bazasiga jo’natadi (bu MySQL serveri bilan biron-bir aloqaga havola). Agar link_identifier parametri o’tkazib yuborilgan bo’lsa, so’nggi ochiq aloqa ishlatiladi. Agar ochiq aloqa bo’lmasa, funksiya parametrsiz mysql_connect() funksiyasiga o’xshash holda MBBT (SUBD) bilan bog’lanishga urinadi.

So’rov natijasi buferlanadi.

## Object (obyektlar) tipi

***Obyektlar*** – obyektga yo’naltirilgan dasturlashdan kirib kelgan *ma’lumot tipi*dir. Obyektga yo’naltirilgan dasturlash tamoyiliga ko’ra, sinf – aniq xossalarga ega va ular bilan ishlaydigan metodli obyektlar to’plarni. Obyekt esa mos ravishda sinf nusxasidir. Masalan, dasturchilar – bu dasturni tuzuvchi, kompyuter adabiyotlarini o’rganadigan odamlar sinfi va bundan tashqari hamma odamlar qatori ism va familiyasi mavjud. Endi agarda biror aniq dasturchi – Azamat Boboyevni olsak, u holda uni shu xossaga ega bo’lgan dasturchi sinfini obyekti sifatida qarash mumkin va u ham dastur tuzadi, hamda ismi mavjud va boshqalar.

*PHP* dasturlash tilida *obyekt metodi*ga murojaat -> *amali*dan foydalaniladi. Obyektni inisializasiya qilishda *obyektni o’zgaruvchan nusxasi*ni yaratadigan new ifodasidan foydalaniladi.

**Misol**. PHP dasturlash tilida obyektlar.

```
<?php
class Person {      // PHP dasturlash tilini o’rganadigan odam metodi
   function know_php()
      {
         echo "Endi men PHP dasturlash tilini bilaman!";
      }
}
$bob = new Person; // odam sinfini obyektini yaratamiz.
$bob -> know_php(); // uni PHP tiliga o’rgatamiz.
?>
```

## Resource (resurslar) tipi

***Resurs*** – bu tashqi resursga (masalan, ma’lumotlar bazasi bilan bog’lanish) ссылка orqali bog’langan maxsus o’zgaruvchidir. Resurslar maxsus funksiyalar

(masalan, mysql_connect(), pdf_new() va shunga o'xshashlar) yordamida yaratiladi va foydalaniladi.

**Null tipi**

Maxsus *NULL* qiymati *o'zgaruvchi*ni qiymatga ega emasligi haqida ogohlantiradi.

*O'zgaruvchi NULL* qiymat qabul qiladi, agarda:

- unga *o'zgarmas NULL* ($var = NULL) o'zlashtirilgan bo'lsa;
- unga hyech qanday qiymat berilmagan bo'lsa;
- u *unset*()funksiya yordamida tozalangan bo'lsa.

*NULL tip*li faqat bitta qiymati mavjud – registrga sezgirligi kichik NULL kalit so'zidir.

**Masalaning yechilishi**

Endi bo'limning boshida qo'yilgan masalaga qaytsak. U turli sabablar bo'yicha har xil odamlarga tuzilgan maktubni jo'natishdan iborat edi. Bu masalani hal etish uchun o'rganilgan vositalardan – *o'zgaruvchilar*, *amallar*, *o'zgarmaslar*, *satrlar* va *massivlar*dan foydalanishga harakat qilarniz. Ko'rsatilgan maktub qabul qiluvchiga bog'liq ravishda murojaat va holati o'zgaradi, shuning uchun tabiiy ravishda bu kattalikni *o'zgaruvchi* deb belgilaymiz. Bundan tashqari hodisalar va odamlar ko'p, shuning uchun *massiv o'zgaruvchi tipi*dan foydalanish qulay. Maktub matni har doim o'zgarmas, shuning uchun uni *o'zgarmas* deb berish maqsadga muvofiqdir. Juda uzun va qo'pol satrlarni yozmaslik uchun satrlar *konkatenasiya*(qo'shish) amalidan foydalanamiz. SHunday qilib, quyidagiga ega bo'larniz:

```
<?
// bizning yozuvimiz o'zgarmas bo'lsin.
define("SIGN","Hurmat bilan, Azamat");
// odamlar va hodisalar massivini beramiz
$names = array("Ivan Ivanovich",
               "Petr Petrovich",
               "Semen Semenovich");
$events = array(
   "f" => "ochiq eshiklar kuni",
   "o" => "ko'rgazmaning ochilishi",
   "p" => "bitiruvchilar bali");

// taklifnoma matnini tuzamiz.
$str = "Hurmatli, $names[0]";
$str .= "<br> Sizni taklif etamiz ".
$events["f"];
$str .= "<br>" . SIGN;
echo $str; // matnni ekranga chiqaramiz.
?>
```

**7-Amaliy mashg'ulot**

**Mavzu**: **MySQL ga bir nechta ma'lumot qo'shish**

**Ishning maqsadi**: PHP da ma'lumotlar bazasi bilan ishlashni o'rganish

**Talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak:*** PHP da bir MySQL ma'lmotlar bazasiga necha ma'lumotlarni qo'shishni o'rganish

***Qila olishi kerak:*** PHPda MySql bilan birga ishlash;

Quyidagi tartbda MySQL ga bir nechta malumori qo'shishimiz mumkin. Video ma'ruzada batafsil to'xtalamiz.

### MySQL ga bir nechta ma'lumot qo'shish

```
<?php
	$dbhost  = 'localhost';    // o'zgartirish shart emas
	$dbname  = 'mydb';               // Ma'lumotlar bazasi nomi
	$dbuser  = 'root';               // user nomi
	$dbpass  = '';                   // parol

	// server bilan aloqa o'rnatish
	$connection = new mysqli($dbhost, $dbuser, $dbpass, $dbname);

	if ($connection->connect_error) {
	   die("MySQLga ulanishda xatolik sodir bo`ldi: ".
	        $connection->connect_error);
	}
	else
	        echo "MySQL bilan aloqa o`rnatildi<br>";

	// MyGuests jadvaliga ma'lumot qo'shish
	$sorov = "INSERT INTO MyGuests (firstname, lastname, email)
	                VALUES ('John', 'Doe', 'john@example.com');";
	$sorov .= "INSERT INTO MyGuests (firstname, lastname, email)
	                VALUES ('Mary', 'Moe', 'mary@example.com');";
	$sorov .= "INSERT INTO MyGuests (firstname, lastname, email)
	                VALUES ('Julie', 'Dooley', 'julie@example.com')";

	if ($connection->multi_query($sorov) === TRUE) {
	        $last_id = $connection->insert_id;
	   echo "MyGuests jadvaliga ma`lumotlar qo`shildi.";
	} else {
	   echo "Jadvalga ma`lumotlarni qo`shishda xatolik: " .
	   $conn->error;
```

```
    }
    // aloqani uzish
    $connection->close();

?>
```

## 2.3. LABORATORIYa MASHG'ULOTLARI MATERIALLARI
### 1-Laboratoriya ishi

**Mavzu: Shart operatori**

### NAZARIY BO'LIM

**Ishning maqsadi**: PHP da shart operatorlarini o'rganish va qo'llash
**Ishning natijasida talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:
***Bilishi kerak*** – PHP da shart operatorlarini, yani if, else, elseif;

**Shart operatori shakllari**

1. if (mantiqiy ifoda) - shart operatorining bu ko'rinishi mantiqiy ifoda rost bo'lgan holda qandaydir kod bajarilishi uchun ishlatiladi
2. if (mantiqiy ifoda) ... else - shart operatorining bu ko'rinishida mantiqiy ifoda rost bo'lsa bir kod yolg'on bo'lganida boshqa bir kod bajarilishi uchun ishltiladi
3. if (mantiqiy ifoda) ... elseif mantiqiy ifoda) else - shart operatorining bu ko'rinishida oldingi shart yolg'on bo'lganda keyingi shart tekshiriladi, va hokazo.

**if operatoriga misol**

```
<?php
	$a = 5;
	$b = 3;
	$c = 4;

	if ($a < $b + $c &&
		$b < $a + $c &&
		$c < $b + $a)
	{
		echo "Uchburchak qurish mumkin";
	} else {
		echo "Uchburchak qurish mumkin EMAS";
	}
```

**If shartli operatorga misollar**

```
<?php
	$baho = 5;

	if ($baho == 5){
		echo 'Besh baho';
	}

 ?>
```

**Bror sonning juft toqligini aniqlash**

```php
<?php

	$a = 11; // ixtiyoriy butun son yozish mumkin

	if ($a % 2 == 0)
	{
		echo $a." juft son";
	}
	else
	{
		echo $a." toq son";
	}
?>
<?php
	$a = 5;
	$b = 0;

	if ($a % 2 == 0 &&
		$a == 0 &&
		$b % 2 == 0 &&
		$b == 0) {
		echo "Har ikkalasi ham juft";
	} elseif ($a % 2 != 0 &&
			$b % 2 != 0)
	{
		echo "Har ikkalasi ham toq";
	} elseif ($a % 2 == 1 ||
			$b % 2 == 1)
	{
		echo "Kamida bittasi toq";
	}

 ?>
```

**Else operatori**

```php
<?php
	$a = 5;
	$b = 3;
	$c = 4;

	if ($a < $b + $c &&
		$b < $a + $c &&
		$c < $b + $a)
	{
		echo "Uchburchak qurish mumkin";
```

```
    } else {
        echo "Uchburchak qurish mumkin EMAS";
    }

?>
```

## Sonning musbat Yoki manfiyligini anqlash

```
<?php
    // if - elseif operatoridan foydalanish
    // $a   $a = 5;

    if ($a > 0) {
        echo $a." musbat son";
    } elseif ($a < 0) {
        echo $a." manfiy son";
    } else {
        echo $a." nolga teng";
    }

?>
```

## Mantiqiy amallar

! (inkor qilish) - mantiqiy operatori mantiqiy ifodalar Yoki o'zgaruvchilar oldidan qo'yiladi. Mantiqiy ifoda Yoki o'zgaruvchining qiymatini teskarisiga o'zgartiradi.

<table><tr><td>X</td><td>Y</td><td>X</td><td>X||Y</td></tr></table>

&& (Mantiqiy ko'paytirish) - mantiqiy operatori ikkita mantiqiy o’zgaruvchini birlashtiradi. Agar ikkala o'zgaruvchi ham rost qiymatga ega bo'lsa natija rost, aks holda yolg'on natija beradi.

|| (mantiqiy qo'shish) - mantiqiy operatori ikkita mantiqiy o’zgaruvchini birlashtiradi. Agar o'zgaruvchilardan kamida bittasi rost qiymatga ega bo'lsa natija rost, aks holda yolg'on natija beradi.

### ! - mantiqiy inkor operatori jadvali

| X | !X |
|---|---|
| fal | true |
| tru | false |

### &&, || mantiqiy operatorlari jadvali

| | | | |
|---|---|---|---|
| false | false | false | false |
| false | true | false | true |
| true | false | false | true |
| true | true | true | True |

### Munosabat amallari

`==` - teng

`!=` - teng emas

`<` - kichik

`>` - katta

`<=` - kichik yoki teng

`>=` - katta yoki teng

## 2-Laboratoriya ishi

## Mavzu: $_GET o'zgaruvchilari

### NAZARIY BO'LIM

**Ishning maqsadi**: PHP da $_GET o'zgaruvchilarini o'rganish va qo'llash

**Ishning natijasida talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak*** – PHP da $_GET metodini qo'llashni;

**isset funksiyasi**

bool isset { mixed, $var mixed…] )

**isset** funksiyasi biror o'zgaruvchini bor - yo'qligini aniqlash uchun ishlatiladi. Agar o'zgaruvchi mavjud bo'lsa, **true** aks holda **false** qiymat qaytaradi. Agar o'zgaruvchi **unset()** funksiyasi orqali o'chirilgan bo'lsa ham **false** qiymat qaytaradi. Agar parametr slfatida bir nechta qiymat berilgan bo'lsa, ularning barchasi mavjud bo'lsa **true** qiymat qaytariladi.

**isset funksiyasiga misol**

```
<?php
	// isset funksiyasi o'zgaruvchining bor Yoki
	// yo'qligini aniqlash uchun ishlatiladi
	$k = 5;

	if (isset($k)) {
		echo '$k o`zgaruvchisi mavjud <br>';
	}
	else {
		echo '$k o`zgaruvchisi mavjud EMAS  <br>';
	}

	if (isset($t)) {
		echo '$t o`zgaruvchisi mavjud';
	}
	else {
		echo '$t o`zgaruvchisi mavjud EMAS';
	}
?>
```

**Natijasi:**

*$k o'zgaruvchisi mavjud*

*$t o'zgaruvchisi mavjud EMAS*

## $_GET o'zgaruvchilari

$_GET superglobal o'zgaruvchi hisoblanadi. $_GET orqali foydalanuvchidan ma'lumotlarni qabul qilib olishimiz mumkin. $_GET va $_POST orqali o'zgaruvchilar massiv shaklida qabul qilinadi.

$_GET orqali yuborilgan o'zgaruvchilarni chop qilish

```
<?php
    // print_r funksiyasi massivni o'qishga qulay shaklda chop qiladi
    print_r($_GET);
?>
```

Yuqoridagi kodni ***print_r.php*** fayliga saqlang va browser orqali chaqiring. Faqat
**Array()** yozuvi chiqadi. Biror o'zgaruvchiga qiymat berish uchun adreslar satrida ***print_r.php?&a=5,&b=3,&c=17*** shaklida yozing va enterni bosing. O'zgaruvchilarni bir biridan ajratish uchun **&** belgisi ishlatiladi




Browserlar **print_r** orqali chiqarilgan ma'lumotlarni chiroyli chiqara olmaydi. Shuning uchun sahifaning kodini ochib korishingiz mumkin. Quyidagicha shaklda chiqariladi.



**Endi biror o'zgaruvchini $_GET orqali yuborilgan Yoki yuborilmaganligini tekshiradigan script yozamiz.**

```
<?php
	// isset funksiyasi o'zgaruvchining bor Yoki
	// yo’qligini aniqlash uchun ishlatiladi

	if (isset($_GET['a']))
	{
		$a = $_GET['a'];
		echo $a.' kiritildi <br>';
	}
	else
	{
		echo ' a o`zgaruvchisiga qiymat berilmadi<br>';
	}
			// chop qilishning yana bir KO’RINISHI
	print_r($_GET);

?>
```

**isset, $_GET va if operatoridan birgalikda foydalanish**

```
<?php
	// isset va $_GET ga oid misol
	// shart operatoridan foydalanishni o'rganish

	if (isset($_GET['x'], $_GET['y']) ) {
		$x = $_GET['x'];
		$y = $_GET['y'];

		if ($x > $y) {
			echo $x;
		} else {
			echo $y;
		}
	} else {
		echo 'x va y ga qiymat kiritilmadi <br>
			<a href="?x=5&y=6"> Namuna sifatida havolani
bosing</a>';
	}
?>
```

**Yuqoridagi kodni ishga tushirsak quyidagi natija chiqadi.**




## HTML Forma orqali ma'lumot yuborish

Maqsad if operatorni yaxshilab o'rganish. if1 - masalasi. KiritiIgan son musbat bolsa, birga oshiruvchi aks holda o'zgarishsiz qoldiruvchi dastur tuzish. Quyidagi kodni if1.php nomi bilan saqlang.

```
<html>
<body>
<form action="if1.php" method="get">
        A = <input type="text" name="a"><br>
        Son kiriting<br>
        <input type="submit" value="Yubor"> <br>
</form>

        <?php
                if (isset($_GET['a'])) {
                        $a = $_GET['a'];

                        if ($a > 0) {
                                $a++;
                        }
                        // is_numeric - funksiyasi o'zgaruvchini son Yoki
                        // son emasligini aniqlash uchun ishlatiladi
                        if (is_numeric($a)) {
                                echo "Natija=".$a;
                        } else {
                                echo 'Siz son kiritmadingiz';
                        }
                }
        ?>
</body>
</html>
```




**Shart operatoriga oid masalalar**

if1 Butun son berilgan. Agar, berilgan son musbat bo'lsa, 1 ga oshirilsin, aks holda o'zgartirilmasin. Hosil bo'lgan sonni ekranga chiqaruvchi programma tuzilsin.

if2 Butun son berilgan. Agar, berilgan son musbat bo'lsa. 1 ga oshirlng, aks holda 2 ga kamaytiring. Hosil bo'lgan sonni ekranga chiqaruvchi programma tuzilsin.

if3. Butun son berilgan. Agar, berilgan son musbat bo'lsa, 1 ga oshiring, agar manfiy bo'lsa 2 ga kamaytiring. Agar 0 ga teng bo'lsa, 1 0 ni o'zlashtirsin. Hosil bo'lgan sonni ekranga chiqaruvchi programma tuzilsin.

if4. Uchta butun son berilgan. Shu sonlar orasidan nechta musbat son borligini aniqlovchi programma tuzilsin.

if5. Uchta butun son berilgan. Shu sonlar orasidan nechta musbat va manfiy son borligini aniqlovchi programma tuzilsin.

if6. Ikkita butun son berilgan. Shu sonlarning kattasini aniqlovchi programma tuzilsin.

if7. Ikkita butun son berilgan. Shu sonlarning kichigini tartib raqamini aniqlovchi programma tuzilsin.

if8. Ikkita butun son berilgan. Shu sonlarning avval kattasini keyin kichigini ekranga chiqaruvchi programma tuzilsin.

if9. A va B haqlqiy sonlari berilgan. Shu sonlarni shunday o'zgartirish kerakki. A son kichik B son katta bo'lsin. A va B ning qiymati ekranga chiqarilsin.

if10. A va B butun sonlari berilgan. Agar o'zgaruvchilar o'zaro teng bo'lmasa, A va B o'zgaruvchilah ularning yig’indisini o'zlashtirsin. Agar teng bo'lsa, 0ni o'zlashtirsin. A va B ning qiymati ekranga chiqarilsin.

if11. A va B butun sonlari berilgan. Agar o'zgaruvchilar o'zaro teng bo'lmasa, A va B bu sonlarning kattasini o'zlashtirsin. Agar teng bo'lsa, 0ni o'zlashtirsin. A va B ning qiymati ekranga chiqarilsin.

if12. Uchta son berilgan. Shu sonlarni kichigini aniqlovchi programma tuzilsin.

if13. Uchta son berilgan. Shu sonlarni o'ratachasi (ya’ni katta va kichik sonlar orasldagi son)ni aniqlovchi programma tuzilsin.

if14. Uchta son berilgan. Shu sonlarni avval kichigini keyin kattasini ekranga chiqaruvchi programma tuzilsin.

if15. Uchta son berilgan. Shu sonlarning yig'indlsl eng katta bo'ladigan ikkitasini ekranga chiqaruvchi programma tuzilsin.

if16. A, B, C haqiqiy sonlari berilgan. Agar berilgan sonlar o'sish tartibida berilgan bo'lsa. sonlarni ikkilantiring. aks holda sonlarni ishorasi o'zgartirilsin. A, B, C ning qiymatlari ekranga chiqarilsin.

if17. A, B, C haqiqiy sonlari berilgan. Agar berilgan sonlar o'sish Yoki kamayish tartibida berilgan bo'lsa. sonlarni ikkilantiring. aks holda sonlarni ishorasi o'zgartirilsin. A, B. C ning qiymatlari ekranga chiqarilsin.

if18. Uchta butun son berilgan. Shu sonlarni Ikkitasl o'zaro teng. qolgan bittasini tartib raqami aniqlansin.

if19. To'rtta butun son berilgan. Shu sonlarni uchtasi o'zaro teng. qolgan bittasini tartib raqami aniqlansin.

if20. Sonlaro'qida uchta A, B, C nuqtalarberilgan. A nuqtaga eng yaqin nuqta va ular orasidagi masofa topilsin.

if21. Koordinatalar tekisligida butun son berilgan. Agar nuqta koordinata boshida yotsa, 0 chiqarilsin. Agar nuqta OX Yoki OY o'qlarida joylashsa mos holda 1 va 2 chiqarilsin. Agar nuqta koordinata o'qida joylashmasa 3 chiqarilsin.

if22. OX va OY koordinata o'qlarida yotmaydigan nuqta berilgan. Nuqta joylashgan koordinata choragi aniqlansin.

if23 Koordinata o'qlariga parallel ravishda to'g'ri to'rtburchakning uchta uchi berilgan, to'rtinchi uchi koordinatasi aniqlansin.

if24. X haqiqiy soni berilgan. Quyidagi funksiya hisoblansin.

if25. Yil benlgan (rnusbat butun son). Benlgan yilda nechta kun borligini aniqlovchi programma tuzilsin. Kabisa yilida 366 kun bor, kabisa bo'lmagan yilda 365 kun bor. Kabisa yil deb 4 ga karrali yillarga aytiladi. Lekin 100 ga karrali yillar ichida faqat 400 ga karrali bo'lganlari kabisa yil hisoblanadi. Masalan 30 D, 1300 va 1900 kabisa yili emas. 1200 va 2000 kabisa yili.

if26. Butun son berilgan. Berilgan sonni inusbat toq son", ¦'manfiy juft son$^{N}$, ¦'son nolga teng$^{N}$ va x.k. ekranga yozadigan programma tuzilsin.

If27. 1 -999 oraliqdagi sonlar benlgan. Berilgan sonni "ikki xonali juft son"", "uch xonali toq son" va x.k. ekranga yozadigan programma tuzilsin.

## 3-Laboratoriya ishi

## Mavzu: PHP da satrlar bilan ishlash

### NAZARIY BO’LIM

**Ishning maqsadi**: PHP da satrlar bilan ishlash o’rganish va qo’llash

**Ishning natijasida talaba quyidagilarga ega bo’lishi kerak**:

***Bilishi kerak*** – PHP da String toifasidagi funksiyalarni o’rganish;

*String* - satrlar bilan ishlash toifasi. Satr deb ixtiyoriy belgilar ketma - ketligiga aytiladi. Satrni apostrof Yoki qo'shtirnoq orasida yozish mumkin.

PHP 5 da satrlar bilan ishlovchi funksiyalarning jami soni 100 ga yaqin. Satrlar bilan ishlovchi funksiyalar bilan mustaqil ravishda tanishib chiqing. Biz esa quyidagilar bilan kifoyalanamiz.

**# Satrlar bilan ishlovchi funksiyalar**

**strlen** - Satr uzunligini anlqlash uchun ishlatiladi. Satrdagi belgilar sonini qaytaradi.

**str_word_count** - Satrdagi so'zlar sonini aniqlash uchun ishlatiladi. Satrdagi so'zlar sonini qaytaradi.

**strrev** - Satrni teskarisiga o'girish.

**strpos** - Satrdan so’zni Yoki biror Satrni qidirish. Agar qidirilayotgan satr bor bo'lsa joylashgan o’rnini qaytariladi aks xolda false qaytadi.

**str_replace** - Satrni amashtirish. str_replace(search. replace, subject);

**stripslashes** -teskari slashni o'chirish uchun ishlatiladi. *magic_quotes_gpc* yoqilgan bo'lishi lozim.

**trim** – satr boshidagi va oxiridagi probel va boshqa belgllarni o'chirish uchun ishlatiladi

*string trim (string $str[, string $character_ma5k = " \t\n\r\0\x0B ']);*

***" " (ASCII 32(0x20)), oddiy probel.***

***“\t” (ASCII 9 (0x09)), tabulyatsiya belgisi.***

***“\n” (ASCII 10 (OxOA)), keyingi satrga otish belgisi.***

***“\0” (ASCII 0 (0x00)), NUL-bayt***

'***“1x0B” (ASCII 11 (0x0B)), vertikal tabulyatsiya.***

**htmlspecialchars** - maxsus belgilarni HTML kodiga o'girish uchun ishlatiladi.

*string htmlspecialchars { string string [, int quote_style [, string charset]]);*

**Yozish majburiy bo'lmagan quote_styie xususiyati 3 xil qiymat qabul qiladi.**

ENTCOMPAT - ikkitalik qo'shtirnoqm HTP*1L kodiga o'giradi. Odatda shu qiymat o'rnatilgi bo'ladi.

ENT_QUOTE3 -harikkala (" ", ' ') qo'shtirnoqm ham HTML kodiga o'giradi.

ENT_NOQUOTES - har ikkalasi ham o'zgarishsiz qoldiriladi. Bu funksiya orqali faqat quyidagi belgilar HTML kodiga o'giriladi:

**&** Ampersandm **&** kodiga o'giradi.

**“”** ikkitalik qo'shtirnoqm &**quot;** kodiga o'giradi. AgarENT_NOQUOTES o'rnatilmagan bo'lsa.

‘’’ apostrofm **&039;** kodiga o'giradi. Agar ENT_QUOTES o'rnatilgan bo'lsa.

**strlen, str_word_count, strrev funksiyalaridan foydalanish**

```
<?php
	$k = "Assalomu alaykum bo'lajak dasturchilar";
	echo $k.'<br>';
	echo 'Satrdagi belgilar soni='.strlen($k).'<br>';
	echo 'Satrdagi so`zlar soni='.str_word_count($k).'<br>';
	echo 'Telefon so`zining teskarisi='.strrev('Telefon');

?>
```

**Natijasi:**

*Assalomu alaykum bo'lajak dasturchilar*

*Satrdagi belgilar soni=38*

*Satrdagi so'zlar soni=5*

*Telefon so'zining teskarisi=nofeleT*

**strpos, str_replace funksiyalariga misol**

```
<?php
	// satrdan qidirish va almashtirish
	$k = 'Assalomu alaykum bo`lajak dasturchilar';
	$d = 'dasturchi';

	echo $k.'<br>';
	echo 'Satrdagi belgilar soni='.strlen($k).'<br>';
	echo "dasturchi so`zi boshlangan indeks=".strpos($k, $d).'<br>';

	// bo`lajak so'zim professional so'ziga almashtirish
	$k = str_replace('bo`lajak', 'professional', $k);
	echo $k;

?>
```

**Natijasi:**

*Assalomu alaykum bo'lajak dasturchilar*

*Satrdagi belgilar soni=38*

*dasturchi so'zi boshlangan indeks=26*

*Assalomu alaykum professional dasturchilar*

**Stripslashes funksiysining qo'llamlishi**

```
<?php
	$str = "Assalomu alaykum bo\'lajak dasturchilar!";
	// teskari slashni '\' olib tashlash
	echo $str.'<br>';
```

*echo stripslashes($str);*

*?>*

**Natijasi:**

*Assalomu alaykum bo\’lajak dasturchilar!*
*Assalomu alaykum bo'lajak dasturchilar!*

### Trim funksiyasi

```
<?php
        $text   = "\t\t Bu yerda bir nechta so`z bor:) ...  ";
        $binary = "\x09Satrga namuna\x0A";
        $hello  = "Hello world";

        var_dump($text);   echo '<br>';
        var_dump($binary);        echo '<br>';
        var_dump($hello); echo '<br>';

        echo "<br>";

        $trimmed = trim($text);
        var_dump($trimmed);     echo '<br>';

        $trimmed = trim($text, " \t.");
        var_dump($trimmed);     echo '<br>';

        $trimmed = trim($hello, "Hdle");
        var_dump($trimmed);     echo '<br>';

        // $binary satri boshi va oxiridagi
        // boshqaruvchi ASCII-belgilarim olib tashlAyniiz
        // ([0 dan 31] gacha)
        $clean = trim($binary, "\x00..\x1F");
        var_dump($clean);

?>
```

**Natijasi:**

*string(39) " Bu yerda bir nechta so' z bor:) ...*
*string(15) "Satrga namuna "*
*string( 11) 'Hello world"*
*string(34) 'Bu yerda bir nechta so' z bor:) ..."*
*string(30) 'Bu yerda bir nechta so'z bor:)"*
*string(5) "o wor"*
*string(13) «Batrga namuna"*




**htmlspecialchars funksiyasidan foydalanish**

```
<?php
        $str = "<h1>Jane & 'Tarzan'</h1>";
        // faqat ikkitalik qo'shtirnoqm o'girish
        echo htmlspecialchars($str, ENT_COMPAT);
        echo "<br>\n";
        // har ikkala qo'shtirnoqm ham o'girish
        echo htmlspecialchars($str, ENT_QUOTES);
        echo "<br>\n";
        // har ikkalasini ham o'zgarishsiz qoldirish
        echo htmlspecialchars($str, ENT_NOQUOTES);

?>
```



## 4-Laboratoriya ishi

## Mavzu: Tanlash operatori

### NAZARIY BO'LIM

**Ishning maqsadi**: PHP da boshqarishni uzatish operatorlarida ishlashni o'rganish va qo'llash

**Ishning natijasida talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak**:

***Bilishi kerak*** – PHP da switch, case, break, default funksiyalarni bilish;

Boshqarishni uzatish operatorlaridan yana biri tanlash operatoridir. Tanlash operatori asosan bir nechta qiymatdan, o'zgaruvchiga mos qiymatni tanlashda va qiymatlarga mos ravishda boshqarishni uzatishda ishlatiladi.

**Tanlash operatorining umumiy KO'RINISHI:**

switch {<o'zganivchi>} {

**case <o'zgarmas ifoda l> : <operator** 1>; **break; case <o'zgarmas** ifoda2> **: <operator 2**>; **break;**

**case <o'zgarmas ifodaN> : <operator N>; break; [default : operator H +** 1]; }

Tanlash operatorida boshqarilish o'zgaruvchiga mos ravishda qiymatlarga uzatiladi va mos operator ishga tushadi. **default** operatori birorta ham qiymat o'zgaruvchiga to'gri kelmasa ishlatiladi. **default** operatorini ishlatmasdan tashlab ketish ham mumkin.

**Eslatma:**

Dasturlashga doir kitoblarni o'qiganingizda, biror operatorning umumiy ko'rinishining to'rtburchak qavs [ ] belgisi oralig'ida yozilgan qismini ishlatmasdan tashlab ketish mumkin. Operatorning bu qismidan foydalanish ixtiyoriy bo'ladi.

**Songa mos hafta kunni chiqarish**

```
<?php
    $k = 5;
    switch ($k) {
        case 1:
            echo "Dushanba";
            break;
        case 2:
            echo "Seshanba";
            break;
        case 3:
            echo "Chorshanba";
            break;
        case 4:
            echo "Payshanba";
            break;
        case 5:
            echo "Juma";
```

```
                break;
            case 6:
                echo "Shanba";
                break;
            case 7:
                echo "Yakshanba";
                break;

            default:
                echo "Bunday hafta kum yo`q";
                break;
        }
?>
```

**Tanlash operatorida bir nechta qiymatga bir xil operator ishlatishi quyidagicha bo'ladi.**

```
<?php
        $k = 'MAY';
        $k = strtolower($k); // kichik harflarga o'girish

        switch ($k) {
            case 'yanvar':
            case 'fevral':
            case 'dekabr':
                echo "Qish oyi";
                break;

            case 'mart':
            case 'aprel':
            case 'may':
                echo "Bahor oyi";
                break;

            case 'iyun':
            case 'iyul':
            case 'avgust':
                echo "Yoz oyi";
                break;

            case 'sentyabr':
            case 'oktyabr':
            case 'noyabr':
                echo "Kuz oyi";
                break;        }
?>
```

## 5-Laboratoriya ishi

## Mavzu: for sikl operatori

## NAZARIY BO'LIM

**<u>Ishning maqsadi</u>**: PHP da sikl operatorlarida ishlashni o'rganish va qo'llash
**<u>Ishning natijasida talaba quyidagilarga ega bo'lishi kerak</u>**:
***Bilishi kerak*** – PHP da for sikl funksiyalarni bilish;

Bir xil hisoblash jarayonlarini bir necha bor takrorlanish **Sikl** deyiladi. PHP da sikl operatorining bir necha xil turi mayjud.

- for sikl operatori
- do ... while sikl operatori
- while sikl operatori
- fareach sikl operatori

Yechilayotgan masalaga qarab, programmist o'zi uchun qulay bo'lgan sikl operatoridan foydalanishi mumkin

for takrorlanish operatorining sintaksisi quyidagicha:

**for (<±fodal>; <±foda2>; <±foda3>} <operator Yoki blok>;**

Bu operator amai qillshm <lfoda1> bajarishdan boshlaydl. Keyln takrorlash qadamlari boshlanadi. Har bir qadamda <lfoda2> bajariladi, agar natija 0 dan farqli Yoki rost (true) bo'lsa, sikl tanasi -<operator Yoki blok> bajariladi va oxirida <ifoda3> bajariladi, aks holda boshqaruv takrorlash operatoridan keyingi operatorga o'tiladi. Sikl tanasi - <operator Yoki blok> slfatlda bitta operator, shujumladan bo'sh operator, Yoki operatorlar bloki kellshi mumkin.

Sikl takrorlanishi davomida bajarilishi lozim bo'lgan operatorlar majmuasi sikl tanasi deyiladi. Sikl tanasi sifatida bir Yoki bir nechta operatordan foydalanish mumkin. Agar sikl tanasida bir nechta operatordan foydalanmoqchi bo'lsak bu operatorlarni blok {} orasiga olishimiz kerak

**for sikl operatori mumumiy ko'rinishda quyidagicha ham ifodalash mumkin:**

**for** (sikl_o'zgaruvchisining_boshlang'ich_qiymati; takrorlanish_sharti; sikl_o'zgaruvchisini_oshirish) sikl_tanasi; sikl_o'zgaruvchisini_oshirish o'rinda kamaytirish ham bo'lishi mumkin.

```
<?php
	for ($i=1; $i <= 10; $i++) {
		echo $i."-satr<br>";
	}
 ?>
```

***Natijasi:***

